

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

*M.Muhamedov, F.Fayziyeva, V.Ablyayeva*

# **TELEVIDENIYE ASOSLARI**

*San‘at va san‘atshunoslik oliy o‘quv yurtlari talabalari  
uchun darslik*

«Voriz-nashriyot»  
Toshkent – 2009

Taqrizchilar: **B. Ahmedov** – O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, dotsent, «O‘zbektelefilm» studiyasi kinorejissori.  
**O. Tojiboyeva** – san‘atshunoslik fanlari nomzodi.

Mazkur darslikda XX asr mo‘jizalaridan biri bo‘lgan televideniyaning paydo bo‘lishi, uning jamiyat hayotidagi o‘rni, televideniye ko‘rsatuvlarini yaratishdagi ijodiy jarayonlar, teleko‘rsatuvlarni tashkil etish masalalari, teledasturlar janrlari kabi nazariy mavzular, shuningdek, O‘zbekiston televideniyesining taraqqiyot bosqichlari, badiiy televideniye tajribalari va muammolari, televideniyaning jamiyat oldidagi vazifalari va boshqa mavzulari atroflicha yoritilgan.

«Televideniye asoslari» darsligi san‘at va san‘atshunoslik oliy o‘quv yurtlari talabalariga, san‘atshunos jurnalistlar, rejissorlar, kinoteleoperatorlar, ovoz rejissorlari hamda shu sohaga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

---

## SO‘ZBOSHI

«Televideniye asoslari» darsligi san‘atshunos jurnalistlar, rejissorlar, kinoteleoperatorlar, ovoz rejissorlari hamda barcha shu sohaga qiziquvchi mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Televideniye paydo bo‘lib, san‘at sifatida shakllanganidan beri tarixan ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa-da, bu sohada talaygina tadqiqot ishlari, ilmiy nazariy ishlar amalga oshirildi. Bu soha zamonaviy san‘at sifatida juda tez rivojlanmoqda va takomillashmoqda. Ayniqsa televizion texnikaning taraqqiyoti, kompyuter texnologiyasi, internet tizimlarining xonadonlarga kirib kelishi OAV rivojiga katta hissa qo‘shmoqda. Bu esa soha mutaxassislarini tayyorlashda fanni izchillik bilan o‘rganishni, unga ilmiy-uslubiy yondashishni taqozo etadi. Ushbu darslikda televideniyaning kashf etilishi, tarixi va nazariyasining asosiy yo‘nalishlari hamda taraqqiyot bosqichlari keng yoritiladi. Televideniye asoslari keng qamrovli soha bo‘lib, birgina darslikda uning barcha qirralarini ochib berish mushkul. XX asr mo‘jizasining insoniyat taraqqiyotidagi o‘rnini imkon qadar baholashga, televideniye texnologiyasining rivojlanishi, undagi ijodiy izlanishlar, O‘zbekistonda televideniyaning, xususan badiiy televideniyaning paydo bo‘lishi, shakllanishi va uning mustaqillikdan keyingi istiqbol-larini o‘rganishga harakat qilindi. Televideniye asoslari haqidagi ushbu darslik talabalarga va kitobxonlarga qulay bo‘lishi uchun elektron shaklda hamda san‘at turlarining ichida OAV o‘rnini bo‘limlarga ajratib nashrga tayyorlandi. Darslikni tayyorlashda foydali maslahat va ko‘rsatmalarini ayamagan barcha hamkorlarga minnatdorchiligimizni bildiramiz.

*Mualliflar.*

---

## I BO'LIM

### 1. XX asr mo'jizasi

Ming yillar davomida odamzod doimo yangiliklarga, ixtirolarga intilib kelgan.

XX asr — tarix kitobidan bir varaqasini egallaydigan fursat bo'lib, ongning yuksalishi nuqtayi nazaridan qaralsa, shu qisqa vaqt ichida odamzod hali shu paytgacha xayoliga keltirmagan yangi-yangi kashfiyotlar ochdi, o'sha yuksak darajadagi texnologiyalarni hayotga tatbiq etdi.

Odamzod yaratgan kashfiyotlarning biri «Televideniye» va u bilan bog'liq bo'lgan vositalardir. Televideniye hayotimizga kirib kelishi insoniyatning uzoq o'tmishdagi orzu-o'ylari, xayoloti, afsona-yu ertak to'qimalari nuqtayi nazaridan qaraganda nihoyatda tabiiy jarayon hisoblanadi. Kishilar o'zini va borliqni anglashni o'rganishga intilgan davridanoq xayolan uzoq-yaqin yurtlarni, masofalarni ko'rishga, his qilishga uringanlar. Xalq og'zaki ijodidagi sehrlilik ko'zga, jomi jamshid, oynayi iskandariy, qolaversa «vaqt mashinasi» kabilar zamonaviy televideniye ramziy timsollaridir. A.Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida ham Farhod Laylini ilk bor oynayi jahonda ko'radi.

Har bir inson hozir xonadon burchagida turgan hamda kundalik ehtiyojga aylangan muzlatkich, kir yuvish mashinalari, televizor qutisini dunyoda sodir bo'layotgan voqealardan voqif qiluvchi, yangiliklarni yetkazuvchi yaqin telemarkazdan yoki Yer yo'ldoshidan qabul qiluvchi maishiy elektr asbobi o'rnida ko'rayotganini kuzatish oddiy bir holga aylangan. Ko'pincha biz e'tibor bermaydigan bu holat aslida XX asr mo'jizasi, uning buyuk kashfiyoti ekanligini o'ylab o'tirmaymiz. Televideniye kim, qachon va qayerda ixtiro qilgan?

Aslida tasvirni bir manzildan boshqa manzilga uzatish ishlari XIX asr o'rtalaridayoq olib borilgan. «Televideniye» atamasi dastlab 1890-yilda Parijda o'tkazilayotgan xalqaro anjumanda tilga olingan. Unda rus injener elektrigi K.D. Perskiy o'z ma'ruzasida «Elektrli te-

levideniye» so'zini ishlatgan. Televideniye asosida uch fizik jarayon yotadi: yorug'lik energiyasini elektr signalga aylantirish, uni teletarmoqlar orqali uzatish, qabul qilish va so'nggi jarayon elektr signalini optik tasvirga aylantirish. XIX asr o'rtalaridan boshlab rus, ingliz, nemis olimlari shu sohada izlanishlar olib bordilar.

Optik signalni elektr nurlariga aylantirish asosida fotoeffekt sodir qilish yotadi. Nurning elektrga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri birinchi bor nemis olimi G. Gersga elektr zarralarini tebranish tajribalarini o'tkazish jarayonida ayon bo'lgan. Gers ultrabinafsha nurlar bilan oziqlangan o'tkazgichlarning elektr zarralarining tebranish kuchi uzoqlashganda kamayishi, musbat va manfiyning yaqinlashuvi natijasida elektr nurlarining kuchayishini aniqlab bergan. Bu hodisalarni G. Gers o'z maqolalarida 1887–88-yillari e'lon qilgan. Ammo nima uchun shunday bo'layotganini, uning fizik tabiatini asoslab berolmagan. Nurning harakati va zarra tebranishlarini nemis fizigi Golvaks ham, italiyalik fizik Rig ham, ingliz fizigi Lodj ham tajribalarida to'g'ri asoslab berolmagan. Hodisaning kimyoviy tabiatini taxminlardagina aytishgan xolos. Faqat 1897-yildagina fizik Jozef Tomson bu elektron hodisa ekanligini kashf etdi. Biroq ungacha 1888-yili 26-fevral kuni rus olimi A.Stoletov o'zining ajoyib tajribasida nur va elektr quvvatidan hosil bo'lgan chaqin fotoelement ekanligini isbotlagan. Hodisaning haqiqiy tashqi tabiatini, nurning elektrga ta'sir xarakterini ko'rsatib bergan. A.Stoletovning oddiy elektroskopda o'tkazgan dastlabki tajribalari ijobiy natijalar beradi. Bu fan va texnika olamida tan olinib sinab ko'rilgan asboblarning jahonda birinchi marta yaratilgan fotoelementlar ekanligi qayd etiladi. Hozirgi zamon fotoelementlari esa ko'rinishi va hajmi bilan farq qiladi xolos. A. Stoletov yaratgan fotoelement ultrabinafsha ranglarni o'tkazuvchi kvarslil shisha idish bo'lib, uning ichiga nurga ta'sirchan elektrodlar joylashtirilgan va havosi chiqarilgan asbob edi. Bu fotoelement batareyada quvvatning ko'pligiga qarab nur taramlarining fotoquvvatga bog'liq ekanligini aniqlab bergan. A.Stoletov tomonidan ixtiro qilingan fotoelement — aktino elektr quvvati deb atalgan. Fotoelementning elektron tabiati 1899-yili J.Tomson tomonidan, keyinchalik 1900-yili Lenard tomonidan namoyish qilinadi. Faqat 1905-yildagina Albert Eynshteyn Kvant nazariyasi asosida fotoelementga to'la aniqlik kiritib beradi. Zamondoshlari nurga ta'sirchan fotoelementni «elektrli ko'z» deb atay boshlashdi.

«Elektrli ko'z» hozirgi zamon televizoriga aylangunga qadar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Buning uchun murakkab texnikaviy imkoniyatlarni qo'lga kiritish kerak edi. Yorug'lik energiyasini elektr signalga aylantirishda tasvirni uzoq masofalarga uzatish va ularni qayta qabul qilish tizimlarini bunyod qilishdek murakkab vazifalar turardi. Insoniyat bu mashaqqatli jarayonni uddasidan chiqa oldi.

Fotoelement hodisasining kashf etilishi yorug'lik energiyasini elektr signalga aylantirishga imkon berdi. Endi tasvirni masofaga uzatish, uning ketma-ketligini ta'minlash kerak edi. Bu muammo ustida ko'p olimlar bosh qotirishgan. 1817-yili mashhur kimyogar shved olimi Yakob Barselius selen elementini ixtiro qiladi. Oradan yarim asr o'tgach ingliz muhandisi K.Mey selenda fotoo'tkazgich xossasini kuzatdi, keyinchalik injener U.Smitt esa uning xossasini tushuntirib berdi. Selenda asosiy xususiyatlaridan biri – yorug'lik nurining elektr qarshiligida o'zgaruvchanligi, selen plastinkasiga tushgan nur yorug'ligi qancha kuchaysa, elektr quvvatini shuncha oson o'tkazishi qayd etilgan. Bu ixtiro va loyihalar yechimini amalga oshirish oson bo'lmagan. Ularni amalga oshirishda texnikaviy baza yetishmas, moddiy qiyinchiliklar mavjud edi. XIX asr oxiriga kelib tasvirni masofaga uzatish tizimi ustida ko'pgina mamlakat olimlari o'z loyiha va takliflarini e'lon qila boshlashdi. AQSh dan Kerri, Gerbert Ayvis, Angliyadan Kempbell Suinton, Jon Berd, Olmoniyadan Dikman, Shreter, Portugaliyadan de Payva, Italiyadan Kostilin, Rossiyadan B.L.Rozing, P.I.Baxmetyev va boshqalar bu loyihalarni amalga oshirishda katta izlanishlar olib bordilar. 1875-yili amerikalik olim Jorj Kerri ko'z tuzilishiga o'xshash sodda, tasvir uzatuvchi va qayta tiklovchi tizim taklif qiladi. Uzatuvchi va qabul qiluvchi tomonlar to'r shaklida joylashtirilgan fotoelementlardan tashkil topgan bo'lib ularning har biri sim bilan tutashtirilgan edi. To'r ustiga tushirilgan optik tasvir fotoelementlar orqali elementlarga ajratiladi. Kerri birinchi bo'lib optik tasvirni alohida elementlarga ajratishni taklif qildi. Nazariy jihatdan bu fikr bebaho edi. Rus olimi P.I.Baxmetyev, fransuz olimi K.M.Senlek ham tasvirni ketma-ket uzatishning asosiy mohiyatini ochib berishga harakat qildilar. Ular tasvir elementlarini bir vaqtda emas, balki biror vaqt oralig'ida ketma-ket uzatish yo'lini izladilar. Tasvirni qabul qiluvchi tomonida yaxlit tasvirni tiklash imkoniyati tug'iladi. Bu loyihalar mukammal bo'lmagani va moddiy texnik ta'minlanmaganligi bois ularning birtortasi ham amalga oshirilmadi.

Tasvir elementlarini ketma-ket uzatishning amaliy yechimi nemis fuqarosi polyak P.Nipkov tomonidan 1884-yilda uning optik mexanik qurilmali loyihasida amalga oshirildi. U fanda «Nipkov doirasi» nomi bilan ma'lum. Bu qurilma yorug'lik o'tkazmaydigan katta diametrli doiradan iborat bo'lib, unda Arximed spirali bo'yicha kichik teshiklar joylashtirilgan. Bu teshiklarning jami tasvir elementlarining o'lchamini aniqlaydi. Har bir teshik o'lchami tasvir elementini belgilaydi va radiusi bo'yicha oldingi teshikka nisbatan diametriga barobar markazga siljirilgan. Teshikli doira oldida chegaralovchi rom o'rnatilgan. Romning balandligi, kengligi teshiklarning masofasi bilan o'lchanadi. Doira aylantirilganda teshik rom ichida yoy bo'yicha harakatlanadi. Har bir teshik bir satrni chizadi va tasvirni yoyuvchi satrlar soni teshiklar soniga teng bo'ladi. Doiraning bir aylanishida tasvirning hamma elementlari uzatiladi. P.Nipkov taklif etgan fikrning amalga oshirilishi o'ta soddaligi bilan ajralib turar edi. Dastlabki televizion uzatishlar o'ttiz satrli, 180 satrli, keyinchalik mukammalroq texnik imkoniyatlarga erishilib, 375 satrli tasvirni yoyuvchi optik mexanik tizimlar yaratildi. Tasvirni elementlarga bo'lish soni oshgan sayin tizimning sezgirligi keskin kamaydi, hosil bo'lgan signal yorug'lik oqimining o'tishi natijasi edi. Televideniye kashf etigan davrda elektron televideniye amalga oshirishning texnik imkoniyati yo'q edi.

1907-yili B.L.Rozing elektron naycha pardasida tasvirni tiklashni taklif qildi va uni ixtiro sifatida patentladi. B.L.Rozing taklif qilgan elektron nay tasvirni lyuminofor parda yuzida navbatma-navbat yoyish vazifasini bajardi. Nur oqimini boshqaruvchi element kiritilganligi bilan Rozingning nay elektron avvalgilarga qaraganda tubdan farq qilardi.

1907-yili B.L.Rozing razvyortka uchun bundan 10 yil avval nemis fizigi Karl Braun tomonidan kashf etilgan va ossillograflarda qo'llangan katodli nurli trubkani ishlatishni taklif qildi. Bu trubka tufayli muallaq elektron nurini «qatorlar» bo'ylab tasvirni «yugurib o'tishiga» katta tezlik bilan erishish mumkin edi. Peterburg Texnologiya institutining o'qituvchisi B.L.Rozing elektrik signallarning elektron nurli trubkada tasvir ko'rinishida qayta shakllanishini tavsiya etgan holda «katodli teleskopiya» sistemasini patentladi. 1911-yilning 9-may kuni B.Rozing o'z ixtirosini kasbdoshlariga namoyish etdi va tez orada Rossiya texnika jamoasining Oltin medali bilan taqdirlandi. Rozingning patenti zamonaviy televideniye paydo

bo'lishida asosiy o'rinni egallagadi va uning mohiyati butun jahonda tan olindi.

B.L.Rozing ixtiro etgan katodli trubkaning ishlash jarayoni ko'rsatuvlar tasvirining yanada zamonaviy vositalarini kashf etish uchun asos bo'ldi. Lekin, bu trubkada mexanik diskning o'rniga, tasvir sifatini yuqori darajaga olib chiqish imkoniyati bo'lmagan, ya'ni ekranda qatorlar soni elektron nurida qo'llanilgan bo'lib, u kerakli masofaga elektron nurini chayqatuvchi elektrod-katodlar sistemasi orqali yo'nalgan. Juda qisqa vaqt oralig'ida va katta aniqlik bilan nishonni nur bilan yoritishga imkon beradi.

Bir qancha rossiyalik tadqiqotchilarning qismati buyuk olim, professor Rozingni ham chetlab o'tmadi. U 1931-yilda Stalin davridagi «tozalash» vaqtida hibsga olinib, 3 yilga Arxangelskga surgun qilingan edi. Biroq olim jazo muddati tugaguncha yashamadi, miyasiga qon quyilib, 1933-yilda vafot etdi. Unga o'ylab qo'ygan fikrlarini amalga oshirish va ishini oxirigacha yetkazish nasib etmadi. Buni uning shogirdi V.K.Zvorikin AQSh da ro'yobga chiqardi.

V.K.Zvorikin hayoti kutilmagan voqea-hodisalarga juda boy. Vladimir Kozmich Zvorikin 1889-yili 30-iyulda Muromda, ilk gildiyaning savdogari, ko'zga ko'ringan kemalar egasi Kozma Alekseyevich Zvorikin oilasida dunyoga keldi. 1906-yilda o'rta bilim yurtini tugatib, Peterburg universitetiga o'qishga kirdi. Keyinchalik otasining maslahati bilan Texnologiya institutida o'qishni davom ettirdi. Professor Rozing bu talabning iqtidori va mahoratiga e'tibor berib, unga birga ishlashni taklif qildi.

1912-yilda yosh kashfiyotchi institutni a'lo baholarga bitirib, Parijga College de France kollejiga o'qishini davom ettirish uchun bordi.

V.Zvorikin ko'p qiyinchiliklar bilan Peterburgdagi Westinghouse Electric firmasining laboratoriyasiga ishga joylashdi va elektron televideniyaning g'oyalarini amalga oshirish ishlarini boshlab yubordi. 1923-yilda uzatib beruvchi original trubka uskunasi ishlab chiqardi, biroq u firma rahbarlarining e'tiborini jalb etmadi. Lekin u o'zini qiziqtirgan g'oyalari ustida yashirincha ishlashni davom ettirdi va 1929-yilda qabul qiluvchi elektron-nurli trubka, hozirga qadar televizion priyomniklarda asosiy qirralarni saqlab qolgan 9,5 dyuymlik (taxminan 24 sm) diagonallikdagi kineskopni patentladi.

1924-yili u Amerika fuqaroligini olib, ikki yildan so'ng Peterburg universitetida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1929-yilda esa

unga yana omad kulib boqdi. Uning ishini yoqtirib, yuqori baho bergan inson Devid Sarnovni uchratdi. Devid V.Zvorikindan ikki yoshga kichikroq bo'lib, ularning ikkisi ham rus tilida so'zlashar edi. 1906-yilda Devid radiooperator bo'lib ishlab, mashhur radio ixtirochisi Guliyelmo Markoni bilan tanishdi va unga yordamchi bo'ldi. «Titanik» fojeaviy halokatidan so'ng, D.Sarnovning nomi juda mashhur bo'lib ketdi. «Sarnov afsonasi» paydo bo'ldi, ya'ni aynan D. Sarnov 1912-yil 14-aprel kechki vaqtda cho'kayotgan kemadan birinchi bo'lib halokat signalini qabul qilgan va 72 soat davomida axborotlarni qabul qilib, uni yetkazish uchun apparatlar yonida qolgan edi. Aslida esa, D.Sarnov halokat haqidagi xabarni sodir etilgan kunning ertasiga ertalab eshitgan. Biroq haqiqatni boshqalardan, avval uncha quvvatga ega bo'lmagan radiostansiyalardan qabul qilib, tirik qolgan yo'lovchi passajirlar haqida gazetaga informatsiya yetkazib turgan. «Titanik» halokati radioni, shuningdek, meni ham ommaga mashhur qildi, — deb aytgan edi keyinchalik D.Sarnov.

D. Sarnovning mavqei tezkorlik bilan ko'tarilib bordi. U 1919-yili tijorat menejeri bo'lib ishladi, so'ng Radio Corporation of America (RCA) radiosining bosh menejeri etib tayinlandi. D.Sarnov radioga ta'rif berarkan: «Radio nafaqat aloqa vositasi, «simsiz telegraf», balki muhim bilim beruvchi va ko'ngilochar vosita bo'lib xizmat qilishi kerak, — deb yozgandi u, «xuddi pianino yoki fonograf kabi radioni ham foydali uy jihozidek qilib qo'yish mumkin... radio-priyomnik oddiy radiomusiqiy ko'rinishda shakl olib, turli xil to'lqinlarga sozlanishi mumkin». Lekin Amerikaning Yevropadagi urushga aralashuvi tufayli bu g'oyani amalga oshirishni kechiktirishga to'g'ri kelgan.

Keyinchalik D.Sarnov g'oyasini amalga oshirishda unga radiotexnikada yetakchi kashfiyotchilardan biri hisoblangan Edvin Armstrong yordam bergan.

Ularning tanishuvi 1914-yilda boshlangan. Armstrong American Marconi kompaniyasining yosh xizmatchisini o'zining laboratoriyasiga taklif etgan. U avval naushniklarni taqib olishni tavsiya qilib, apparatini yoqqan. Hayratlangan Devid Gonolulu — Nyu-Yorkdan ming kilometr narida bo'lgan notanish radiotelegrafchi signalidan «morzyanka»ni tiniq tinglagan. D.Sarnov shu zahotiyoq Armstrong tomonidan ixtiro qilingan «mavjud bo'lganlar orasida eng ajoyib qabul qilish sistemasi» — regenerativlik priyomnik haqida hukumatga ma'lum qiladi.

«Musiqiy quti» texnik tomondan har taraflama taraqqiy etgan bo'lib, faqat tinglovchi — foydalanuvchini bunga qiziqtirish, uning e'tiborini jalb qilish lozim edi. Buning uchun esa har bir amerikalikning xayolida: «ha, uyda bunday texnikaga ega bo'lish juda yaxshi» — degan fikrni uyg'otish lozim edi. D.Sarnov amerikaliklarning fe'l-atvorini a'lo darajada bilgani uchun bu muammoning «yechim»ini topdi. U ikki bokschi — amerikalik Djek Dampsi va fransiyalik Jorjem Karpente orasida bo'lib o'tadigan matchning keng miqyosda radiotranslyatsiyasini tashkil qildi. Bu o'yinda amerikalik g'olib chiqish barobarida D.Sarnov ham g'olib bo'ldi: keyingi 3 yillikda RCA korporatsiyasi milliarddan ortiq radiopriyomniklarni sotdi.

Armstrong esa yanada yangi ajoyib ixtironi qo'lga kiritdi: to'liqlarning modul tizimi (FM). U turli qarshiliklardan ovozni tozlashga qodir bo'lib modul amplituda sistemasiga xos bo'lgan, AM dan FM ga o'tganimizda, hozir ham biz radiopriyomniklarimizdan chiqayotgan ovoz sifatining farqini aniq his qila olamiz. Armstrong FM sistemasida radiouzatishning kelajagini ko'ra bilgan va radiostansiya qurishdek katta bir ishni yolg'iz o'zi uddalay olmasligini tushunib yetgan holda do'sti Devidga murojaat qilgan. Biroq D.Sarnov bu masalada unga yordam bermadi, chunki uning butun e'tiborini yangi qiziqish — televideniye qamrab olgan edi.

Hozirgacha Amerika kimni «televideniye otasi» deb hisoblashda bahslashmoqda va ko'pchilik fikriga ko'ra, bu nomga D. Sarnov loyiq deb topilmoqda. V.Zvorikinning qabul qiluvchi naychasi — kineskop qoniqarli darajada ishlasa-da, lekin o'tkazuvchi naycha bilan bir qancha muammolar yuzaga kelar edi. Uning qiyin tomoni shunda ediki, nurli qatorlarda tasvirni uzatayotgan vaqtda chiroq yog'duni sezuvchi qatlamga juda qisqa vaqtda ta'sir etardi, bu soniyaning milliarddan bir lahzalariga to'g'ri kelardi. Undagi qo'zg'atuvchi quvvat juda kichkina miqdorda bo'lib, uning ko'rsatuv uchun zarur bo'lgan kuchini yuqoriga ko'tarish juda qiyin ish edi. V.Zvorikin quvvatni yig'ib, to'ldiradigan naycha ixtiro etishni o'ziga maqsad qilib qo'ydi va 1931-yilda shunday naycha paydo bo'ldi. Bu masalada V.Zvorikinga Grigoriy Ogloblinskiy yordam berdi. Ular birgalikda mozaiklik yog'duni sezuvchi nishonlarda elektr quvvat to'ldiruvchi elektron nur uzatuvchi uskuna ixtiro qildilar va uni (grek so'zidan «ikon» — «timsol» va «skop» — «ko'rmoq») «ikonoskop» deb nomladi. Ikonoskop va kineskop televideniye'dagi elektron tizinning asosiy bog'lamlari bo'lib qoldi.

Bu vaqtda San-Fransiskoda amerikalik kashfiyotchi Faylo Teylor Farnsuort elektron televideniye ustida ishlayotgan edi. U 1906-yili Yutada, ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Bolaligidanoq kashfiyotchi bo'lishga ahd qilgandi. U ovoz kabi, tasvirni ham radio orqali uzatishni orzu qilgan edi. Kaliforniya shtatiga o'tib, televizion sistemani yaratish uchun mablag'lantiruvchi bir necha bankirlarni homiylikka roziligini oldi. 1927-yilda yosh kashfiyotchi uzatuvchi elektron nurli trubka — «tasvir analizatori»ni (image dissector) ishlab chiqdi va uni mavjud bo'lgan qabul qiluvchi uskunaga ulab, televideniye mo'jizasini namoyish etdi. Lekin bularning bari och fondagi quvvatsiz tasvir uchburchagi edi. Bankirlar bundan hayratlanmagan bo'lsalar-da, bu ishga katta mablag' ajratdilar. Ular bu sistemani qachon sotib, qachon undan foyda ko'rish mumkinligini bilishni xohlar edilar. Ulardan biri — «Biz qachondir ekran orqali hech bo'lmasa dollarni ko'ra olamizmi?» deb so'radi. Bir necha oylardan so'ng, Farnsuort dollarning aniq tasvirini ularga ko'rsatdi, keyinroq esa bosh rollarni Meri Pikford va Duglas Ferbenks ijro etgan Shekspirning «Qaysar qizning quyilishi» pyesasining kinematografik talqinini namoyish etdi.

1930-yilda Farnsuortning oldiga V.Zvorikin tashrif buyurdi. V.Zvorikin Farnsuortning ajoyib ixtirosini ma'qulladi va unga tasan-nolar aytdi. Biroq Farnsuortning ixtirosida tasvir o'ta yorqinligiga qaramay, analizator ikonoskopga qaraganda kamroq sezishi, u zaryadni yetarli darajada to'play olmasligiga amin bo'ldi. Ikki uzatuvchi naychalar uzoq vaqt mobaynida televizion sistemalarda: ikonoskop — kinofilmlar ko'rsatuvlarida, analizator — sanoatda qo'llanildi. Farnsuort o'zining radiotelevizion kompaniyasini tashkil qilib, o'z ishlarini davom ettirdi. Biroq RCA dek yirik kompaniyaga teng kelishga uning kuchi yetmadi. U bir necha yil umrini tibbiyot elektron uskunalarini ishlab chiqishga bag'ishladi.

1928-yilda W3XX «radiovizion» uzatkich namoyish etildi va angliyalik Djenkins tomonidan tashkil etilgan Jenkins Laboratories firmasi, 2 iyuldan boshlab AQSH da birinchi doimiy «radiofilmlar» ko'rsatuvlari boshlandi. Shu yilning o'zida Germaniyada P.Nipkov o'tkazgichlari orqali birinchi tasvir ko'rsatuvini namoyish etdi. Ikki yildan so'ng esa ixtirochi Berlindagi ko'rgazmada ham ishtirok etdi. Biroq Buyuk Britaniya aholisi uzoq vaqt davomida Beyrdga o'z sa-doqatlarini saqladilar. 1928-yilda u birinchi transatlantik televizion ko'rsatuvini o'tkazdi, BBC uzatish korporatsiyasi kelasi yilning sen-



O'zbekistonda televideniyeining birinchi ixtirochilari B.P. Grabovskiy va I.F. Belyanskiy.



tabridan boshlab esa Beyrdning uzatkichlarini qo'llab, doimiy teleko'rsatuvlar ko'rsatishni boshladi.

1911-yilning may oyida S.M. Rozing o'z qurilmasi orqali harakatdagi oddiy geometrik shakllarni namoyish qilib ko'rsatdi. Shu bilan bir vaqtda Angliyada Suinton tomonidan televizion qurilma loyihasi e'lon qilindi. Unda uzatish va qabul qilish uchun elektron nurli nayni qo'llash taklif qilingan. 1912-yili elektron televideniye sxemasi e'lon qilindi. Shundan beri S.M. Rozing elektron televideniye asoschisi, K. Suinton esa amalga oshirilmagan to'liq elektron televizion tizim loyihasining muallifi hisoblanadi. Bu murakkab ilmiy-texnikaviy muammoni hal qilish, ya'ni elektron televideniye uchun to'la majmuini yaratish toshkentlik ixtirochi O'rta Osiyo davlat universiteti fizika laboratoriyasi xodimi B.P. Grabovskiyga nasib etdi.

1925—26-yillarda B. Grabovskiy S.M. Rozing xulosalari asosida o'z tajribasini boshlaydi. U tasvir faqat elektron oqim yordamida uzatilib, elektron oqim yordamida qabul qilinishi kerak degan qat'iy xulosaga kelgan edi. 1925-yilda u yaratgan elektron trubka «telefot» deya nomlanib patent oladi. Bunday murakkab ishni davom ettirish uchun katta miqdorda mablag' kerak edi.

1928-yilda Toshkentda yaratilgan tajriba uskunalarini rasmiy sinovlar uchun Moskvaga yuboriladi. Qutilarni jo'natishda qat'iy ehtiyot choralarini ko'rilgan bo'lsa-da Moskvaga shisha siniqlarigina yetib borgan xolos.


1928-yil 26-iyulda O'rta Osiyo okrug aloqa stansiyasida «Toshkent 2 telefoti»ning sinov tajribalari bo'lib o'tadi. Buning uchun 18

metr balandlikka antenna o'rnatiladi. Nur tarqatuvchi elektron trubka yordamida teletasvir uzatilib qabul qilinadi. Ekranida I. Belyanskiyning qiyofasi ko'rinadi. U furajkasini olib qayta kiyar edi. So'ngra komissiya a'zolari tasvir uzatuvchi kamera oldiga borib o'zlarini birma-bir ko'rsatadilar. Lekin bu tasvirlarda kishilarning kim ekanligi unchalik ham ravshan ko'rinmaydi.


4 avgust kuni esa apparat ko'chaga o'rnatilib, telemajmuada o'tib ketayotgan tramvay ko'rinadi. Bu jahondagi ko'chadan to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatilayotgan birinchi telereportaj edi. Uzatish tarafdagi elektron nurli nay vakuumli shisha ko'zachadan iborat bo'lib uning ichida fotoeffekt xususiyatiga ega ishqor, metallardan yasalgan plynka, elektron nurni shakllantiruvchi va og'diruvchi qurilma joylashtirilgan. Bular televizion texnologiyani **texnik tajribalar** bosqichi hisoblanadi. Moskvada 1931-yil 29-apreldan tajriba ko'riklari boshlangan va 1-oktabrdan doimiy efirga o'tilgan. Dastlabki ko'riklar harakatsiz tasvirlardan iborat bo'lib u mexanik televideniye deyilar edi. Efir uzoqqa eshittiruvchi radiostansiya yordamida o'rta to'liqlarda uzatilar edi. Ko'rsatuv obyekti mamlakatning taniqli kishilari, artistlar portretlarini ko'rsatishdan iborat edi. Uning fototelegrafdan deyarli farqi yo'q edi. Bu jarayon 1932-yil 15-avgustgacha davom etadi va u harakatlanuvchi tasvirga o'tadi. Uni telekino, keyinchalik televideniye deb atay boshlaydilar. Bu ko'rsatuvlar harakatlanuvchi bo'lsa-da, lekin ovozsiz edi. Faqat 1934-yil 15-noyabrdan boshlabgina ovoqli efir uzatishga muvaffaq bo'lindi. Mexanik televideniye tasvirlari bor-yo'g'i gugurt qutisidan sal kattaroq bo'lar edi. Uning konstruksiyasi nihoyatda primitiv bo'lib, o'rta to'liqli radioni eshituvchi deyarli barcha joyda uning tasvirini ham ko'rish mumkin edi. Qiziquvchilarning ko'pligidan bu tarzda qutichalarga talab kuchaydi. 1939-yilga kelib 3000 ga yaqin shu tariqa televizor ishlatilayotgani ro'yxatga olinadi. Bu paytda Angliya va Amerikada ham televideniye taraqqiyoti yo'lida izlanishlar olib borilayotgan, bu ishlarda Popov va Stoletov kabi rus olimlarining tajribalari birinchi manba bo'lmoqda edi.



Dastlabki ko'rik o'tkazilgan bino.




Dastlabki televizor «KVN».



Dastlabki radiokamray.

1906-yilda Shablovka ko'chasida joylashgan akademik Shuxovning loyihasi asosida qurilgan radiominorasida elektron sistemaga asoslangan telemarkaz qurila boshlagan edi. 1938-yil martidan boshlab telemarkazda tajriba ko'rsatuvlari berila boshlandi. 1939-yil mart oyidan boshlab doimiy sur'atda ko'rsatuvlar namoyishi boshlandi. 1930-yillarning oxiriga kelib televideniye sohasida tajribalar tugab **ijodiy izlanishlar** boshlanadi. Bunda texnik tajribalar tugallanib televideniye g'oyaviy-badiiy izlanishlar boshlanadi. Televideniye



O'zbekistonda birinchi televizion minora.

o'ziga xos ifoda vositalari, uning yo'nalishlari, maqsad va vazifalari belgilanadi. Tabiiyki texnik imkoniyatlarni kengaytirish ham davom etadi. Bunda tasvirni tiniqlashtirish, uning hajmini kengaytirish kabi ishlar amalga oshiriladi. Dastlabki teleko'rsatuvlar ijtimoiy-siyosiy mazmundagi qisqa chiqishlar va kichik konsert nomerlaridan iborat bo'lar edi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanmasdan avval Rossiyada keng tarqaluvchi elektron televideniye tizimini qurishga zamin yaratilgan edi. Sankt-Peterburgda yaratilgan 240 satrli va Moskvada 343 satrli qurilma bilan jihozlangan ikki televizion markaz 1937-yilda qurib bitkazildi. 1945-yil 7-mayda Yevropada birinchi bo'lib

Moskva telemarkazi ishlay boshladi. Ikkinchi jahon urushi tufayli ko'pgina mamlakatlarda bu sohadagi izlanishlar orqaga surildi. Amerika, Angliya, Fransiya, Germaniya va Rossiyada haqiqiy televideniye, televizion texnikaning rivojlanishi avj oldi. Keng tarqaluvchi **rangli televideniye**ning kashf qilinishi televideniye yuksalishi uchun muhim bosqich bo'ldi. 1967-yil 1-oktabrdan boshlab sovet-fransuz SEKAM rangli televideniye tizimi doimiy uzatishni boshladi. Bu tizim 625 satrli standartda ishlar edi.

Rus injener-elektrigi A.A.Polumardvinov birinchi rangli televizion tizim loyihasining muallifi hisoblanadi. U 1899-yili dekabrda uch komponentli rangni ko'zning qabul qilish nazariyasiga asoslangan rangli televideniye tizimi loyihasini taklif qildi. Ranglarni bir vaqtda uzatuvchi tizim loyihasini esa O.A.Adamyani 1907-yilda taklif qildi. Birinchi taklif qilingan loyihadan to zamonaviy tizimgacha bo'lgan davrda rangli televideniye texnikasining yuksalishi ravon kechmadi. Avval tejamkor va amalga oshirish oson bo'lgan uch asosiy ranglarni ketma-ket uzatuvchi televizion tizim keng rivojlandi. Keng tarqaluvchi rangli televizion tasvir birinchi marta 1953-yili AQShda amalga oshirildi. Bunda rangli tizim mavjud oq-qora tizim bilan moslashtirilgan bo'lib unda ikki ayirma rang signallarni bir vaqtda yorug'lik signali tarkibida uzatish imkoniyati yoritilgan. Bu tizim NTSC rangli televizion standarti nomini oldi. Keyinchalik bu standart Yaponiya, Kanada va Amerika qit'asining boshqa davlatlariga tarqaldi. Ikkinchi jahon



Tasvir uzatkich teleradiolampalari.



Ossillograf kineskopi.



urushi tugagandan so'ng rangli televideniye tasvirlarini amalga oshirishda jadal izlanishlar olib borildi. 1954–56-yillari Moskvada rangli televideniye ko'rsatuvlari sinovdan o'tkazildi. P.V.Shmakov boshchiligidagi guruh ranglarni bir vaqtda uzatadigan moslashtirilgan rangli televideniye ustida ilmiy tadqiqot olib bordi va uni amalga oshirdi. Shu yillari SECAM televizion standartidan tashqari yana bir rangli televizion tizim standarti yuzaga keldi va u PAL nomi bilan atala boshlandi. Bu tizimni G'arbiy Yevropa, Avstraliya, Osiyo va Afrika davlatlari qabul qildi. Natijada dunyo miqyosida uchta rangli televideniye standartlari – NTSC, SECAM va PAL yuzaga keldi. Bir standartdan ikkinchi standartga o'tish uchun bugun transkoder ishlatiladi. Fan va texnikaning taraqqiyoti bir fanning ikkinchi fanga singishi va boyitishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Hozir koinotni o'zlashtirishda televideniyaning roli beqiyos. Natijada yangi yo'nalish – kosmik televideniye yuzaga keldi. Kosmonavtiikaning yuksalishi va Yerning sun'iy yo'ldoshlari televizion dasturlarni retranslyatsiya qilishga va keng tarqalishiga olib keldi. Yer yuzini televideniye bilan qoplash amalga oshirildi va natijada yana bir yo'nalish – yo'ldoshli televideniye yuzaga keldi. Televizion texnika koinotni o'rganishda katta yutuqlarga erishdi. 1959-yilning oktabrida tarixda birinchi bor Oynning teskari tarafi tasviri yerga uzatildi. Televideniye orqali Oyga tushirilgan «Lunaxod»ni boshqarish imkoniyati bo'ldi. Bu televizion tizimni rus olimi Selivanov boshchiligidagi, o'zbek olimi Shokirjon Tojiboyev hamkorligida amalga oshirildi. Bundan tashqari televideniye kosmonavtlarning uchish jarayonida, ochiq koinotda ishlaganlarida, vaznsizlik holatlarida, hayot faoliyatlarida kuzatish imkonini berdi. Televideniye koinotdagi ilmiy tadqiqotlarga ko'p millionli kuzatuvchi auditoriyani yaqinlashtirdi. Bunday kuzatishlarning ommaviyligi juda katta. Koinot texnikasining yuksalishi, sun'iy yo'ldoshning paydo bo'lishi va ulardan olib uzatiluvchi radio aloqa tizimining tashkil etilishi televideniyaning «oinay jahon»ga aylantirdi. Inson faoliyatida ishlab chiqarish jarayonida, ilmiy tadqiqotlarda avtomatikaning keng qo'llanilishi tabiiyki televideniyaning rolini oshirib yubordi. Televideniye eng ommaviy tasviriy axborot uzatuvchi vositadir. Har kuni televideniye dasturlarini dunyoda millionlab, milliardlab odamlar tomosha qilishadi. Axborotning ta'sirchanligi bo'yicha boshqa ommaviy axborot vositalari televideniye teng kela olmaydi. Televideniye bilim, yangilik, badiiy musiqa, sport, ko'ngilochar va boshqa ko'rsatuvlarni tomosha qilish imkonini beradi. U tezkor

voqea va hodisalardan tomoshabinni bevosita shohid qiladi. Matbuot, radio va boshqa axborot vositalari voqealarni televideniyeдек to'liq va tez namoyish eta olmaydi. Televideniye yuksalishning yangi sifat pog'onasi, raqamli texnika televideniyaning taraqqiyotiga asos bo'ldi. Kompyuter, texnika va radioelektronikaning tez rivojlanishi, sanoatda yangi texnologik jarayonlarning ijro qilinishi zamonaviy televideniye ravnaqini tubdan o'zgartirdi. Kabelli va yo'ldosh televideniye keng rivojlana boshladi. Bugungi kunda xalqaro maydonda raqamli televizion standartning uch turi mavjud (ATSK, DVB, SDB). Interaktiv televideniye sekin-asta rivoj topmoqda. Internet va televideniye tasvir tarmoqlari bir-birini to'ldirib, integral tarmoq tashkil qilish ehtimollari ham bor. Televideniye texnologiyasining taraqqiyoti boshqa san'at turlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Xususan, XX asrda kino san'ati ham katta yo'lni bosib o'tdi, XXI asrda kino san'atiga raqamli texnologiya kirib keldi. Kino ijodkorlar kinotasmadan ko'ra raqamli videotasmalarni afzal ko'ra boshladi. Tasvir yuqori sifatli, kamxarj, montaj uslublari osonligi bilan ajralib turadi. Raqamli texnologiya kinoindustriyaning asosini tashkil qilib qoldi. Amerikada, Yevropada, Rossiyada kinofilmlar shu texnologiya asosida ishlab chiqarila boshladi. Raqamli texnologiya jahon kino ishlab chiqarishida badiiy film, teleseriallar, hujjatli filmlar, kliplar yaratilishida asosiy texnika vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. HD (High Detention) kino mahsulotning arzonligi bilan ajralib turadi. HD kassetasi tannarxi 35 mm li kodak kinotasmadan 30 barobar kam bo'lib, chiroq nurlarini kam sarflaydi. Tasvirga olingan kadrlarni shu zahoti ko'rish imkoniyati mavjud. Unda cheksiz dubl olish mumkin, sifati mijozni 100 foiz qanoatlantiradi. Raqamli televideniye standartlariga to'la javob beradi. Har xil effektlar, tryuklar ko'rsatish imkoniyatiga ega. 24, 25, 30 kadrlarni sekundiga bera oladi. Rangli kinotasmada qanday tasvirga olinganini bilish uchun avvallari negativ tasmani pozitivga aylantirib so'ng sifatini ko'rish mumkin edi. Bu esa ko'p vaqtni olardi, lekin bu jarayon raqamli televideniye-da oson kechadi. Raqamli televideniye-da qoralama, toza montajlarda kadrlarni rapid qilish, bir-biriga qorishtirish, har xil shakllarga solish avtomatik tezkor ravishda amalga oshiriladigan bo'ldi. Raqamli televideniye-da titrlarni yozish, kompyuter grafikasidan foydalanish ko'lam juda kengaydi. Texnik imkoniyatlari kinoga qaraganda ko'proq.

Hajmli rangli televideniyaning yaratilishi vertual muhitni vujudga keltirishda katta rol o'ynashi kerak. Televizion tasvirning yuksa-

lishi bilan bir qatorda amaliy televideniye tez rivojlanib bormoqda. Fan va ishlab chiqarishda yangi-yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Video axborotlarni yozib olish, ularni siqish, tasvirda kerakli ma'lumotni tanlab ajratish, axborotni uzoq saqlash va boshqa ko'p masalalar o'z yechimini topmoqda.

## 2. Televideniyeining reproduktiv funksiyalari va uning xususiyatlari

XX asr mo'jizasi, televideniye va radioning hayotimizda tutgan o'rni beqiyos. Ommaviy axborot vositalari ichida gazeta, jurnal va boshqa axborot turlariga nisbatan juda katta mavqega ega. Unga «To'rtinchi hokimiyat» deb nisbat berilishi ham bejiz emas. Televideniye va radio juda qisqa fursat ichida boshqa san'at turlariga qaraganda texnik imkoniyatlari jihatidan, ijodiy izlanishlar ko'lami jihatidan juda keng, ommaviy, tezkor va jonli san'at vositasi ekanligini namoyish etdi. Televideniye va radio hayot muammolari yechimini topishda, xalq dardini oshkora etishda, inson qalbi va tafakkurining kamol topishida yangidan-yangi uslub ifoda vositalarini o'zida kashf etdi. Ming yillardan beri o'z funksiyalarini bajarib kelayotgan teatr san'atini, uning imkoniyat darajasini yanada kengaytirgan kino san'atini televideniye va radio o'zida mujassamlashtirgan holda davom ettirdi. Insoniyat tafakkurining rivojiga ijtimoiy hayotimizning taraqqiyoti darajasiga, turmush tarzimizga inqilob bo'lib kirdi. Bu siyosiy, mafkuraviy, texnik, ijtimoiy, hamda informatsion-elektron inqilob edi. Tafakkurda inqilob bo'ldi. Televideniye va radio san'ati ishlab chiqarishning, harbiy va aloqa sohalariga, qishloq xo'jaligi va tibbiyot, ilmiy tekshirish va maorif, ma'naviy va maishiy hayot tarzimizga informatsion texnologiyani olib kirdi. Elektron texnologiya va kompyuter kundalik hayotimizning uzviy bir dasturiga aylandi. Inson unga chambarchas bog'landi. O'z navbatida elektron texnologiya o'zining yangi-yangi qirralarini namoyish qilmoqda. Televideniye va radio o'zining reproduktiv funksiyalarini ochmoqda. Biz uni ilg'ashimiz, o'rganishimiz, faoliyatimizda dasturulamal qilishimiz zarur. Bu sohani o'rganishda qator mavzular, elektron inqilobning o'ziga xos tarixi, reproduktiv funksiyalarning boshqa san'at turlariga nisbatan tafovuti mavjud.

Televideniye haqida bir taniqli yozuvchi shunday degan edi:

«Shom tushishi bilan, be'lgilangan vaqtda, shahar, qishloq va umuman, odamlar yashaydigan joylarda qandaydir sirli kuch paydo


bo'ladi. U beton devor, temir eshik, mahkam berkitilgan derazalardan xavf-xatarsiz, taqillatmasdan barcha xonadonlarga kirib boradi.

Bir zum ichida ko'chalar, teatr va choyxonalar, kutubxonalar bo'shab qoladi. Kuni bo'yi mudrab yurgan qariyalar birdan jonlanib qoladi, erkaklar gazeta o'qishdan, ayollar taom tayyorlashdan to'xtashadi, tinib-tinchimagan bolalar esa o'z-o'zlaridan tinchib gapga kiradigan bo'lib qolishadi. Xullas million-million odamlar bir-birini ko'rmasdan, bilmasdan turib bir vaqt ichida baravariga kulishadi, dardlashishadi».

Darhaqiqat qisqagina 50–60 yil ichida televideniye deyarli butun dunyoni qamrab ishg'ol qila oldi. Telepriyomniklarning texnologik darajasi esa kundan-kunga yuksalib o'zining sehirli kuchi bilan olamning turli mintaqalariga kirib bormoqda, tarqalmoqda.

Birinchi telepriyomnik bilan hozirgi elektron televizorning orasidagi farq juda katta. Avvalgi telepriyomniklar faqat lupa shishalar yoki glitserinli idish orqali tasvirga ega bo'lib, ularning ovozi ham bo'lmagan. Bugungi kundagi televizorning texnik jihatdan qanchalik ilgari ketganiga bir nazar tashlaylik. Rang-tasvirning boyishi, silliq ekranga o'tish, tasvirning yuksak darajadagi qabul va uzatuvchi imkoniyatlari (Trinitron), masofali boshqaruv, televizor ekranining 1 metrgacha kengayishi, undan tashqari lampali sistemadan voz kechib, u o'tkazuvchi va yarim o'tkazuvchi platalar bilan jihozlandi. Hatto yangi kashfiyotlardan biri biotelevizorlar ham yaratildi.

Tasvirni kassetaga yozib olish, ya'ni qachondir sodir bo'lgan voqeani, namoyish etilgan film, umuman, syomkani videokameraga tushirib, kasseta orqali uni xohlagan vaqtda televizorga ulab ko'rish mumkin. Bu ham texnik jihatdan audiovizual kommunikatsiya tar-mog'ini yuksaltirish natijasidir.



O'zbekistonda dastlabki markaziy apparatxona.

Xo'sh, bu sirli kuch o'ziga qanday tarmoqlarni qamrab olgan ekan?

Bu san'at sohasi asosan, kino, konsert, teatr, estrada, axborot vositalari, yangiliklar, siyosiy-iqtisodiy voqealarni yoritishdan iboratdir. Undan tashqari televideniye orqali biz olis masofadagi mamlakatlar, yangi kashfiyotlar, tabiat manzaralari, hayvonot olami bilan ham tanishamiz. Masalan, uyda o'tirib televizor orqali biz dengiz sathi olamini tomosha qilamiz yoki o'rmon manzaralaridan dilimiz bahramand bo'ladi. Hatto koinotdan turib yerni ko'zdan kechirishimiz ham mumkin. Ushbu hayotni biz faqat ekran orqali tomosha qilishimiz imkoni bor, ya'ni sodir bo'layotgan voqealarning ishtirokchisi bo'la olmaymiz, faqat chetdan turib ularni kuzatamiz.

Hozirgi zamon televideniyesi o'zining yuqori texnologik xususiyatlari bilan bizni tomoshabinlarga aylantirib, ongimizni qamrab olgan. Bu esa televideniye va jamiyatning muammosidir. Bularning orasida qanday bog'liqlik yoki ziddiyatlar mavjud?

Sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra teleekran oldida bir kunda o'rta hisobda 5-6 soat vaqtimizni o'tkazar ekanmiz. Televizor insonni uyga qamab, o'zining kichik dunyosiga mujassamlantirib qo'ydi.

Har bir yangilikni albatta ijobiy va salbiy tomonlari bo'ladi. Televideniyaning ijobiy va salbiy tomonlarini farqlab bo'lmaydi. Biz bu olamni faqat qabul qilishimiz mumkin.

Faraz qilaylik ikki do'st bir futbol o'yinini tomosha qilayapti. Faqat biri o'yinni televizor orqali, ikkinchisi esa stadionda. O'yin tugadi, u juda qiziqarli edi. Ikki do'st bir necha vaqtdan so'ng uchrashib bir-biri bilan taassurotlar haqida suhbatlashayapti.



Studiya apparat bloki.

Xo'sh, suhbat qay tarzda bo'ladi, buni bilish qiyin bo'lmasa kerak.

Birinchisi: «Mazza qildim, baqir-chaqir, hushtaklar, rosa yangillashdim. Uning ustiga biznikilar ham bo'sh kelishmadi, ko'rdingmi?».

Ikkinchisi: «Albatta, oxirgi golini chiroyliligini aytmasanmi, o'ziyam qayta-qayta bir necha joydan olib ko'rsatganini-chi. Umuman yaxshi o'yin bo'ldi».

Mana ko'rib turibsizki izohga hojat yo'q. Stadionda minglab tomoshabinlar yig'ilishgan, ular bo'layotgan voqeaning muayyan guvohlaridir. Sodir bo'layotgan voqealar ko'z oldilaridan o'tayapti.

Xuddi shu tomoshabinlarga yana millionlab teletomoshabinlar qo'shilyapti. Qo'shilgan tomoshabinlar albatta nimanidir his qilmayaptilar. Bu bayramona, ko'tarinki holat, atrofdagilar bilan birlik, olqishlar, shovqin-suron.

Nihoyat rang tasvirning butun borliqni egallagan hajm cheksizligini, teletomoshabinning qulayliklarini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Tomosha tugaganida shaharning u chetidan bu chetiga sudralib yurmasligi, umuman namoyish yoqmasa, pult tugmachasi orqali u yerdan bir zumda chiqib ketishi mumkin.

Endi televideniyaning yana bir xususiyatini tahlil qilib chiqsak. Yana misol keltiraylik.

Teatr sahnasida spektakl ijro etilyapti. Aktyorlar pyesa qahramonlari hayotini namoyish etishyapti. Tomoshabin butun sahnani yaqqol ko'rib turadi. Televideniye tilida bunday holat umumiy ko'rinish, ya'ni umumiy kadr deb ataladi.

Teatrda rejissor mizansahna zalga qay tarzda ko'rinishiga qarab turadi, aktyorlar o'z kechirayotgan holatlarini yaqqolroq bildirishlari uchun harakatlarini erkin tarzda o'tkazadilar. Umuman pyesa to'xtovsiz «bir nafasda» o'tadi. Voqealar to'xtovsiz, ketma-ket sodir bo'ladi. Bo'lgan harakatlar boshqa xuddi shu tarzda qaytarilmaydi.

Xuddi shu spektaklning televizion shakli qanday bo'ladi?



Dastlabki videomagnit lentasiga yozib olish jarayoni.

Har bir sahna bir necha nuqtadan turib tasvirga tushiriladi. Aktyorlar har bir sahnadagi voqeani bir necha marotaba ijro etadilar. Ularning ayni shu paytdagi tomoshabinlari studiya ijodkorlari va jonsiz kameralardir. Demak tomoshabinlarga spektakl aynan telerejissorning nuqtai nazaridan turib ko'rsatiladi. Mabodo aktyorning yordamchi harakatlari ekranga, kadrga tushmasa, ketgan mehnatining o'zi zoyedir. Demak rejissor voqealarni tomoshabin zaliga qarab emas balki kadrqa qaratib ko'radi. Namoyish etilayotgan kadr bizga sodir bo'layotgan voqealarni qay tarzda ko'rinishini yetkazib turadi.

Mana asta-sekin biz televideniye va tasavvur muammosiga yetib keldik.

Ekranda almashib turayotgan kadr ko'rinishlari bizning o'rnimizga tasavvur qilib va aynan shu ko'rinishni bizga nimoyish etadi.

Mana bir kichik misol: Qaysi birimiz Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani asosida suratga olingan filmni ko'rmaganmiz?

Endi shu romanning o'zini qo'lga olib o'qishni boshlaylik. Satrlar orasida ko'z oldimizga aynan shu film qahramonlari keladi. Romanda ifodalangan ko'chalar, qahramonlar kiygan kiyimlar, umuman, filmdagi barcha sahnalar.

Insoniyat hech qachon izlanishdan charchamaydi, har daqiqa dunyoning u yoki bu chekkasida qandaydir yangi kashfiyot tug'iladi va yashin tezligida ommaga tarqaladi.

Kompyuterlar va ular bilan bog'liq bo'lgan vositalar televideniye va kinoning bugungi kunidir. Individual kompyuterlar bugungi kunda hajmi bilan oddiy kitobdan farq qilmaydi. Biz kompyuterlar yordamida tasavvurimizni kerakli maqsadga yo'naltirishimiz mumkin.

Kompyuterlar yordamida bugungi kunda televideniye va kino sohasida yangi ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelmoqda.

Grafik kompyuterlar yordamida biz o'z tasavvurlarimizni jonlantirishimiz mumkin. Bu esa ichki dunyomizni yanada boyitishga katta yordam beradi.

Televideniye hayotimizda avvalambor ommaviy axborot vositasi sifatida katta o'rin egallaydi. Diyorimizda kun emas, balki har daqiqada turli xil voqealar sodir bo'ladi. Bu voqealar qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bizga axborot sifatida yetib keladi. Ushbu axborotlar bilan biz turli ommaviy axborot vositalari va, albatta, televideniye orqali tanishamiz. Nima uchun?




Zamonaviy boshqaruv pulti.

Avvalambor televideniye bizda har qanday axborotni vizual holtda yetkazib beradi. Bu esa televideniye boshqa axborot vositalari ichida eng ommaviyligi va ulardan ustuvorligidan dalolat beradi.

Bu borada biz sotsiologik savol-javoblarga murojaat qilamiz. «Gellon» ingliz sotsiologik markazining tadqiqotlariga ko'ra, katta yoshli aholining 45–55 foizi kun mobaynida 1–2 soat vaqtini gazeta va jurnallarni ko'zdan kechirib chiqishga ajratadi, 30–35 foiz aholi radio tinglaydi va 70–75 foiz aholi televizor oldida 2–3 soat vaqtlarini o'tkazadilar. Bularga yana voyaga yetmagan telemuxlislarni qo'shadigan bo'lsak, natija boshqacha bo'ladi.

Teatr va kino kabi televideniye ham sintetik san'at hisoblanadi. Boshqa san'at turlaridan afzalligi uning **har yerda hozirligidir**. Istagan joyda, istagan vaqtda namoyish qilinadi, tomoshabiniga yetkaza olinadi. Kino badiiy obrazlarni ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lsa, televideniye axborotni **og'zaki** yetkazish, ommaviy tadbirlarni **ko'rsatish**, xabarlarini **saralay olish**, **izohlash** imkoniyatiga ega. Televideniye atrof-muhitni o'rganishda, tushunishda **qudratli qurol** hisoblanadi. Voqea va hodisalarni sodir bo'lish vaqtida **to'g'ridan-to'g'ri** namoyish qiladi. Tomoshabin dasturlarni **tanlay oladi**, **shaxsiy manfaatidan** kelib chiqib tanlaydi. Teatr, kinoga bitta tomoshabin ko'rish uchun boriladi. Televideniye ko'rsatuvlarining **yo'nalishi**, **manzili aniq** mo'ljallangan tomoshabin bor. Jamoatchilik fikri o'rganiladi, hisobga olinadi. Tomoshabinning ma'lumot darajasiga, yoshiga, vaqtiga qarab ko'rsatuvlar dasturlanadi. Ko'rsatuvlarni tomosha qilish, idrok qilish **ikki tarafdin**: **bir kishiga** va **millionlab** tomoshabiniga mo'ljallanadi.

Boshqa san'at turlariga qaraganda televideniye birvarakayiga **bir necha joydan** namoyish qila oladi. Oynayi jahonda ijrochining,



Rejissorlik pulti oldida.

suxandonning **shaxsi, istarasi** muhim rol o'ynaydi. **Kutilmagan holatlar, hujjatlilik** tomoshabin ko'z oldida sodir bo'ladi. Rejissor **nimani maqbul ko'rsa**, tomoshabin shuni ko'radi. Kinodagi kabi teleekran ham **yassi, kichik formatli**, xonaga mo'ljallangan. Shuning uchun ham televideniye **yirik plan san'ati** hisob-

lanadi. Teatr, kinoga nisbatan televizorni xonadon **mezboni sifatida** tomosha qila olasiz. Hozirgi kunda raqamli televideniye rivojlangan-da **tasvir sifatiga** katta e'tibor beriladi.

Televideniye kinoga nisbatan olib ko'radigan bo'lsak, uning o'ziga xos reprodktiv xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

– kinoda aktyorning kameraga qarashi taqiqlansa, televideniye-da kameraga qarashi shart, chunki tomoshabin bilan muloqotda bo'ladi;

– kinoda tomoshabin sodir bo'layotgan voqealarning kuzatuvchisi bo'lsa, televideniye-da o'sha jarayonning ishtirokchisi, jim o'tirgan qatnashchisi hisoblanadi;

– kinoda tomoshabin ko'lami keng, auditoriya katta, televideniye uyda, oilada sirdosh;

– televideniye-da soatlab hikoya, suhbat qurishingiz mumkin, kino uzoq suhbatga toqat qilolmaydi;

– kino birdaniga, shu zahoti jamoa fikrini tug'diradi, televideniye-da jamoa fikrini ertasiga eshitasiz;

– voqelikni faqat televideniye-da shu zahoti tomosha qilasiz, kinoda kechikib o'tgan voqelar shohidi bo'lasiz;

– televideniye teatr ham emas, kitob ham emas, millionlarga birvarakayiga ta'sir qilish kuchi teatrdan ham, kitobdan ham ko'p;

– xatti-harakat, yuz ifodasi, yirik plandagi ko'rinishlar xonadon ekranigagina xos;

– asl haqiqat va hujjatlilik faqat televideniye-ga xos. Kundalik voqeliklar bilan shu zahoti tanishasiz;

– ko'p qismlilikning muntazamliligini faqat televideniye-da ko'rish mumkin;

– kinoda voqelik «to-zalanadi», saralanadi. Televideniye-da ishonarli, haqiqiy asl hujjatlilikni ko'rasiz;

– kinoda muhrlab qo'yish lozim bo'lsa, televideniye-da muhrlashdan tashqari jonlilik xos;

– kinozalda tanlagan filmingizni tomosha qilasiz, televideniye-da uyda tanlab, saralab tomosha qilasiz.



Efirga tayyorgarlik («Poytaxt» ko'rsatuvi).

Televideniye kino, teatr san'atlari ifoda vositalaridan foydalanib-gina qolmay, o'z imkoniyatlarini kashf qildi. Adabiy teatr, bir aktyor teatri, tok-shou, turli-tuman muloqotlar va boshqa ko'p janrdagi ko'rsatuvlar televideniye tufayli paydo bo'ldi. Ko'p seriyali filmlar, televizion filmlar, roman va qissalarning televizion adaptatsiyasi, epik asarlar, ko'p kamerali tasvirga olishlar televideniye tufayli ro'yobga chiqdi. Montaj texnikasi kinoga nisbatan yuksak darajada o'zgarib ketdi. Hech qanday ximikatlarsiz, jismoniy aralashuvsiz montaj usullari paydo bo'ldi. Bular o'z navbatida televizion rejissor-dan muallif, aktyor va boshqa ijodiy jamoa bilan ishlashdan tashqari yangi televizion texnologiyani o'rganishni, uning imkoniyatlaridan unumli foydalanishni vazifa qilib qo'ydi. Televideniye jamoasi ijodiy mahsul berishdan tashqari katta tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lish xislatlarini ko'rsatdi.

### 3. Televideniye va uning rejissori

Televideniye o'zining tezkorligi, ta'sirchanligi, ommaviyligi va samimiyati bilan shuhrat qozondi. Ilm-fan, madaniy va ijtimoiy hayotda «dunyo darichasi» ekanligini namoyish etdi. Insonni shaxs sifatida kamol toptirish, ijtimoiy muammo va qarama-qarshiliklar oldida ongini shakllantirish, jamiyat oldida inson mas'ulligini tarbiyalash televideniye-ni asosiy ijtimoiy vazifalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, televideniye kishini har tomonlama estetik tarbiyalashda kuchli qurol vositasi ekanligini qayd qilish kerak.

Shunday ekan, bu dargohda ishlaydigan yuksak malakali kadrlarni tayyorlash, zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarini yetkazish alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimiz rahbari, televideniye ravnaqiga, uning texnik imkoniyatlariga, ijodiy xodimlar malakasiga e'tibor qaratib, farmon va qarorlar qabul qilayapti. Ko'p-mingli jurnalistlar qatori, rejissorlar ijodi ham milliy mafkuraga uzviy bog'liqdir. Jamiyatda shakllanayotgan mafkura, rejissorlar ijodida o'z ifodasini topishi kerak.

Rejissorning dunyoqarashi, jahon taraqqiyot qonunlari, tabiat va insonning sir-asrorlarini chuqur tafakkur qilishi ijod mazmunini tashkil qiladi. Rejissor o'zidan avval o'tgan buyuk san'atkorlar, rassomlar, yozuvchilar, bastakorlar ijodini yaxshi o'rgangan, uslubiyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini idrok qilgan bo'lishi kerak. Jahon va milliy madaniyat an'analari davomchisi bo'lib shakllanishi lozim. Televizion rejissorning g'oyaviy-badiiy kamoli ixtisosligining nazariy va amaliy tomonlarini, texnik imkoniyatlarini chuqur bilganligida namoyon bo'ladi. Televizion rejissor adabiyotni, teatr, kino san'atini, musiqa, tasviriy san'at, jurnalistikani tushungan barkamol inson, har tomonlama yetuk shaxs bo'lishi kerak. Televideniye o'z tabiatiga ko'ra sintetik san'at turiga kiradi. U barcha san'at turlarini o'zida birlashtirgan holda, texnikani ham o'zida mujassamlashtirgan san'atdir.

Ayniqsa, keyingi yillarda raqamli televizion texnika taraqqiyoti ilgarilab ketdi. Uning imkoniyatlari kuchayib ijod uchun katta sharoitlar yaratildi. Televideniye — jamoa san'ati. Televizion dasturlar yaratilishida faqat rejissorgina emas, muallif, muharrir, tasvirchi, rassom, bastakor, ovoz rejissori, chiroqchi, video va texnik muhandislar ishtirokida televizion asar yaratiladi. Televizion ko'rsatuvni tayyorlashda maslakning birligi, g'oyaviy badiiy yo'nalish, ijodiy uslubning yaqinligi, tartib-intizom muhim rol o'ynaydi. Bir yoqadan bosh chiqarish, bir maqsad yo'lida harakat qilish katta ahamiyat kasb etadi. Televideniye rejissori ana shu ijodiy jamoaning g'oyaviy-badiiy rahbari hisoblanadi.


Televizion ko'rsatuvlarning g'oyaviy-badiiy yo'nalishi, uning sifati, haqqoniyligi, hayotni to'g'ri va aniq aks ettirishida rejissor shaxsan mas'uldir. Inson, uning kechinmalari, shaxsiyati, ichki dunyosi, maqsad va intilishlari har tomonlama televideniye rejissorining diqqat-e'tiborida bo'lishi kerak. Rejissorning butun fikr-u zikri, ijodiy izlanishlari insonni o'rganishga, ekran oldidagi shaxs

tadqiqotiga qaratilishi kerak.


Rejissor kishi ruhining tadqiqotchisi hisoblanadi. Shuning uchun ham insonning shaxs sifatida shakllanishi taraqqiyot jarayonlarini bo'y-basti bilan ro'y-rost televizion asarlarda ochib berish kerak. Televizion rejissor ilk bor telessenariy bilan duch keladi, shu bois telejurnalistikani, teledramaturgiyani, uning g'oyaviy-badiiy yo'nalishlarini, muammo va sir-asrorlarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Televizion dramaturgiya qisqa muddat ichida boshqa san'at turlariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarini, yangi-yangi qirralarini kashf qildi. Televizion dasturlarini qabul qilishda tomoshabin munosabati, faol ishtiroki bu san'at turini yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Kino va teatrga nisbatan tomoshabin auditoriyasi oldida televideniyaning cheksiz imkoniyatlaridan biri uning sirdoshligi, inson shaxsining ichki dunyosini keng ko'lamda ochib berishidir. Dramaturgiyaning yangi-yangi janrlari — publisistik hujjatli drama, ijtimoiy ocherk va har xil tomosha turlari paydo bo'ldi. Televideniya badiiyat bilan hujjatlilik bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Bu o'z navbatida ishtirokchi aktyorlar oldiga ham, tomoshabinlarga ham yangicha talablarni qo'ydi. Berilgan holatlarda imkon boricha tabiiylik, samimiylilik, ifoda vositalarida lo'ndalik, kutilmagan holatlarda yaratuvchilikdan foydalanish imkoniyatlarini tug'dirdi.

Hozir televideniye kirmagan xonadon, to'liqlari yangramagan joy yo'q. Televideniyaning mo'jizakorligini, uning imkoniyatlarini butun jahon tan oldi. Bizga ma'lumki, teatr san'ati ming yillik tarixga ega. Yozilgan sahna asarlarini dramaturglar, ijrochi-aktyorlar sahnalashtirib kelgan. Haqiqiy sahnalashtirish, ya'ni sahna asarini yaratish yaqin yuz yillar ichida yuzaga keldi. Dramaturg ham, aktyor ham uchinchi bir shaxs — boshqaruvchiga, ya'ni rejissorga murojat etadilar. Bu ham davr ehtiyoji, ham zamon talabi.

Rejissor ijodiy jamoani boshqaribgina qolmay, tashkilotchilik ham qiladi. Teatr rejissorlarining o'ziga yarasha mas'uliyatlari bor. Kino rejissori ham o'zgacha ishlash uslubiyatiga ega. Televideniye-



Zamonaviy kamerada tasvirga olish.



«Ohanrabo»  
ko'rsatuvidan  
lavha.

da ishlovchi rejissor esa har ikkala kasbning uyg'unligidan kelib chiqib boshqacha xislatlarga ega. Televideniya ishlaydigan rejissorlar alohida toifadagi odamlar bo'lishi kerak. Dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan, tepsa tebranmas yoki o'ta shoshqaloq odamlar ishlashi mumkin emas. Bu dargohda o'ta sezgir, zukko, hozirjavob insonlar ishlashi lozim. 1960-yillarda televideniyaning adabiy-dramatik ko'rsatuvlar tahririyatida teatr sohasida ko'p yillar xizmat qilgan Yuriy Purtov ismli rejissor faoliyat ko'rsatgan. U paytda televideniyaning barcha ko'rsatuvlari efirga jonli ketar, alohida yozib olinmas edi. Y. Purtov hayotda ancha o'zini tutib olgan, bamaylixtir, yetti o'lchab bir kesadigan ijodkor edi. U ko'rsatuvlarini efirga uzatayotgan paytda 4–5 tasvirlardan eng ahamiyatli kadrlar kechikib uzatilar, tasvir kuchi yo'qolgandan keyin efir yuzini ko'rar edi. Bu rejissor televideniya uning uchun emasligini sezib teatrga ketib qoldi. Mashhur kinorejissor Qamara Kamolova ham o'z faoliyatini televideniya boshladi, lekin ko'p o'tmay kinorejissorlikka o'tib ketdi. Dastlab televideniya ish boshlagan teatr rejissorlari Armug'on Muhammadov, Bobo Xo'jayev, Viktorina Raykova, Muzaffar Asadullayev, Maqsud Yunusov, Haybatilla Aliyev, Akmal Haydarovlar ham asr mo'jizasining sir-asrorlarini bilib olgunga qadar ancha qiyinalganlar, qo'rqanlar. Atak-chechak qilayotgan bola ko'p yiqilganday, bular ham adashganlar, dovdirab pultda nima qilarini bilmay qolganlariga ko'p guvoh bo'lganmiz. Faqat tajriba va izlanishlar tufayli televideniya faoliyatlarini davom ettirishga muvaffaq bo'lganlar.

Rejissorlardan Meli Mahkamov, Sa'dulla Anorqulov, Hamid Qahramon, Mirsiddiq Ustaboboyev, Mirabbos Mirzaahmedovlar bu

holatlarni tez o'zlashtirdilar. Buyuk teatr rejissori Toshxo'ja Xo'jayev ham umrining so'nggi yillarida televideniya hamkorlik qilib spektakllar sahnalashtirdi: «Okeanda yetti far-yod», «Hoji afandi uylanadi» kabi televizion asarlar shular jumlasidandir. Lekin, shunday iqtidorli rejissor ham spektaklni efirga jonli uzatayotganda pultda o'tirib shoshib qolardi. Rejissorlik pultida o'tirib kadr tanlash, jonli efirda badiiy asar yaratish, uni bunyod qilish hammaning qo'lidan kelavermaydi. Teatrda rejissor sahnani me'yoriga yetmaguncha takror va takror, shoshilmasdan mashq qilaveradi. Kinoda tasvir yoqmasa qaytadan tasvirga tushirish mumkin. Televideniya bunga imkon yo'q. Barchasiga hozir, shu tobda, shu zahoti ulgurish shart. Bo'lmasa futbolda urilgan to'pni qaytarib bo'lmaydi, Navro'z bayramida ilg'ab olingan kadrni takroran qaytarib bo'lmaydi yoki bo'lmasa minbarda gapirayotgan odamga, qaytadan gapiring biz olishga ulgurmadik, deb aytolmaymiz. To'g'ridan-to'g'ri olib borilayotgan holatlarda tezkor bir fikrga kelish shart bo'lganidek, televideniya rejissori ham zudlik bilan to'g'ri, yagona bir qarorga kelishi kerak. Rejissorning tomoshabin oldidagi mas'uliyati ham shunda. Eng iqtidorli teatr rejissori ham, kino rejissori ham televizion pult oldida dovdirab qoladi.

Chunki, million-million ko'zlar rejissor nigohiga qarab turganday, uning idroki, bilimi, saviyasi sinovdan o'tayotganday.

Ko'p yillar mobaynida televideniya faoliyat ko'rsatgan Qo'ziyon Hakimovning to'g'ridan-to'g'ri olib berilgan ko'rsatuvlarini tomoshabinga uzatganda yuksak mahoratiga shohid bo'lganmiz. Mustaqillik bayramlarini, Navro'z tadbirlarini, «Sharq taronalari»ni, sport universiadalarni tomoshabinga uzatganda unda alohida ilhom jo'shib turardi. Pultda o'tirganda ham o'zgacha holat kasb etardi. Qarshisida turgan 8–10 ta tasvirdan boshqa hech narsani ko'rmasdi. O'sha tasvirlardan haqiqiy televizion asarni ijod qilardi. Namoyish etilayotgan tomoshadan, uning o'ylagan rejalaridan ustunroq bo'lgan go'zal manzaralar, kadrlar, kutilmagan holatlarni ilg'ab olgani-



«Mehrobdan chayon» videofilmidan  
lavha.

ni tomosha qilardik. Q.Hakimov har bir mashqni takror va takror kuzatar, o'zicha qaytda qilar, tasvirchilar bilan oldindan kelishib olar, pultda o'tirganda esa uning diqqatini chalg'itib bo'lmas edi. Qo'yilgan aniq maqsad, aniq rejalar amalga oshar, oddiy imo-ishoralar bilan kadrlar tomoshabinga uzatilar edi. Rejissor assistentlari Gumar Nugayev, Komil Oripov Qo'zjonning nigohiga qarab turar, qo'l ishorasi, ovoz ohangi bilan zargarona kadr tanlashga imkon yaratardi. Qo'zjon Hakimov to'g'ridan-to'g'ri olib boriladigan tadbirlarning hadisini olgan, o'ziga xos intuitsiyaga ega bo'lgan rejissor edi. U halol, pokiza, talabchan, o'ta mas'uliyatli, xullas televideniye vijdoni edi. Murakkab voqealarni shu zahoti ko'rsatishda professional mahoratga ega bo'lgan rejissor Qo'zjon Hakimov televizion rejissuraning etaloni bo'lib qoldi.

Televideniye bu — kichik ekran san'ati, yirik plan san'ati. Insonning yuzi, ko'zi, kayfiyati, ruhiyati bizga qiziq. Televideniye umumiy, cheksiz planlarni uncha yoqtirmaydi, uning ko'lami, ta'siri o'zgacha. Katta ekranda ko'rilgan jang sahnalarining ta'siri kichik ekranda ko'rilgan tomosha ta'siridan farq qiladi. Shunday ekan, Navro'z tomoshalarini ham tomosha qilganda turfa odamlarning turishi, holati, o'zini tutishi tomoshabinga qiziq. U yoqdan bu yoqqa yurgan, tinimsiz harakatda bo'lgan kameralarning, chumoliday odamlarning harakatini tomosha qilish, uzundan-uzoq beta'sir tasvirlarni ko'rish odamlarni charchatadi.

To'g'ri, hozir texnik imkoniyatlar juda kengayib ketdi. Yangidan yangi, ildam, tezkor kameralar paydo bo'ldi. Bu degani o'shalarni ko'z-ko'z qilish kerak degani emas-ku. Haddan ziyod effektlarga kuch berib rejissor rejasini, oldiga qo'yilgan maqsadini, televideniye san'atining burchini unutib qo'ymayapmizmi? Tomoshabin umumiy planlarni sog'inib ko'rsin. Hozirgi o'sib kelayotgan hamkasblarimiz keksa avlodlar ko'rmagan texnikani ko'rishmoqda, katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunday texnikadan unumli foydalanishimiz kerak. Murakkab effekt vositalaridan, montaj usullaridan o'rin-siz, bemaqsad foydalanmaslik kerak. Bu narsani shoshma-shosharlik bilan tayyorlangan, bir-biriga o'xshagan kliplarda, arzon-garov tayyorlangan ko'rsatuvlarda ham ko'rish mumkin. Payvand sirlarini yaxshi o'rgangan odamning hammasi rejissor bo'lavermaydi. Rejissuraning o'z sir-asrorlari, qonun-qoidalari bor. Toki kishi bu maktabni o'tamas ekan, har maqomga yo'rg'alayveradi. Ko'rsatuv tomoshabinni larzaga solmas ekan, qilingan mehnat, sarf qilingan xarajat bekorga ketdi, deyavering.

Jonli efir paytida butun ijodiy jarayonning sardori rejissor hisoblanadi. Uning yonida rejissor asistenti, texnik muhandislar, ovoz sozlovchi rejissorlar, yordamchi rejissor, tasvirchilar, chiroqchilar va boshqalar ishtirok etadi. Qarshidagi qator monitorlarda sakkiz-o'nta tasvirlar bo'lib, ularni saralash, keraklisini tomoshabinga uzatish rejissordan katta mas'uliyat talab qiladi.

Ba'zan televideniye rejissor ikkilamchi, muharrir birlamchi o'rinda turadi, degan gaplarni eshitib qolamiz. Bu butunlay noto'g'ri fikr. Televideniye avvalambor bu tomosha dargohi, tomoshani rejissor tayyorlaydi. To'g'ri, informatsion dasturda muharrirning o'rni beqiyos, lekin uni ham rejissor ko'rimli qiladi. Badiiy televideniye, shou dasturlarda ham rejissorning o'rni betakrordir. Hujjatli ekranni ham ifoda vositalari orqali rejissor tayyorlaydi. Muharrir mas'uliyatini inkor qilmagan holda rejissor iqtidori, uning imkoniyatlari birinchi o'ringa chiqadi. Hozirgi zamon texnika taraqqiyotida televideniye jonli ko'rsatuvlarini efiga uzatishda rejissorning mas'uliyati benihoya katta.

#### 4. Badiiy asar ustida ishlash

Teatr san'ati qadim-qadimdan o'z mualliflariga ega. Antik davrdan boshlab to shu kunga qadar ham Esxil, Evripid, Lope de Vega, Molyer, Shekspir, Goldoni, Shiller, Chexov, Gorkiy, Hamza kabi mashhur teatr dramaturglari sahna asarlarini yaratishgan. Dramaturgiyani fojeali, kulguli, dramatik, qayg'uli, xursandchilik tomoshalari va boshqa janrlar tashkil etadi. Har bir davrning o'z estetikasi, o'z talablari bor. Bir necha asr avval asarlar 4—5 pardali qilib yozilgan bo'lsa, so'nggi asr o'rtalariga kelib bir tanaffusli, ikki pardali asarlar teatr sahnasini egalladi. O'tgan asrning 30—50-yillarida tomoshabinlar 2—3 tanaffusli sahna asarlarini sahna bezaklari almashinib parda ochilguncha kutishgan. Spektakl kechasi soat o'n ikki-birda tugab, tomoshabin miriqib tomoshadan qaytgan bo'lsa, tezkor zamon taqozosi bilan tomoshabin vaqtini tejash maqsadida bir tanaffusli yoki tanaffussiz asarlar sahnalashtirila boshlandi. San'at turklarining bir-biriga ta'siri namoyon bo'ldi. Agar kinotomoshabin bir yarim soat ichida yakunlangan mavzuni tomosha qilib chiqsa, teatr ham yirik mumtoz sahna asarlarini davr ehtiyojiga qarab qisqartirib, asar qaymog'ini ko'rsata boshladi. Voqealar kechadigan joylarni majoziy timsollar, shartli bezaklar bilan tomoshabinga havola qilina-



digan bo'ldi. Vaqt, joy va harakat birligi teatr san'ati uchun katta rol o'ynadi. Hamzaning «Maysaraning ishi», Izzat Sultonning «Imon», Uyg'unning «Qotil», Sharof Boshbekovning «Temir xotin», «Toshkentga sayohat», Mashrab Boboyevning «Gurung» kabi asarlari shular jumlasidandir.

Ekran san'ati paydo bo'lgandan beri tasviriy ifoda vositalari imkoniyatlari yanada kengaydi, tomoshabin tanlash va saralash sharoitiga ega bo'ldi.

Muallifning har bir asari rejissor talqiniga bog'liq. Rejissor ham spektakl muallifi hisoblanadi. Qog'ozdagi so'zlarga jon ato qilgan, unga umr bergan, o'z zakosi va ijodiy jamoa bilan jonli sahna asarini yaratgan rejissor hisoblanadi. Rejissor va muallif birligi, maslakdoshligi katta rol o'ynaydi. Rejissor dardi dramaturg dardi bilan hamohang bo'lishi kerak. Stanislavskiyning Chexov va Gorkiy bilan yaqinligi, Mannon Uyg'unning Hamza bilan maslakdoshligi, Toshxo'ja Xo'jayevning Oybek, Erkin Vohidov bilan hamkorligi, Bahodir Yo'ldoshevning Said Ahmad bilan, Rustam Hamidovning O'lmas Umarbekov bilan izlanishlaridan ajoyib sahna asarlari yaratildi. Ba'zi rejissorlar muallif tanlamaydi, duch kelgan asarni sahnalashtiradi. Bunday rejissorlar ijodni kasbga almashtirgan, har bir asarida birxillikni takrorlaydigan hunarmand rejissorlardir. Ayrimlarga voqea qayerda kechadi, qachon kechadi, tarixiyimi, zamonaviyimi farqi yo'q, o'z uslubi, tayyor qolipi bor, sahnalashtiraveradi. Bu o'z navbatida tomoshabin qalbini jiz ettirmaydi, larzaga solmaydi, hafsalasi pir bo'lib teatrni tark etadi. Dramaturg o'ylab topgan mavzu, matn, qog'ozdagi qiyofalar rejissor sa'yi-harakati tufayligina jonlanadi, hayotiy haqiqatga aylanadi, tomoshabin larzaga tushadi, ma'naviy oziq oladi. Teatr san'ati – shartli san'at. Sahnaga haqiqiy daraxtni, paxsa devorni olib chiqib bo'lmaydi. Tomoshabin chizilgan jihozlarni, yasama rekvizitlarni tushunadi, hamma gap ijroda, uning ishonarli jonli va hayotiy chiqishida, talqinida. Tomoshabin teatrga nega tushadi? Aktyorning jonli ijrosi, uni yuzma-yuz turib tomosha qilish, har gal yangi holat, yangicha ruh, harorat o'ziga jalb qilaveradi. Qiyofalar turlanishi, voqealar rivoji, ijrochilarning har safar roliga o'zini baxshida qilishi tomoshabin e'tiborini tortaveradi. Teatrning jozibas ham shunda. Ba'zilar televideniye paydo bo'lgandan keyin teatr o'ladi deb bashorat qilgan edilar, yo'q teatr o'z jonli mehrigiyosi – ijrosi bilan abadiy san'at ekanligini isbot qildi. Keyingi yillarda tomoshabin teatrga yana oqib kela boshladi.



«Moziydan bir sahifa» videofilmidan lavhalar.

To'g'ri, teatr san'atida asrlar davomida yangi texnik imkoniyatlar yaratilmadi. Endi-endi teatr tomoshalari ochiq maydonga chiqa boshladi. Bu esa o'z navbatida rejissorlarga yangi imkoniyatlar yaratdi. To'rt devorning ichida qolgan teatr san'ati, yangi kino san'atining paydo bo'lishiga olib keldi. Dramaturg va rejissor teatrdan namoyish eta olmagan ijod mahsulini kino san'atida amalga oshirdi. Kinoda voqealar ko'lamining kengligi, vaqt cheksizligi ssenariy uchun ham, rejissor uchun ham katta sharoitlarni tug'dirdi.

Teatrdagi rejissor bilan dramaturg hamkorligi kino san'atida rejissor va ssenariy muallifi hamkorligiga aylandi. Teatrdagi kabi kinoda ham rejissor film muallifi hisoblanadi. Kinodramaturg o'ylab topgan voqealarni jonlantiradigan, uni ko'rimli tomoshaga aylantiradigan shaxs bu kino rejissordir. Teatr san'atini sintetik san'at dedik. Kino ham, televideniye ham teatr kabi sintetik san'at hisoblanadi. Teatrdagi aktyor, rassom, bastakor, chiroqchi, liboschi, pardozchi, rekvizitlar tufayli spektakl bunyodga kelsa, kinoda ularga qo'shimcha tasvirchi-operator, assistent, ovoz operatori, montajchi, lablash-tiruvchi va boshqa qator texnik xodimlar tufayli film vujudga keladi. Timimsiz mashaqqatli mehnat, juda katta ijodiy jamoaning birligi sababli kinofilm dunyoga keladi, tomoshabin yuzini ko'radi. «To'lu va Zuhra», «Alisher Navoiy», «Nasriddinning sarguzashtlari», «O'tgan kunlar», «Mahallada duv-duv gap» kabi mumtoz filmlar mana shunday mashaqqatlar evaziga bunyod etilgan. Nabi G'aniyev, Komil Yormatov, Yo'ldosh A'zamov, Malik Qayumov, Shuhrat Abbotov kino san'atimizning darg'a rejissorlari hisoblanadi. Bu rejissorlar kino san'atining qonuniyatlari, sir-asrorlarini yaxshi bilganliklari uchun, kinodramaturglar bilan hammaslak bo'lib ishlaganliklari

uchun ana shunday jahonga mashhur filmlar yaratdilar. Necha yillar o'tsa ham bu filmlarni qayta-qayta ko'ring kelaveradi. Kino san'atining ajoyib xislati ham mana shunda. U lentaga muhrlangan. Tasmada saqlanayapti. Uni takror va takror ko'ra olamiz. Teatr san'atining fojeasi shundaki, uni muhrlab bo'lmaydi, har kungi jonli ijroni saqlab qololmaymiz. Bir marta muhrlandimi, tasmaga tushirildimi, shu saqlanib qoladi. Afsuski, hozirgi elektron texnika taraqqiyotini o'tgan asr o'rtalaridagi buyuk san'atkorlar ko'ra olishmadi. Mannon Uyg'ur, Mariya Kuznetsova, Yetim Bobojonov, Abror Hidovtlarning yuksak darajada yaratgan jonli qiyofa va spektakllari saqlanib qolmadi, ayrim lavhalar, urvoq kadrlargina xotira sifatida qoldi. Teatrda mashhur spektakllar ayrim suratlar orqaligina ko'z oldimizda gavdalanadi, rejissor va dramaturg hamkorligini tasavvur qilamiz.

Ommaviy axborot vositalarining shakllanishi, elektron texnika-ning keskin rivoji teatrga ham, kinoga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Rejissor va dramaturg hamkorligining yangi qirralari ochildi. Avvalari teatr va kino san'atida amalga oshmagan mo'jaz filmlar, kichik novellalar, uzundan-uzoq seriallar, hujjatli ekran asarlari, publisistik janrlar, film portretlar, kundalik informatsion ko'rsatuvlar XX asr mo'jizasi televideniye tufayli dunyoga keldi va rivoj topdi. Televideniye va radio kirmagan xonadon qolmadi.

Buyuk yozuvchilar buyuk rejissor bo'ladi, deyishadi. Darhaqiqat, Shekspir ham, Balzak ham, Lev Tolstoy ham, Abdulla Qodiriy ham buyuk rejissorlardir. Ularning har bir satri, har bir sahnasi, so'zi zahirida yotgan fikrlar rejissor uchun katta bir ma'naviy ozuqa, sahnalashtirishning ulkan imkoniyatlarini yaratib beradi, tasavvuringizda, ko'z oldingizda o'z-o'zidan voqealar tizmasi jonlanib namoyon bo'laveradi. Siz uni muallif uslubini, oldiga qo'ygan maqsad, niyatlarini buzmaganda holda ro'yobga chiqarsangiz bas. To'g'ri, rejissor ijodkor shaxs sifatida o'zining «men»i, muallifga munosabati, davrga hamohangligi, avval ochilmagan qirralarni asardan topishi, yangi yondashuvni zamondoshga izhor qilishi, uni larzaga keltirishi lozim. Ammo ko'pincha rejissorlar o'zini namoyon qilib, «men»i bo'rtib, muallifning fikri-zikri ikkinchi darajali bo'lib qo'layotgan hollari uchrab turibdi. «Revizor», «Hamlet», «Otello», «Qutlug' qon», «Kelinlar qo'zg'oloni», «Qiyomat qarz» shular jumlasidandir. Asarlarni sahnalashtirishda rejissor yozuvchining biron so'zini o'zgartirmay yangi qatlam fikrlarni topa bilgan. Talqinda gap

ko'p. Rejissor bir asarni har asnoda ko'rishi, o'ziga kerakli durni topib olishi mumkin. Ikkinchi jahon urushida Aleksandr Korneychukning «Front» asari sahnalashtirilgan. Asar qahramonlari, sovet zobitlari va askarlari nemisga qarshi kurashadi. «Sovet»da qo'yilgan bu asar vatanparvarlik ruhida tayyorlanib dushmanga nafrat uyg'otgan. Aynan shu asarni Germaniyada sahnalashtirilib bironta so'zini o'zgartirmasdan ko'rsatishgan. Natijada nemis zobitlari aqlli, idrokli, sovet zobitlari ahmoq, laqma sifatida namoyish qilingan. Farq uslubda, ijro ohangida, talqinda. Demak, asarning qo'yilishida gap ko'p ekan. Rejissor qanday sahnalashtirsa, tomoshabinda shunday taassurot qolar ekan. Dramaturg yozadi, muallif ham o'zi. Lekin sahnalashtirilgan asar — spektakl muallifi rejissordir. Qog'ozdagi muallif dardi bilan sahnada jonlangan rejissor dardi hamohang bo'lib, uyg'unlashib ketsa, maslak bir joydan chiqsa, asar muvaffaqiyati, uzoq umr ko'rishi shundan bo'ladi.

Bahrom Rahmonovning «Yurak sirlari» dramasi bo'lardi. Taniqli bo'lmagan dramaturg, mashhur bo'lmagan shu asarga jon ato qilgan, uni mashhur qilgan rejissor Toshxo'ja Xo'jayev bo'ladi. Ajoyib shoir Erkin Vohidov «Oltin devor»ning qoralamasini teatrga olib kelganida, unga ishlov bergan, ko'rimli tomoshaga aylantirgan, hozirga qadar sahnadan tushmaydigan komediyani vujudga keltirgan, shoirni dramaturg qilgan ham Toshxo'ja Xo'jayev bo'ladi. Oybekning «Qutlug' qon» asarini sahnalashtirayotganda, mashq jarayonida zalda o'tirgan Oybek sahnadagi bezak, ijro mahoratini ko'rib, qod jarayonining ketishiga qarab necha bor rejissor Toshxo'ja Xo'jayevning yelkasiga qoqib qoyil qolganini, tasannolar aytganining shohidi bo'lganmiz. Dramaturg Sharof Boshbekovning «Temir xotin» asari yozilganida, qator teatrlar uni sahnalashtirdi. Biri komediya, biri fars qilib ijro etdi. Lekin kulgu tagida ijtimoiy fojea yotganligini rejissor Olimjon Salimov ilg'adi. Muallif dardi bilan rejissor dardi bir yerdan chiqdi. Qars ikki qo'ldan deganiday, dramaturgning qochirimlarini, kulgu tagida yig'i borligini rejissor anglay bilgan va uni mohirona ijroda ro'yobga chiqargan.

Pyesa birlamchi, spektakl ikkilamchi hisoblanadi. Atayin sahnaga yozilgan asarlar bor: drama, komediya, tragediya, opera, operetta, musiqali drama va hokazolar. Sahnaga moslashtirilgan (adaptatsiya) asarlar ham bor: roman, qissa, novella insseniroykalar.

Badiiy asar ustida ishlaganda rejissor birinchi holatda asar mavzusi, g'oyasi, shu kun uchun dolzarbliligi ustida bosh qotirishi, tomoshabiniga qanday ma'naviy ozuqa berishi haqida o'ylashi kerak.

Biz bilamizki, barcha badiiy asarlar to'qima, yozuvchi, dramaturg xayolotida o'ylab topilgan hayotiy lavhalardir. Bu badiiy to'qimalar rostga aylanishi kerak. Bu o'z yo'lida muallif mahoratiga bog'liq. Muallif goh tarixiy, goh ijtimoiy, goh maishiy mavzuga murojaat qilar ekan, insoniy muammolarni rost, ishonarli qilib dramaturgiya qonunlariga moslab yozmog'i kerak.

Umuminsoniy abadiy mavzular, muammolar bor: muhabbat, nafrat, o'lim, hasad, rashk kabilar hech qachon o'lmaydi. Insoniy xislatlar, ezgulik va yovuzlik, itoat va takabburlik, mehr va shafqatsizlik, donolik va nodonlik, saxiylik va xasilik, insonning barcha his-tuyg'ulari asarlarda o'z ifodasini topsin. O'tkinchi, kundalik mavzular bor: ular sharoitdan, vaziyatdan kelib chiqib yozilgan tezkor asarlar. Bular tez eskiradi va nazardan qoladi.

Yaqin o'tmishda yozilgan va o'sha davrni ulug'lagan ko'pgina sahna asarlari hozir keraksiz bo'lib qoldi. Rejissor asar tanlar ekan, mana shu narsalarga e'tibor berishi kerak. Bundan tashqari har bir yozuvchining o'ziga xos xususiyatlari, yozish uslublari mavjud. Masalan, Oybekni Abdulla Qahhordan, Abdulla Qodiriyning Tog'ay Muroddan tili, ushbu, tasvir ifodalari, qiyofalari bilan bemalol farqlash mumkin. Rejissor yozuvchining nimaga qodir ekanligini, o'ziga xosligi **nimadaligini**, qaysi jihatlari bilan ajralib turishini aniqlab olishi lozim. Demak, yozuvchi-dramaturg qahramonlar **nimani** gapirayotganini yozadi, rejissor **qanday** gapirayotganini ochib beradi. Ba'zan dramaturg rejissorga yordam bo'lsin uchun voqea sodir bo'layotgan joylarni ipidan ignasigacha (replika) tafsilotini beradi. Ba'zan yozuvchi rejissorning o'ziga talqinni havola qiladi. Muallif ruhiyatini, unga yashiringan muddaoni rejissor ilg'ashi, topishi kerak bo'ladi.

Rejissor muallif ijodini, dunyoqarashini, uning kayfiyatini, uslubiyatini chuqur o'rgangan, asarni sahnalashtirgunga qadar o'ziga xoslik tomonlarini yaqqol anglagan bo'ladi. Ba'zan bitta mavzuni bir necha muallif o'z ijodida qalamga oladi. Masalan, «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Sabba'i sayyor», «Saddi Iskandariy» va hokazolar. Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy nega bu mavzularga qo'l urgan, versiyalar turlicha, yondashuvlardagi tafvut nimada? Boshqa manbalardagi farq va oxir-oqibat rejissor bu asarni sahnalashtirishidan maqsad **shaxs** sifatida nima demoqchi, qanday **yan-gi gap** aytmoqchi, mana shu holatlar rejada o'z ifodasini topsin.

**Pyesa** adabiy mahsul, uni o'qish mumkin. Rejissor unga hayot **bag'**ishlaydi, murakkab ijodiy jarayonni boshdan kechiradi. Sahnada **san'**at mahsulini, tomoshabinga mo'ljallangan jonli mahsulni ro'yobga chiqaradi. Bu mahsul — spektakl tomoshabin vijdonini g'ulg'ulaga solsin, qalbini junbushga keltirsin.

Shu o'rinda adabiy mahsulning sifati, ko'targan yuki, beradigan ma'naviy ozuqasi haqida rejissor munosabatini o'ylab ko'rsak. So'nggi vaqtlarda sahnada, kinoekranda, televizion efrida o'ta jo'n, sayoz, bir ko'rimli «asar»lar ko'payib ketdi. Teatrda, kinoga kirgan, televizorni tomosha qilgan tomoshabinning hafsalasi pir bo'layapti. Bu nima? Haqiqiy san'atga bo'lgan talabning susayishimi? Tomoshabin didi o'tmaslashganimi? Yuksak san'at namunalari qayerda qoldi? Yuksak adabiy asarlar, haqiqiy ijod namunalari turgan joyda biz o'rtamiyona, tomoshabinga hech narsa bermaydigan «asar»larni sahnalashtirib, ekranlashtirib, efriga uzatib nima qilamiz. Haqiqiy rejissor badiiy asar tanlashda, uning ustida ishlashda mana shunga e'tibor berishi kerak. Agar san'atning burchi yuksak saviyali barkamol insonni tarbiyalash bo'lsa rejissor kelgusi avlod oldida, uning dunyoqarashi, saviyasi oldida o'ta mas'ul ekanligini hech qachon unutmaslik kerak.

## 5. Rejissura va xatti-harakat

Sur'at bu harakatning me'yoriy darajasidir. Mutlaq harakatsiz holat bo'lmaydi. Harakat munosabatdan, yuz berayotgan holatdan kelib chiqadi. Sodir qilinayotgan harakat, uning sur'ati maqsaddan hosil bo'ladi. Men nima istayapman, uni amalga oshirishda nima qilayapman, qaysi ijro vositalari bilan amalga oshirayapman. Harakatning zamirida kurash, to'qnashuv yotadi. Har bir to'qnashuvni tashkil qilish, ro'yobga chiqarish maqsad asosida, manfaat asosida qilinadi. Bu esa o'z yo'lida oliy maqsad, maqsad va niyatchalardan iborat. Inson o'z maqsadlarini amalga oshirishda har xil uslublardan, usullardan bir umr foydalanadi. Turfa qilmish, qidirmishlar, kirdikortlar, qitqlari orqali inson qiyofasi kimligi aniqlanadi. Dramaturgiyada, badiiy adabiyotda asar qahramonlarini xatti-harakatlari, izchillik bilan amalga oshirayotgan maqsadlari, sodir bo'layotgan voqealar, ularning zanjiri rejissor tomonidan aniqlanadi. Sahnalashtiruvchi berilgan holatlarni tahlil qilib, badiiy qiyofa omillarini ochadi. Bu omil-

lar shart-sharoitga vaziyatga, muhitga, ahvol jihatlariga bog'liq. Shart-sharoit holatlari uch doiraga bo'linadi.

**Kichik doira** — hozir, shu tobda sodir bo'layotgan vaziyat.

**O'rta doira** — navbatda turgan, keyin bajarilishi kerak bo'lgan holat.

**Katta doira** — bu uzoqni ko'zlagan pirovard natijada amalga oshadigan holat.

Uchovi ham bir-biriga uzviy bog'liq holatlardir. Aytilgan so'z otilgan o'q deymiz. Hamisha aytishdan oldin o'ylaymiz, demak avval fikr keladi. Fikr esa aytilgan so'zlarni tartibga soladi. Ketma-ketligini ta'minlaydi. Ichki nutq ifodasi aytilgan so'zdir. Biz bir-birimizga so'z bilan, harakat bilan ta'sir qilamiz. Dildagi tilga chiqadi. Harakat aksharakatni keltirib chiqaradi. Oraliqda muloqot paydo bo'ladi. Dildagi niyat bilan ikkinchi niyat to'qnash keladi. Biri-biridan ustun bo'lishga, niyat va maqsadlari, muddaolarini amalga oshirish uchun kurash boshlanadi. Bu kurash ba'zan oshkora, ba'zan yashirin kechadi. Odamlar orasidagi munosabat, muloqot jarayoni oldiga qo'ygan maqsadni ro'yobga chiqarishda raqobat bo'ladi. Kimdir g'olib, kimdir mag'lub chiqadi. Bu xatti-harakat jarayonida sodir bo'ladi va o'z samarasini ko'rsatadi. Odatda insonlar hayotda beixtiyor, sahnada ixtiyoriy harakat qiladilar. Demak, dildagi niyat, aytilayotgan so'z butun vujudan chiqishi, qalbdan aytilishi lozim. Muloqot hamisha kurashdan, to'qnashuvdan iborat.

So'zning ikki qirrasini bo'ladi: biri fikriy ma'no qirrasini, ikkinchisi harakatga keltiruvchi qirrasini. Ko'pincha odamlar nimani gapirayot-



«Mehrobdan chayon» videofilmidan lavha.

gani bilan emas, nimani aytmayotgani bilan ahamiyatli. Masalan, Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» asaridagi Anvar bilan Ra'no orasidagi visol oqshomidagi suhbatini: Anvar «Tug'ilgandan so'ng o'sish, o'skandan so'ng ikav-ikav bo'lib yashash bor. Juftlik yolg'iz kishilar orasidagina emas, yer yuzidagi har bir maxluqda ham bor... Masalan, tog'lardagi ohular, o'rmonlardagi to'tilar,

chamandagi bulbullar ham yolg'iz emas, juft yashaydurlar... Seningcha qanday, men uni bilmayman, ammo juftlanishning manimcha eng muhim sharti borkim, ul ham ikki tarafning muhabbat zanjiri bilan bir-birlariga qattiq bog'lanishlaridir». Anvarning shu holatidan tildagi aytilayotgan so'zlari dilidagi aytmoqchi bo'lgan fikrlarining uzoqdan boshlanishi, ko'ngildagi gaplarni ochiq aytmamasligi, sir saqlashi tomoshabinning, o'quvchining o'ziga havola qilinayapti. Oshkora aytilmagan, uyatga yo'g'rilgan muhabbatning sir-asrorini tomoshabin seza oladi.

Demak, so'z zamirida yotgan fikr ahamiyatli. Biz aytilgan so'z zamirida yashiringan qatlam-qatlam niyat va maqsadlarni aniqlashimiz, bir-biriga bog'langan voqealar zanjirini topishimiz lozim. Xatti-harakat bu berilgan holatda ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun vaqt va makon ichida psixofizik jarayonning uyg'unlik harakatidir. Harakatning uch xil ifodasi mavjud:

- jismoniy xatti-harakat;
- so'zli xatti-harakat;
- fikriy xatti-harakat.

Harakat ko'z oldingizdan xuddi tasavvur lentalarini, kino tasmasidagi o'tadi. Harakatni ko'rish boshqa, eshitish, gapirish boshqa, bajarish boshqa. So'zlarning tug'ilish uqubatida hikmat ko'p. Masalan, Shekspirning «Gamlet» asarida Gamlet «yo o'lish, yo qolish» monologini aytgunga qadar qancha ichki kechinmalarni o'tkazmadi, otasining o'limi, sal o'tmay onasining turmushga chiqishi, qirollikdagi hayot tarzi butun vujudini junbushga keltiradi. Qancha so'zsiz holatlar, o'y va xayollar oxir-oqibat «yo o'lish, yo qolish» so'zini oshkor aytishga majbur qiladi. So'z to'lg'oq tutgan onaday hayot yuzini ko'radi, tug'iladi. Yana bir misol, A.Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidagi Xudoyorxon bilan Anvar orasida kechgan muloqotni ko'zdan kechiraylik.

•Xudoyorxon: — Sen bizga xiyonat qilding, it uvli!

Anvar: — Iqorman!

Xudoyorxon: — Tuzumni unutding!

Anvar: — Tonmayman!

Xudoyorxon: — Iqorsen, tonmaysen, ubdan ish! Uluvdan ham qaytmaysen!

Anvar: — Men sizdan marhamat so'rab kelgan emasman. O'zinni o'limga berib, bir gunohsizni qutqazish uchun kelganman».

Mana shu sahnada xonning dag'dag'alariga tik turib Anvar boshdan o'tgan azob-uqubatlar, mashaqqatlarda tug'ilgan bir qarorini yetti o'ltahab bir kesgan holda, sukutlar evaziga a'yon-u bayonlar oldida xonlikka hukm chiqaryapti. Sabr kosasi to'lganidan, pichoq borib suyakka taqalganidan tik turib o'lishni afzal ko'rayapti. Anvarning har bir so'zi qancha-qancha mulohazalardan so'ng, ichki nutqlardan so'ng tug'ilyapti. Ichki nutqsiz so'z dunyoga kelmaydi. Avval o'ylaymiz, keyin so'ylaymiz. Butun insoniyat yashash tarzi shunday kechadi. Aytgan so'z otilgan o'q dedik, o'q borib nishonga tegishi kerak. Bir so'z bilan inson qalbini jarohatlaymiz. So'zning kuchi, uning ta'siri odamni izdan chiqaradi. So'zni quloq eshitsin deymiz-u, ko'proq nishini ko'zga qaratamiz. So'z zalvorini ko'z ifodasidan topamiz. Aytgan so'zga baho berib, uning zamirida nima yotganini aniqlashga harakat qilamiz. Shu so'zga yarasha javob tayyorlashga oshiqamiz. Aktyorlik san'ati, uning ruhiyati, texnikasi xatti-harakatni batafsil ijro etsa, mukammallik darajasiga yetkazsa, ishonarli, tabiiy, hayot qonunlariga asoslanib ko'rsatilsa, bu uning yuksak mahoratidan darak beradi. Harakat jarayonining iker-chikirlarini mufassal, to'la-to'kis injiqlik bilan yondashib ochilsa bu san'atga aylanadi. Zavq-shavq bilan ishlash, ishtiyoq bilan izlanish, butun vujudi bilan qilgan ishidan rohatlanish aktyorlik san'atining mezoni hisoblanadi.

Aktyorning asl tabiatidagi qonuniyatlari quyidagicha:

**1. Diqqat.** Diqqat-etiborni bir nuqtaga qaratish, jamlash san'ati. Tikilish, nigoh qaratilgan narsa aynan o'sha bo'lmasligi mumkin, lekin siz o'sha narsa ekanligiga inonishingiz, «Agarda» shu holat ro'y berganda o'zgani ishontira olish xislati.

Butun insoniyat o'z faoliyatida, kundalik hayotida o'z diqqatini nimagadir qaratadi, tanlab o'z nazarini tashlaydi, nigohi bilan o'sha jarayonni kuzatadi. Nimanidir ko'radi-kuzatadi, o'ylaydi, bir to'xtamga kelib, yana e'tiborini boshqa narsaga qaratadi. Hamisha uning manfaati, qiziqsinishi tufayli biron narsa e'tiborda bo'ladi. Biron narsaga qaratilgan nigoh layoqati **diqqat** deb ataladi. Nigoh ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi, muddao o'zgarishi bilan nigoh ham o'zgaradi. Hayotda bizni o'rab turgan muhit, holatlar vujudimizga har xil ta'sir ko'rsatadi, o'zgarishlar hosil qiladi. Nimanidir qabul qilamiz, nimanidir qabul qilmaymiz, biri yoqadi, biri yoqmaydi. Atrof-muhit har xil rishtalar bilan o'ziga bog'lab turadi, o'ylaymiz.

bosh qotiramiz, muammolarni yechishga harakat qilamiz. Ba'zi narsalar bizni chalg'itadi, xalal beradi, ba'zi narsalar bizni o'ziga jalb qiladi. Biz uni ko'rishga jazm qilamiz. Sahnada hamma narsa shartli kechadi. Biz uni jiddiy qabul qilib berilgan hamma holatlarda ishtiyoq bilan qahramon harakatini kuzatamiz. Aytaylik, O'lmas Umarbekovning «Qiyomat qarz» asari. Sulaymon ota qiyofasini yaratuvchi Shukur Burhonov spektakl boshlanishida chamasi o'n daqiqalar sukut saqlaydi. Zalda pashsha uchgani bilinadi. Aktyorning butun diqqat-e'tibori qo'y-qo'zilarida, uni o'z egasiga topshirish, qiyomat qarzidan qutilish yo'llarini axtaradi. Bir nuqtaga tikilgan, uning jim yurishi, turishi, sukut saqlab o'tirishi, butun vujudi bir narsa bilan band. Shu o'y-xayollar, yechilmagan muammolar tomoshabinni ham o'zi bilan yetaklaydi. Kechinmalariga ergashtiradi. Bir Shukur Burhonov diqqati zalda o'tirgan necha yuzlab tomoshabinning diqqatini chulg'ab olar edi. Bu Shukur aka mahoratining yuksak cho'qqisi edi.

**2. Tasavvur.** Biz dunyoni, atrof-muhitni o'z holicha qabul qilamiz, lekin berilgan shart-sharoitda tasavvur etilgan holatda qabul qilamiz. Masalan, A.S. Pushkinning «Gul» she'ridan quyidagi satrlar:

Qurigan, hidi yo'q, unutilgan gul,  
Kitobni ocharkan ko'rib qoldim man.  
G'alati xayolga to'ldi-da ko'ngil,  
Parishon termulib turib qoldim man.

Qayerda va qachon, qaysi bahorda?  
Gullagan, uzoqmi, kim uzdi ekan?  
Yot qo'lmi, tanishmi uzgan nahorda,  
Nima uchun bu yerga qo'yishdi ekan?

Bu savollar qayerda, qachon, nima uchun, kim uzdi ekan... Sizda ming xil xotirotni uyg'otadi, tasavvuringizni qo'zg'atib xayolot dunyosiga chulg'aydi. Tasavvur san'ati sizda mudrab yotgan tuyg'ularni uyg'otadi. Bu xislatni uyg'otish uchun uzluksiz muntazam tasavvur mashqlari talab qilinadi.

**3. Ruhiiy va jismoniy erkinlik, jussa erkinligi.** Jussa erkinligi — ruhiy erkinlik ifodasidir. Inson jussasi ma'no anglatsin, fikrlasin. Kishi tabiiy holatda hamisha o'zini erkin tutadi, asablar teranlashganda, qattiq his-hayajonga berilganda siqqlik paydo bo'ladi. Hayotda

inson jismoniy harakat uchun qancha quvvat kerak bo'lsa, shunchasini sarflaydi. Jussa xatti-harakati mavjudligi san'atkor fazilatidir.

**4. Idrok qilish, ta'sirlanish.** Inson borki, uning sezgi a'zolari bor: ko'rish, eshitish, sezish, hid bilish, ta'm-maza totish. Bu tuyg'ular kundalik hayotimizda asqotadi. Bu his-tuyg'ularni boshqarish, uni jilovlash, tarbiyalash, unumli foydalanish san'atkor hayotida muhim rol o'ynaydi. Biz faol turmush tarzimizda, beixtiyor idrok qilamiz, ta'sirlanamiz, u-bu voqealarga munosabatimizni shu tuyg'ular orqali ifodalaymiz, izhor qilamiz. Darhaqiqat, tuyg'ular haqqoniyatini his qila olish yozuvchidangina emas, san'atkor aktyordan ham yuksak darajada talab qilinadi. Insoniy tuyg'ularning o'ta o'zgaruvchanligi, jilovlash qiyinligi, atrof-muhit ta'sirida tez beqaror bo'lishi, turlanish xususiyatlari bor.

Inson kayfiyati bir kunda necha bor munosabat va muloqot jarayonida, to'qnashuvlar ta'sirida o'zgaradi: xursand bo'ladi, kuladi, qo'rqadi, yig'laydi, darg'azab bo'ladi va hokazo.

Birlamchi va ikkilamchi tuyg'ular bor. Birlamchi tuyg'ular hayvonot dunyosiga xos bo'lib, bular ochlik, tashnalik, qorin to'ydirish kabilar. Ikkilamchi tuyg'ular esa faqat insonlarga xos, asab faoliyatiga bog'liq tuyg'ular. Ong, tafakkurdan kelib chiqadigan ijtimoiy tabiatga ega tuyg'ular: do'stlik, inoqlik, vatanparvarlik, muhabbat, hasad, rashk va hokazolar.

Biz sahna san'ati shartli san'at, dedik. San'atkor aktyor hayotiy chin tuyg'u bilan shartli haqqoniylikka erishish holatini esdan chiqarmasligi kerak. Bo'lmasa har ijroda rashk o'tida yongan Otello Dezdemonani bo'g'ib tashlayveradi, Kumushlar zahar ichib o'laveradi. Ishontirish san'ati, chinlikka erishish kechinma san'atining asosiy xislatidir. Haqiqiy tuyg'uni sahnada chorlay olish va uni jilovlay olish ham san'atdir. Bu uning psixo-fizik holatiga, tafakkur kuchiga, idrok va irodasiga bog'liqdir.

**5. Munosabat va muloqot.** Biz kundalik hayotimizda, oddiy turmush tarzimizda har bir narsaga munosabatimizni bildiramiz. Ertalab turganimizdan nimagadir ko'z tashlaymiz, nigohimizni qaratamiz. Biri yoqadi, biri yoqmaydi, nimanidir qabul qilamiz, nimanidir inkor qilamiz, biri ma'qul-u biri noma'qul. Bu holatlar biz bilgan va bilmagan holda kechadi.

Insoniyat ongli mavjudot hisoblanadi. Insonlarning bir-biri bilan munosabati, aloqadorligi, ta'siri **muloqot** shaklida kechadi. Bu mu-

**loqot** aqliy, ma'naviy, ruhiy jarayonda sodir bo'ladi. Yashash uchun kurash, o'z hukmini o'tkazish, oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirish muloqot munosabatlarini belgilaydi. Turmush tarzi, ijtimoiy hayot, atrof-muhit bu muloqotga ta'sir qiladi. Rejissor bu holatlarni hisobga olmay iloji yo'q. Ko'pincha aktyorlar sahnada shunchaki matnni muloqot qilishadi, so'zni idrok qilmay aytishadi. Aslida so'z qalbda jo bo'lishi, tug'ilishi kerak, muloqot yurakdan chiqishi lozim. Tinglash, eshitish mahorati — bu komillik, madaniyat belgisidir. «Teatrdagi til emas, vujudlar gaplashadi», — deydi mashhur rejissordan biri. Darhaqiqat, rejissor vujudlar muloqotiga erishishi, aktyor muloqot qilish haqqini qozonmog'i kerak.

Hayotning mujmal muammolari ko'p, chigal munosabatlari bisyor. San'atkor shu munosabatlarni «yo o'lish, yo qolish» tarzida hul qilishi kerak. Muloqot ma'nosi, mazmuni mana shunda. Muloqot jarayoni hamisha kurashda, to'qnashuv asnosida ro'y beradi. Muloqot kishi madaniyatiga, bilimiga, saviyasi, farosatiga bog'liq. Sahnada muloqoti, munosabatlar oddiy hayotdagi muloqot, munosabatlardan farq qiladi. Sahnada voqealar saralanadi, teranlashadi, jo'shqin kechadi, hayotning qaymog'i tomoshabin yuzini ko'radi.

Muloqotda masofa muhim rol o'ynaydi. Sirli, samimiy, ochiq-oshkora, shaxsiy, ommaviy, ijtimoiy-maishiy va hokazo holatlar. Ohang, talaffuz, aytish, so'zlash uslubi shu holatlarga bog'liq. Hayotimiz gaplashish negiziga qurilgan. Teatr asosi, o'zagi gaplashishdan iborat. Buyuk adib A.P.Chexov «ikki kishining oldiga turli maqsad qo'yib turtib sahnaga chiqaring, tortishsa shuning o'zi spektakl», degan ekan. Bemaza aktyor sahnaga chiqib birdaniga «men seni sevaman» deyishi mumkin, haqiqiy san'atkor avval ruxsoriga ruzm soladi, ko'ziga, dudoqlariga qaraydi, so'ng muhabbatini izhor qiladi. Rejissor hamisha tomoshabinni nazarda tutishi, kutilmagan munosabatlar bilan ssenariyni boyitishi kerak. Teatr san'atida **sukut** alomati muhim o'rin tutadi. So'zdan ko'ra sukut chuqur ma'noni anglatadi. Undan unumli foydalanish, rejissor rejasiga ko'ra kerakli joylarda sukut holatlariga urg'u berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avval ko'ramiz, keyin so'zlaymiz. Hayotda insonga so'z quvvati, uning ta'siri beqiyos. Ko'pincha aytilgan so'z jarohatidan ko'ra kesib olgan joyimiz tezroq bitib ketadi. So'zning ham qalbi, yuragi bor. Dildan chiqqan so'z nishonga tegadi. Aytilgan so'z otilgan o'q deyдилar-ku. Inson qiyofasi aytilgan so'z orqali ochiladi. Xarakter —

inson qiyofasi uning ma'naviy darajasini, xatti-harakatini, ehtirolarini, fazilatlarini belgilab beradi. Mana shu xislatlar aytilgan so'zda o'z ifodasini topadi. So'zning ikki qirrasini bo'ladi, biri fikr beradi, o'ylantiradi, ikkinchisi ta'sir qiladi, harakatga keltiradi. Biz aktyorlarning so'zini eshitish uchun teatrda tushmaymiz, uning tagida yotgan ma'noni, aytilmagan fikrni ilg'ash uchun tushamiz. Haqiqiy so'z mulohazalarda, iztirob va mashaqqatlarda tug'iladi. Har bir so'z bu belgi, uni san'atkor ta'birlashi, ma'nosini ochmog'i, sayqalashi kerak. Sherigingizning qulog'iga aytilgan gap, uning ko'zi va qulog'iga ta'sir qilsin, so'zning ko'lamini, hajmini ko'rsatsin, undan javobni keltirsin, sug'urib olsin. Matn, muallif matni rejissor uchun yechib beradigan bir hujjat, ashyodir. Butun ijodiy jamoa mana shu jumboq ustida bosh qotirishi, yechimini topishi, izlanishi kerak. Yozuvchi bergan holatlar zanjirida aytilishi lozim bo'lgan so'z javobgarligini, har bir ijodkor mas'ulligini his qilishi lozim ekanligini tushunib yetmog'i dardkor. Matn tahlil qilar ekanmiz, manfaatlar doirasida kelib chiqadigan to'qnashuvlarni aniqlashimiz, kurash jarayonini ochishimiz, muddaolar tagida yotgan niyat, maqsadlar so'zda o'z ifodasini topayotganini aniqlashimiz kerak.

Sherikni eshitish, tinglay olish va unga asosli, mantiqiy javob berish ham san'at. Nima sodir bo'layapti, qanday voqea, nega, nima uchun, qaysi maqsadda, nima istayapti, mana shu savollar ijodkor qalbini burmalashi kerak. Oliy maqsadni amalga oshirishda qaysi usul va yo'llardan foydalanayotganini aniqlash, unga qarshi qanday choralar va tadbirlar ko'rish — mana shularning barchasi sahnada xatti-harakat belgisini aniqlab beradi, so'z ifodasini topadi. Insonning barcha harakati zamirida fikrlash yotadi. Tinimsiz ichki fikrlash uning yashayotganidan, hayot uchun kurashayotganidan dalolat beradi.

## 6. Rejissor va rassom

Rejissurada rassom bilan ishlash eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Biz bilamiz rassomchilik san'ati ko'p asrlar tarixiga, juda katta boy madaniy va ma'naviy merosga ega. Har bir davr o'z uslubini, ifoda usulini topadi. San'atda uyg'unlik davri, barokko, rokoko, klassisizm, gotika va boshqa ko'p yo'nalishlar mavjud.

Rejissor rassom bilan ishlashda har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini, qurol-aslahalarini, kiyim-kechak, liboslarini, urf-odat-

larini, ijtimoiy hayotini chuqur o'rganishi, yaratgan har bir sahna va ekran asarida ularga e'tibor berishi lozim. Rassomning badiiy bezagi o'zining tashqi ifodasi hamda ichki teranligi bilan ajralib turishi kerak. Teatr san'atida mashhur teatr rassomlari rejissor bilan hamkorlikning ajoyib namunalari qoldirgan. Rejissor rejasi hamda rassom g'oyasining uyg'unligi yaxshi natijalarga olib keladi. Buyuk rejissorlar K.S.Stanislavskiy, V.Meyerkold, A.Tairov, N.Akimov, G.Tovstonogov, V.Lyubimovlar rassom ijodiga katta ahamiyat berishgan. Rassomlardan H.Ikromov, M.Musayev, S.Milenin, A.Riftin kabi teatr rassomlari M.Uyg'ur, T.Xo'jayev, A.Ginzburg kabi rejissorlar bilan ajoyib sahna asarlarini yaratishgan. Bunday hamkorlikning eng yaxshi namunasi sifatida rejissor Bahodir Yo'ldoshev bilan rassom Georgiy Brim ijodidan yorqin namunalarni keltirish mumkin. Bular yaratgan sahna asarlari o'zining haqiqiy uslubi, yo'nalishi bilan ajralib turadi. Spektakllari o'z kompozitsiyasi, rang va bezak uyg'unligi, maslakdoshligi bilan ajralib turadi. «Kelinlar qo'zg'oloni», «Ma'mura kampir», «Iskandar», «Qora kamar», «Maysaraning ishi» kabi qator sahna asarlari o'z plastikasi, ijro uslubi, obrazli ifodasi, talqini bilan teatr ijodining go'zal namunalari sifatida gavdalanadi. Go'yo sahna asari qushning ikki qanotidan yuzaga kelgan parvozga o'xshaydi.

Badiiy bezak uslubiyati rejissor rejasining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Rejissor rassom bilan ishlar ekan, asar negizida blqinib yotgan yagona tasviriy ifodani topishi, tashqi obrazli ifodasini asar tabiatidan qidirishi lozim. Ifodali mizansahnalar, aktyorlarning sahna ko'zgisida yuqoriga, ichkariga, oldiga joylashtirish, rejissor rejasini amalga oshirish rassomga bog'liq ekanligini unutmaslik kerak. Aktyor uchun harakat nuqtalari, maydonchalari qancha ko'p bo'lsa, ifoda imkoniyatlari shuncha kengayadi. Voqealarni qachon, qayerda kechishi rejissor va rassom talqiniga bog'liq.

Albatta rassom bilan ishlash jarayonida asar ishtirokchilarining ijtimoiy kelib chiqishi, ularning kim, qaysi tabaqadan ekanligi, liboslar ifodasi ham katta rol o'ynaydi.

Qatnashuvchilarning tutgan o'rni, yashash tarzi, o'zaro munosabatlari, urf-odatlar qaysi asnodda o'z sahna ifodasini topishi kerakligi muhim ahamiyatga ega. Qaysi rang, qaysi me'moriy uslubda spektakl yechimini, shaklini izhor qiladi? Mana shu muammolar rejissor va rassom munosabatlari orasida o'z rivojini topadi. Badiiy be-

zakni yaratishda ijodkorlarga muzeylar, kutubxonalar, suratli ko'rgazmalar, kinoxronika, matbuot, jurnal, gazeta, tasvirga olingan rasmlar yordam beradi. Bu **ikonografik materiallarni o'rganish** deyiladi. Spektaklning obrazli ifodasi, xarakteri, uslubi, voqealar kechishi, makon va zamon hamkorligi jiddiy izlanishlar natijasida o'z samarasini beradi.

Milliy akademik drama teatrida Aleksandr Ginzburg sahnalash-tirgan Muhammad Dibning «Xonadon» romani asosida «Jazoir – mening vatanim», Robindranat Tagorning «Halokat» romani asosida «Gang daryosining qizi» spektakllari, Toshxo'ja Xo'jayev rejissorligidagi Oybek romani asosida «Qutlug' qon», Morimoto Kaorining «O'g'irlangan umr», Chingiz Aytmatovning «Sarvqomat dilbarim» spektakllari rassom bilan hamkorlikda yaratilgan, o'z obrazli ifodasini topgan eng yaxshi sahna asarlaridir.

Ko'pincha rassom va rejissor hamkorligi eskiz va maketlardan boshlanadi. Kelgusi sahna asari stol atrofida maket va eskiz muhokama qilinib, o'ylangan mizansahnalar, liboslar ko'rinishi, nur bilan yoritilishi, sahnaning rang ifodasi, spektakl sur'ati kartinalarning joylashishiga bog'liqligi maket va eskizlarda o'ylab chiqiladi. Jihaz va ashyolarning joylashishi aktyor ijrosiga yordam berishi kerak. Umuman sahnadagi barcha shart-sharoit aktyorning qiyofa yaratishiga imkon tug'dirishi lozim. Pardozi andoz, kiyim-kechak, yasama jihazdan tortib haqiqiygacha, barcha-barchasi rejissor rejasining ro'yobga chiqishiga, aktyorning ijrosiga qaratilishi kerak. Rassomning barcha izlanishlari asarning **mag'zini tasvirda ifodalashga**, yechimining topilishiga qaratilishi lozim. Mo'jizakor sahnaning imkoniyati keng. Rejissor va rassom hamkorligi – mana shu imkoniyatlardan unumli foydalanib san'at asarlarini yaratishdir.

## 7. Televideniye va uning janrlari

Janr bu haqiqiy hayotni, bor voqelikni ifoda qilishda ma'lum bir qoliplar evaziga, turg'un bir belgilarga asoslangan mazmun va shakllar birligini aniqlovchi ijro, ijoddir. Har bir mavzu o'z ifoda shaklini, aniq va o'ziga xos tasvirda, ijroda ifoda vositalarini topishi kerak. Qadimdan badiiy adabiyot o'z janrlariga ega: roman, qissa, hikoya, g'azal, muxammas va h.k. Teatr san'atida asrlar davomida

janr shakllandi, maromi va ifodasini topdi. Fojea, komediya, drama, opera, balet va ularning har xil turlari paydo bo'ldi, rivojlandi.

Kino san'ati ham qisqa davr ichida o'z janrlariga ega bo'ldi. Ayniqsa tarixiy epik asarlar, dahshatli filmlar, trillerlar, komediyalar, melodrammalar paydo bo'ldi. Matbuot, televideniye, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari tufayli yangidan-yangi janrlar vujudga keldi va ommalashib ketdi. Axborot, publisistika va badiiy janrlarning xilma-xilligi, mavzuni yoritishda yondashuv, aniq nishonga olish jurnalist mahorati va rejissuraga bog'liq bo'lib qoldi. Rejissor va muallif ko'rsatuvni qanday tayyorlamog'chi, mavzuni qanday uslubda tomoshabinga yetkazmog'chi, mana shu yo'lda aniq va ravshan bir maqsadga intilmasa, mo'ljal olinmasa mujmallikka yo'l qo'yiladi. Qayerda dargumonlik bor ekan, mavhumlik mavjud ekun, tomoshabin arosatda, ijodkorlardan ma'naviy qoniqish ololmay hafsalasi pir bo'lib qolaveradi. So'nggi paytda yaxshi o'ylab topilgan anchagina loyihalarning janrlari aniq bo'lmaganligi sababli ular tezda nazardan qoldi.

Televideniye va radioda ko'rsatuvlar tarkibini uch guruhga bo'lish mumkin.

**1. Axborot janrlari.** Sodir bo'lgan voqealarni o'z holicha olib ko'rsatish, muhrlab qo'yish xususiyatlariga ega. Voqeani qisqa va to'nda tomoshabinga yetkazish, izchillik, xolislik va oshkoralik bu turkum ko'rsatuvlarning asosiy mezoni va o'ziga xosligidir («Axborot», «Yangiliklar», «Davriy», «Poytaxt» va h.k.).

**2. Publisistik janrlar.** Bu turkum ko'rsatuvlar dramaturgiya qonunlariga bo'ysungan, tayyorlanish jarayonida rejissor tomonidan mavzu bir maqsadga yo'naltirilgan, reja asosida amalga oshirilgan bo'ladi («Tahlilnoma», «Yuzma-yuz», «Inson va qonun» va h.k.).

**3. Badiiy janrlar.** Muallif tasavvurida o'ylab topilgan, rejissor tomonidan sahnalashtirilgan mavzular, loyihalar («O'talar so'zi – aqlning ko'zi», teleseriallar va h.k.)

Hayotiy voqelikni umumlashtirish, ularni tartibga solish, har xil janrlarda tomoshabinga yetkazish rejissor va jurnalistning mahorati-ga bog'liq.

Televizion janrlarning vujudga kelishi ikki manbaga asoslanadi. Birinchisi, avvalgi adabiyotdagi an'anaviy janrlarning televideniye-ga kelishi. Masalan, ocherk – adabiyotda va televideniye-da. Ikkinchisi, yangi televizion texnologiyalarning kirib kelishi tufayli pay-



do bo'lgan janrlar. Bunda texnikaning o'ziga xos xususiyatlaridan. imkoniyatlaridan foydalaniladi. Masalan, ko'chma televizion stansiyalar (reportaj, namoyish, to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatish va h.k.).

**Axborot janrlari.** Axborot janrlarida asosiy nuqtayi nazar korxonalariga, muassasalarga, ishlab chiqarish jarayonlariga, maishiy mavzularga, tadbirlarga qaratilgan bo'ladi. Voqealarni ko'rsatishdan maqsad sodir bo'lgan hodisa va jarayonlardan ommani voqif qilish. Axborotda asosiy mezon tezkorlik, to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatish. tomoshabinning voqealar shohidi bo'lishini ta'minlash.

Joylardan **reportajlar** olib borish, voqealarga **sharhlar** berish. ishtirokchilardan **intervyular** olish, **suhbatlar** uyushtirish axborot asosini tashkil qiladi.

**Sharh** — muhim voqealarga, ijtimoiy-siyosiy hodisalarga, ilmiy, madaniy-maishiy, sport mavzulariga, tadbirlariga shu soha mutaxassisining izoh berishi, ommaga tushuntirishi (kadrda, kadr ortida).

**Intervyu** — bir yoki bir necha kishi bilan jurnalistning muloqoti. Tomoshabin bu muloqotning guvohi bo'ladi. Bu yerda boshlovchi bilan suhbatdoshning bilim saviyasi, keng qamrovliligi, qiziqtiruvchi savollariga javob bera olishi, mavzuga aloqadorligi muhim ahamiyatga ega. Rejissor ham, jurnalist ham shaxs bilan ma'naviy va ruhiy aloqani o'rnatish kerak. Intervyuda samimiyat, hozirjavoblik bo'lishi shart. Kutilmaganda to'satdan tashkil qilingan muloqot tomoshabinda qiziqish uyg'otadi.

**Presskonferensiya** — ko'pchilik bilan muloqot. Bunda rejissor bilan jurnalist katta tayyorgarlik ko'rishi kerak. Mavzu ko'p qirrali, uni har tomonlama yoritish lozim. Ssenariy rejasi, uning kompozitsion tuzilishi, beriladigan savollar ko'lam, muammolar yechimi, ishtirokchilar bilan muloqot shakli rejalashtirilgan bo'lishi kerak.

**Reportaj** — sodir bo'layotgan muhim voqeani to'g'ridan-to'g'ri o'z holicha aniq va jo'shqin ko'rsatish (konsert, futbol, majlis, bayram va h.k.).

Reportaj o'z navbatida bir necha turga bo'linadi:

**1. To'g'ridan-to'g'ri reportaj** — televizion texnika vositasida biror-bir voqeani izohsiz, ijodkorning aralashuviz, ishlov bermasdan kadrlashtirib uzatish, bevosita ko'chirish, muhrlash, tayyorlash jarayoni quyidagilarni talab qiladi:

- a) mavzu va joyni tanlash;
- b) texnik imkoniyatlarni o'rganish;

d) kameralar joylashadigan nuqtalarni aniqlash;

e) voqea dasturi bilan tanishish.

Bularni amalga oshirishda rejissor bilan operatorning rejalari, fudali imkoniyatlardan foydalanishi, ruhiy mazmun berishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Voqeani to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatishda montaj jarayoni va uning talqini muhim rol o'ynaydi (tantanali majlislar, ko'rgazmalarning ochilishi, festivallar, universiadalar).

**2. Voqeyiy reportajlar.** Bu reportajlar boshlovchi-suxandon tomonidan sharhlanadi. Bunda rejissor tomonidan jurnalistga katta talablar qo'yiladi. Boshlovchining voqeadan boxabarligi, keng tushunchaga ega ekanligi, xilma-xil hujjat va manbalardan foydalanib, tomoshabinga yetkaza olishi ahamiyatli. Bunday holatlarda rejissor va operator jurnalist gaplarini ochib berishi, tasvir bilan to'ldirishi, mo'ziki tomonlarini ilg'ab olishi, unga ulgurishi muhimdir.

**3. Muammoli, tashkil qilingan reportajlar.** Bunday reportajlarda qatnashuvchilar tanlanadi, voqealar sodir bo'lish joyi aniqlanadi, oldindan tayyorgarlik rejalashtiriladi. Yozilgan ssenariyga asoslanib rejissor va muallif muammoni o'rganib chiqadi, tahlil qiladi, yechimini topadi va tomoshabinga havola qiladi. Bunday reportajlar avvaldan o'rganiladi va mashqlar qilinadi.

**Publisistik janrlar.** Bunday ko'rsatuvlarning asosini aniq hujjatlar, iluqiqiy hayotiy lavhalar tashkil etadi. Muallif-jurnalistning **munosabati** va bu voqealar talqini, uning **nuqtayi nazari** muhim hisoblanadi. Voqea hujjatlarini to'plash, ularni tanlash, qayd qilish hamda tahlil etish rejissor va jurnalist mahoratiga bog'liqdir.

## 8. Televideniye dasturlarida publisistik ko'rsatuvlarni tashkil qilish

Ommaviy axborot vositalari ichida televideniye katta rol o'ynaydi, ayniqsa so'nggi yillarda tomoshabinlar e'tiboriga havola etilayotgan badiiy, publisistik ko'rsatuvlar, hujjatli mavzularga asoslangan chiqishlar, tomoshalar televizion dasturlarning 70–80 foizini tashkil qilib, insonlarning ma'naviy kamol topishida, uning tarbiyasida katta ahamiyat kasb etmoqda. «Qishloq hayoti», «Hayot va qonun», «Tahlilnoma», «Telemuloqot», «Yuzma-yuz», «Muvozanat», «Munosabat», «Tafsilot», «Himmat», «Telemuloqot», «Gap chiq-



600 m<sup>2</sup> li studiyaning ko'rinishi.

di», «Yaxshilik» va boshqa ko'pgina ko'rsatuvlar teledasturlardan mustahkam o'rin olib, tomoshabinga namoyish qilinmoqda. Shu o'rinda ko'rsatuvlarning tayyorlanishi, efirga uzatilishi, sifati, professional darajasi, jurnalistika va rejissura ijodi qay yo'sinda kechayapti, televideniyaning qonun va qoidalariga qay darajada javob beryapti degan savollar tug'iladi. Badiiy ijodning o'z qonun-qoidalari, sir-asrorlari bo'lganidek, televizion publisistik ko'rsatuvlarda ham dramaturgiya qonun-qoidalariga, kompozitsion tuzilishiga, janriga, tiliga e'tibor berish, shu asosda sayqal berish telerejissor faoliyatiga bog'liqdir. Hozirgi paytda ko'rsatuvlarning shoshma-shosharlik bilan yuzaki, aniq rejalashtirilmagan holda tayyorlanayotganini kuzatish mumkin. Rejissor me'yoriga yetmagan, mendan ketguncha, egasiga yetguncha qabilida tasvirga tushirib, tezda efirga uzatayotgan ko'rsatuvlar, favqulodda topilgan tasvir va manzaralar efir vaqtini band qilib yotibdi. Bunga sabab, badiiy ijodda talabchanlikning susayishi, professional kadrlarning kamligi, chalasavod kadrlar ko'payib ketganligidir. Qalb qo'risiz yaratilgan, loqaydlik bilan tayyorlangan ko'rsatuvlar qanday qilib tomoshabinni larzaga solishi mumkin. Televideniye rejissurasida ijtimoiy, siyosiy-publisistik ko'rsatuvlarni tayyorlashda nimalarga ahamiyat berish kerak? Bu muammolarning yechilishida quyidagi masalalarga e'tibor berish kerak:

1. Rejissor shunchaki amaliyotchigina emas, balki **dunyoqarashi shakllangan ijodkor shaxs bo'lishi kerak**. Teatrda, kinoda haqiqiy san'at asarini yaratadigan shaxs — bu rejissor bo'lsa, televideniya ham kichik bir ko'rsatuvni haqiqiy televizion asarga aylantiruvchi — bu rejissordir. Televizion tasvir kadrlardan iborat. Har bir kadr

ma'lum bir ma'noga ega bo'lishi, mazmun kashf etishi zarur. Rejissor shaxs sifatida o'sha kadrda sayqal berishi, ko'rsatuv zalvorli kadrlardan iborat bo'lishi, bu uning dunyoqarashiga, tafakkuriga, utrok kuchiga bog'liq ekanligini unutmash kerak. Avvalambor, ko'rsatuvning **plastik yechimini** topish lozim. Nega ko'rsatuvlar bir-biriga o'xshash, bir qolipdan chiqqanday takrorlanadi, chunki har bir ko'rsatuvning o'z plastik yechimi topilmaganida, uning o'ziga xos obrazlilik talqini yetishmaganida rejissura nuqsonlarini ko'rish mumkin. Ko'rsatuvlarning ruhiy konsepsiyasi, marom tuzilishi rejissuraning asosiy negizlaridan hisoblanadi. Ko'pincha voqealarning har xil maromda kechishini, uzuq-yuluq lavhalarda ko'rish mumkin. **Marom**, sur'at, ruhiy yo'nalish, ekran obrazliliigi rejissor mahoratining asosiy omilidir. Bu omillarsiz rejissor qancha urinmasin ko'rsatuv jozibali, qiziqarli chiqmaydi. Rejissor e'tibor berishi kerak bo'lgun yana bir tomon bu **ovozlashtirish** masalasidir. Ovoz va tasvirning uyg'unligi, bir-biriga mutanosibligi, ularning ruhiy holati ko'rsatuvning shakli-shamoyilini tashkil qiladi. Ba'zan so'z bilan tasvir bir-biriga mos tushganligini kuzatamiz. Bu ham rejissura ijodining qirralaridan hisoblanadi. Qachonki so'z tasvirni to'ldirsa, tasvir so'z zahirini ochib bersa, ma'no mazmunni kashf etsa to'laqonli kadr tayyor bo'ladi va ko'rsatuv san'at asari darajasiga ko'tariladi. Kino va teatr asarlarida mana shu holatlar yuksak darajaga ko'tarilgan, televideniyaning kundalik mahsuli hali bu imkoniyatlarga erishgani yo'q. Rejissor bunga intilishi, ovoz va ohang, tasvir va so'z ifoda vositalarining yorqin holatlarini topishi kerak. Rejissor hujjatli publisistik ko'rsatuvlar ustida ishlaganida uning **saralash** qobiliyatiga e'tibor berish kerak. Saralash, did bilan saralash, voqeiylikni ochiq-oydin, aniq faktlarda ko'rsatuvchi kadrlarni saralash rejissor mahoratining qirralaridan hisoblanadi. Suratli lavhalar, arxiv hujjatlari, reproduksiyalar va boshqa materiallarning tasviriy ifodasini topish, tomoshabinga manzur bo'ladigan holatlarni qidirish rejissorlik san'atining kalitidir. O'ylangan maqsad va reja asosida ishtirokchilar bilan ishlash, me'yoriga yetkazib ekranga uzatish, ularning hamma-til avvaldan **rejissor ssenariysida** muhrlangan holda bo'lishi kerakli bo'lgun hozirgi televizion rejissuraning muammolaridan biridir.

2. Televizion rejissuraning muammolaridan yana biri bu **montaj** masalasidir. Avvalambor, montaj bu rejissorning tili, mavzuni efirga uzatish vositasi, o'z nuqtai nazarini kadrlashtirish hisoblanadi. Kino

san'atida bu uslubdan mohirona va san'atkorona foydalangan ko'p rejissorlarni bilamiz. Ular montaj san'atini yuksak darajaga ko'targan. Televideniye ham bu san'at uslubidan o'z filmlarida, ko'rsatuvlarida mohirona foydalanib kelyapti. Ayniqsa klip, roliklarning paydo bo'lishi, kompyuter texnikasining rivoji bu uslubning keng imkoniyatlarini ochib berdi. Montaj uslubining zamonaviy shakllarini keltirib chiqardi, montaj yordamida muallif va rejissor nuqtayi nazarini, fikri ifodalanib yaxlit ma'naviy ta'sirga ega bo'ldi. Lekin bu imkoniyatlardan hozirgi publisistik ko'rsatuvlarda unumli va to'g'ri foydalanilyapti deb bo'lmaydi. Ko'rsatuvni kadrlashtirish, uning kompozitsion tuzilishiga, montaj uslubiyatlariga e'tibor susaydi. izchillik, montaj sur'ati aniq maqsad yo'lida emas. Nima uchun, nega shu kadr efir yuzini ko'rayapti, uning tadrijiy rivoji, yakuni qanday, mana shu savollarga javob topa olmaysiz. Deyarli barcha ijtimoiy, siyosiy publisistik ko'rsatuvlarda shu holatni ko'rish mumkin. Bir qolipdan chiqqandek, takror va takror bir xil kadrlar, zerikarli tasvir- lar tomoshabinda befarqlik, loqaydlik uyg'otmoqda. Montaj san'ati tomoshabinni larzaga keltirishi, unda qiziqish uyg'otishi, lol qoldiri- shi kerak. Ko'pincha parallel montaj, majoziy montaj, harakatdagi montaj, kadr ichi montaji, kadrlararo montaj, kesishma montaj kabi montaj turlaridan o'rinli foydalanilmaydi. Umumiy, o'rta, yirik planlarning maxsus effektlari ishlatilmaydi. Hatto ovoz va tovush planlarining ta'sir kuchini, ohang holatlarini, so'z va so'z zamirida- gi ma'nolarni obrazli kadrlarda ochilmaydi. O'rniga sayoz va quruq kadrlarni efirga uzailadi. Televizion rejissor montaj san'atining mak- tabini o'tamas ekan, nazariyot bilan amaliyot birlashib omuxta bo'l- mas ekan, haqiqiy televizion asar yuzaga kelmaydi.

3. Yana eng muhim masalalardan biri **televizion dramaturgiya asoslarini o'zlashtirish** muammosi. Hozirgi publisistik, ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlarda ko'proq jurnalist va qahramon chiqishini intervyu, suhbat, reportaj, sharh shaklida ko'ramiz, bu mavzu dramaturgiya qonunlariga javob beradimi, yo'qmi o'ylamaymiz. Muallif bilan ish- lash, rejissorning jurnalist va boshlovchilar bilan ishlashi mavzuni ta- komiliga yetkazish eng asosiy pallalardan hisoblanadi. Har bir efir- ga chiqish fikrlar to'qnashuviga, bahslar, qarama-qarshiliklar asosiga qurilsa zerikarli bo'lmaydi, tomoshaviyligi oshadi. Har bir efirga chi- qish kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, ibtidosi, tadrijiy rivoji, in- titihosi, yechimi bo'lsagina ko'rimli bo'ladi. Televizion rejissor yakka

chiquvchilar bilan ishlaganda ham, ko'pchilik bilan ishlaganda ham inson qiyofasining xarakterli ifodasini topa bilishi, tasviriy ta'sirchanlik yo'llarini dramaturgiya qonunlari asosida izlashi kerak. **Teatr** va kino dramaturgiyasiga nisbatan televizion dramaturgiya o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini unutmaslik kerak. Televizion boshqa san'at turlariga nisbatan tomoshabinga sirdoshligini, kichik ekran san'ati insonning ichki dunyosini ochib berishini, televizionda har qanday yol'ga fosh bo'lib qolishini, ekran tilimi, dramaturgiya asoslari mana shunda ekanligini rejissor hamisha esda tutmog'i ke- rak. Agar mana shu holatlar rejissorning **ssenariysida** muhrlanmas, o'ylangan reja aks etmas ekan, ko'rsatuv televizion asarga aylan- maydi. G'oya, reja, mavzu, fikriy tortishuv, maqsad, niyat shu asosda ko'rsatuvning mag'zi nimadan iboratligini televizion rejis- sor aniq bilishi lozim. Informatsion axborot publisistikasida ham, tahliliy publisistikada ham, badiiy publisistikada ham uning aniq yo'nulishlarini ajratib olish, ocherk, portret, esse, feleton, pamflet tuzgilarini farqlay olish, reportaj, suhbat, intervyu, sharh va tahlil- larni aniq mo'ljalga olish televizion rejissorning asosiy vazifalariga kiradi. **Televizion** bu ko'rsatuvlarni qaysi tomoshabinlar auditoriya- sig'a yo'naltirayapti, ta'sir doirasi qanday, aks-sadosi bormi, ko'rsatuvning umri boqiyimi, unga tomoshabinning e'tibori yetarlimi — mana shularni **tahlil** qilishi — ijodiy guruhning mas'uliyati hisoblan- adi. «O'zbekiston» kanalining publisistik ko'rsatuvlarida **ranglar va nur** bilan ishlash, uning ifodali usullarini topish imkoniyatlarini ya- natish kerak. Hozirgi **elektron texnologiyaning**, ayniqsa **kompyuter texnikasining** cheksiz imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish maqsadga muvofiqdir. Rejissorning texnikadan o'rinsiz, bemaqsad foydalanishi natijali ko'pincha kadr ta'sirchanligi yo'qolyapti, turli libos, turli ho- lat, turli joylarda tasvirga tushirilgan klip roliklarda payvand qilinib, sayqal berilishiga qaramay rejissor oldiga qo'ygan aniq maqsad amalga oshmayapti. Bu holatlarning asosiy yechimi maktabdir. Rejissorning poydevori mustahkam bo'lmas ekan u chuqur ilm pog'onularini, ziyo zarchashmalarini, texnika sirlarini mukammal o'zlashtirmas ekan, sifatli ko'rsatuvlar chiqaveradi. Tinimsiz mehnatgina insonni komillikka yetkazadi, shaxs sifatida shakllantira- di. **Texnik** taraqqiyot ketidan quvib yetishning o'zi bo'lmaydi. O'z ustida tinimsiz ishlash, bilim va amaliyotni kundalik hayotning bosh mezonini deb bilish, sifatga e'tibor berish har bir yosh televizion re-

jissorning asosiy burchi bo'lishi lozim. Hozirgi publisistik ko'rsatuvlar rejissurasida asosiy muammolar, ularning yechim kalitlari mana shu.

## 9. Rejissor ssenariysi

*«Biz o'z g'oyalarimizning obrazli ifodasini tabiiy izhor qila olishimiz, asarlarimizda mahoratning amaliy ko'rinishlarini ko'rsata olish sir-asrorlarini egallashimiz lozim».*

Sergey Eyzenshteyn.

Boshqa san'at turlari qatori televideniye ham turmush tarzimizda mustahkam o'rin oldi. Ko'p yillik tarix va tajribaga ega bo'lgan teatr ham, kino ham televideniyesiz, uning imkoniyatlarisiz oynai jahon yuzini ko'ra olmaydi. Bu esa o'z navbatida televideniye xodimlari oldiga yuksak vazifalarni qo'yadi. Televideniye tomoshabinlarining soni boshqa san'at turlariga nisbatan beqiyos. Masalan milliy teatrimizning «Kelinlar qo'zg'oloni» spektaklini televideniya bir kechki bayram dasturida, shu teatrning 80 yil davomida sahnalashtirgan asarlarini ko'rgan tomoshabindan ko'proq muxlis ko'rar ekan. (Aytaylik, 750 o'rinli teatr dam olish kunlaridan tashqari uzluksiz spektakl qo'yganda  $750 \times 313 \times 80 = 18780000$  tomoshabin bo'lar ekan.) Bu raqamlar bilan hisoblashmasdan iloj yo'q. Har kuni million-million xonadonlarda odamlar zangori ekran atrofiga navbatdagi dasturni ko'rish uchun to'planishadi, tomosha qilishadi. Shu o'rinda ko'rsatuv mas'uliyati, tomosha sifati birinchi o'rinda bo'lishi kerak. Biz tomoshabinga **nimani** havola qilayapmiz, tayyorgarlik darajasi **qanday**, ko'rsatuv tomoshabinni o'ylantiryaptimi, kuldiryaptimi, yig'latyaptimi yoki loqayd, befarq qoldiryaptimi? Keyingi paytlarda aksariyat ko'rsatuvlar befarq qoldiryotgani aniq. Yangi-yangi loyihalar, mavzu va g'oyalar nomigagina tayyorlanib efirga uzatilyapti. Bunda rejissor va muallif malakasi, uning saviyasi alohida o'rin tutadi.

To'g'ri, teatrdagi bir spektaklga 3–4 oylab tayyorgarlik ko'riladi, katta ijodiy safarbarlik evaziga spektakl ro'yobga chiqadi. Tomoshabinga har tomonlama o'ylangan ijod mahsuli havola qilinadi. Kinofilm ham oylar mobaynida tasvirga tushiriladi, montaj qilinadi,

me'yoriga yetmagan sahnalar qayta tasvirga olinib, qo'shiladi. Ko'p chig'irliqlardan o'tgandan keyingina kinomuxlislarga havola qilinadi. Bu haqiqiy ijod jarayonidir. Talab hamma san'at turlariga birday bo'lishi kerak.

Televideniye ijodiy mahsulotlari ham bundan mustasno emas. Teatrdagi bu rejissor eksplikatsiyasi, ya'ni rejissor talqini deyiladi. Shu asarda rejissor **nima demoqchi** ekanligi o'z ifodasini topishi lozim. Kinoda ham rejissor ssenariysi mavjud. Busiz kino tasvirga olinmaydi, ishlab chiqarish jarayoniga tushirilmaydi. Rejissor rejisiga ko'p narsa bog'liq. Rejissor eksplikatsiyasini atoqli rejissorlar K.S.Stanislavskiy, V.Meyerxold, Vaxtangov, G.Tovstonogov va boshqalarning teatrdagi sahnalashtirgan spektakllarida ajoyib ibratli namunalari ko'rish mumkin. Mashhur rejissor Anatoliy Efros Lermontovning «Zamonamiz qahramoni» romani asosida film suratga olishni rejalashtiradi. Rejaga ko'ra Pechorin – yolg'iz, notavon, boshqa davrda tug'ilib qolgan inson. «Bu zamonga men ortiqchaman» fikri-zikri butun film davomida qizil ip bo'lib o'tadi. Yoki «Gamlet» fojeasida «Daniya zindon» rejasi butun spektaklni qamrab olgan.

Kinoda rejissor rejasi alohida o'rin tutadi. S.Eyzenshteyn, A.Dovjenko, S.Yutkevich, M.Romm va boshqalar kinorejissurada rejaning katta ahamiyatga ega ekanligini qayd qilishgan. Bironta film rejasiz yaratilmaydi.

Televideniya ham rejissor rejasi, uning asosida qilingan rejissor ssenariysi davr ehtiyoji bilan hamohang bo'lishi kerak. Demak, televideniya ham ijodning zarur bo'lgan mana shu jarayoni o'z o'rnini topishi, kundalik ish tarziga aylanishi kerak. Ayrimlar 24 soat efirga mahsulot uzatishning o'zi bo'ladimi, yana bir necha kanalda, deyishi mumkin. Ko'rsatuv davomiyligidan qat'iy nazar, ijodga bo'lgan talab mezoni bitta bo'lishi kerak. Ko'pincha muallif va rejissor o'z ijodini, ko'rsatuv tayyorlashni tasvirga olish maydonchasidan boshlashadi. Bunda pala-partish tasvirga tushirib, montaj holatida rejalashtirib, keyin loyiha qog'ozga tushiriladi, ssenariy yoziladi. Ijodiy jarayonga teskari yondashiladi. Aslida buning aksi – muallif tayyorlagan ssenariy asosida rejissor kadrlashtirgan, ijodiy izlanishlar natijasida o'ylab topilgan tasvirlar asosida **rejissor ssenariysi** kadra-kadr tasvirga tushirilishi lozim. Shundagina har bir ko'rsatuv tomoshabinga ijobiy ta'sir qiladi, ma'naviy ozuqa beradi.

Teatr va kino singari kichik ekran san'ati ham o'z ifoda usullari bilan tomoshabin qalbiga yo'l topishi, nazariga tushishi uchun haqiqiy san'at asarlarini yaratish kerak, bu esa **rejissor ssenariysiga** bog'liqdir. O'z navbatida ssenariyning to'laqonli ko'rsatuv bo'lishi o'ziga xos uslubga egaligi televizion rejissor mahoratiga bog'liq. Rejissor va muallifning birgalikdagi izlanishlari muvaffaqiyat garovidir. Televizion rejissor teatr va kinoning boy tajribasini sinchkovlik bilan o'rganib, uning eng yaxshi an'alarini, xislatlarini kichik ekranda o'ziga xos uslubda davom ettirishi kerak. Teatr va kino uslubiyati izlanishlarini ko'r-ko'rona ko'chirish emas, televideniye o'z qonun va qoidalarini, sir-asrorlarini yuzaga chiqarish, yangi san'at darajasiga ko'tarish ijodkorlarning mahoratiga bog'liq. To'g'ri, kino ham dastlab paydo bo'lgan paytlarda montaj, yirik plan, ovoz, tasvirga olish texnikalari kamchiliklaridan xoli emas edi. Faqat yillar o'tib u san'at sifatida shakllandi. Kino qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishdi, eng ommaviy san'at turiga aylandi. Televideniye ham mana shu davrni boshdan kechirdi. Sodda, o'ta jo'n texnikaviy imkoniyatlardan qisqa vaqt ichida eng murakkab jarayonlarda foydalanishga erishdi, ommaviy axborot vositalari ichida eng peshqadami bo'ldi. Montajning elektron uslublari topildi, kompyuter texnologiyasi va Internet tarmog'idan foydalanila boshlandi. Kino ham, teatr ham televideniye imkoniyatlaridan foydalana boshladi. Bu vaziyatda ijodkorlardan yuksak mahorat darajasi talab qilinadi.

Televideniye san'at bo'lib taraqqiy topishida rejissor mahorati asosiy o'rinlardan birini egallaydi. U ijodning ma'lum tartiblaridan foydalanibgina qolmay, hayotning murakkab tomonlarini ilg'ashi, ijod zahmatining serqirra ekanligini, uning iztiroblarini his qila bilishi kerak. Ssenariydan to'laqon bo'lgan yo'l uzoq, mashaqqatli bo'lib, bunda asar qahramonlari rejissorning o'tkir nigohi bilangina nafis, jonli qiyofaga aylanishi kerak. Rejissor-san'atkorina muallif o'ylagan ssenariy — loyihaning chuqur talqini, yorqin ifodasini topa oladi. Adabiy ssenariyning g'oyaviy yo'nalishi, mazmuni, obrazlari, ziddiyatlari, uslubiy va janr xususiyatlarini chuqur o'rganish va anglash natijasidagina **rejissor rejisi** tug'iladi. Rejissor rejasini ro'yobga chiqarish natijasida **rejissor ssenariysi** paydo bo'ladi. Mashhur kinorejissor Sergey Yutkevich «Rejissorning kontrapunkti» kitobida: «Rejissor rejasining rang-



«Mehrobdan chayon» videofilmining montaj jarayoni.

barangligi bu mizansahnalarga, filmning nafis ifodaviy ko'rinishlariga, inson bilan ishlay olishiga, inson ichki tabiatini, nozik kuzatuvchanligini bilishi, ustozning donoligi, sabr-toqati va irodasiga bog'liqligidadir», degan edi.

Darhaqiqat, rejissorning dunyoqarashi, davr, zamon ruhini chuqur va aniq anglay olishi, yuksak g'oyaviy yo'nalishi rejissor rejasiga kiradi. Rejissor rejasining sayozligi tufayli paydo bo'lgan ko'rsatuvlarga tomoshabinlar befarq bo'lib qolaveradi. Haqiqiy mahoratning yo'qligidan ayrim rejissorlar muallif fikrini buzib ko'rsatadilar, noto'g'ri urg'u beradilar, natijada siyqa, ko'rimsiz, quruq gapdan iborat asar yaratiladi. Demak, rejissor rejasidan rejissor ssenariysi paydo bo'lar ekan.

Mashhur adib A.Qodiriyning «Mehrobdan chayon» asarining televizion talqinida aksariyat qahramonlar nafs bandalaridir. Ularning har bir xatti-harakati, muomalasi, bir-biriga bo'lgan munosabatlarining dastlabki lahzaridayoq buni ilg'ash mumkin. Bunda Solih Mahdum uchragan odamni o'z maktabiga moyil qilishi, uy ishlarida arzimagan narsalarga ham aralasheverishi, qurumsoqligi, qizi Ra'noni ardoqlashdan maqsad, kelgusida huzur-halovatda yashash ekanligi va boshqalarda nafs yo'lida qilingan kirdikorlarni ko'rish mumkin. Bu holat boshqa qahramonlarda ham mavjud. 1-jadvalda rejissor ssenariysining ayrim sahnalarini keltiramiz.

## «Mehrobdan chayon» televizion serialining rejissor ssenariysidan lavhalar (1-qism)

T/r	Kadr hajmi	Tasvirlar mazmuni	Muallif matni	Musiqa, ovozlar	Suratga olinadigan joy
1	2	3	4	5	6
14	15 s. O'P.	O'z ishi bilan ketayotgan kishilar, tahsildan qaytayotgan mullavachalar... Yopinchiqli xotin-xalaj. Ot mingan mirshab... Yaxshi kiyingan bek bolasi. Bola qo'l qovushtirib Mahdumga salom beradi.	Maxdum: — Vaalaykum. Nusratbekning o'g'illari bo'l-salar kerak- a? Bola: — Shundoq taqsir! Maxdum: — Habba, Men darhol fahmladim-da. Dangiz xo'p salomatmilar? Bola: — Shukur.		
16	10 s. O'P.				Ko'cha.
17	10 s. UP.	Ular yurishda davom etadi.			G'isht ko'prik.

1	2	3	4	5	6
18	10 s. YP.		Maxdum: — Maxdum poch-cham duo qildilar deng. Bola: — Xo'p bo'ladi, taqsir. Maxdum: — Xo'sh, o'qishingiz durustmi? Bola: — Birmiyon. Maxdum: — Ilimi qofiya o'qing'oningiz bormi? Bola: — Yo'q. Maxdum: — Hoy... Forsiy nahvu sarf? Bola: — Yo'q... Maxdum: — Sizda ayb yo'q, o'g'lim, ustozingiz biroz shundayroq odam... Xo'b, xo'b, bizning maktablarga ham kelib turing!		
19	15 s. YP.				
20	15 s. O'P.				G'isht ko'prik.
21	10 s. UP.	Ular xayrlashib yo'lida davom etadi. Kamera uzoqlashayotgan Maxdumni, o'tkinchilarni bir-bir kuzatadi. Kitob qo'ltiqlagan mullavachalar o'tib boradi.			

1	2	3	4	5	6
22	20 s. O'P.	Bir otliq a'yon Maxdumga yaqinlashib keladi. Ular tenglashib barobar yura boshlaydilar. Kame- ra ular bilan birga jiladi. Ikkovi o'zaro suhbatla- shadilar.	A'yon: — Haytovur, o'g'limiz- ning tahsilidan ko'nglimiz to'lmay turibdi-da, taqdir. Maxdum: — Habba... Dom- lasi mulla Fayzullohmi? Ko'b bolalarning umrini zay'i qilayabdi, deb eshita- man... Shogirdlaridan bir nechasi shikoyat qilishib menga ke- lishkan edilar... Qanday qi- lay, shogirdlarim o'zimdani yetib ortisalar ham umrlari za'yi bo'lmasin, dedim. Xayr, bizning maktabga yuborsin- lar, bajonidil xizmatlarida bo'lamiz.		«Hokim oyi» mad- rasasining oldi.
23	10 s. UP.				
24	15 s. UP.	Ular yo'lida davom eta- di. Kamera har xil plan- da ularni kuzatadi. Bir necha mullavachchalar Maxdumga salom berib o'tadilar. Maxdum alik olib, otliq bilan xayrla- shib yo'lakka buriladi.		Musiqqa	

1	2	3	4	5	6	
25	20 s. UP.	Maxdum hovlisiga yetib keladi. Mo'jzagina qo'sh tavaqali eshik. Maxdum ichkari kiradi. Kamera hovli bo'lmalarini bir-bir ko'zdan kechiradi. Mul- lavachchalar tahsil ko'ra- digan joy, mehmonxona, mashqxonona, daraxtlar, tok so'rilar, supa... Yoz gullari, rayhon, boshqa chechaklar... Gulli kigiz, ko'rpachalar to'shalgan, ayvon... Husnixat mashq qilib o'tiruvchi bolalar... Ayyonda Nigoroyim be- shikdagi bolasini emiz- yapti. Hovli chekkasidan ariq o'tgan. Suv bo'yida Ra'no hamda ukalari foy o'yini bilan mashg'ul. Ular foy- ga belangan.				Hovli.
26	5 s. YP.					
27	10 s. YP.					
28	15 s. UP.					

1	2	3	4	5	6
29	5 s. YP.	Maxdum qo'lida tuguni bilan hovlining o'rtasiga kelib ularni ancha kuza-tadi.			
30	5 s. O'P.	Ra'no o'yin bilan ovo-ra... Kamera uni har xil holatda kuzatadi.	Maxdum: — Balli, Ra'no, ana jinnilik! Atlas ko'ylak senga hayf, senga bo'zdan boshqasi albatta hayf!		
31	10 s. YP.				
32	5 s. YP.	Ra'no o'rnidan turib, uyaliq loy qo'llarini or-qasiga yashiradi.	Maxdum: — Uyat emasmi, yuv qo'lingni, yuv! Ukala-ringni bola desam, sen ular-dan ham oshib tushasan.		
33	15 s. O'P.		Ishing bo'lmasa, kitob o'qi, husnixat ol. Sen kulolning qizi emassanki...		
34	10 s. UP.	Ra'no qo'lini yuvгани yuguradi. Maxdum go'sht-ni ayvonga qo'yib, zina-dan chiqqa boshlaydi.	Nigor: — Ra'noning aqli tushsin...		

1	2	3	4	5	6
35	5 s. YP.				
36	5 s. O'P.		Nigor: — Go'shtni ko'proq olib-sizmi? Anvar buyurganmidi? Maxdum: — Yo'q. Bir manti qi-laylik dedim. Manti yeganimiz-ga ko'p bo'ldi, vallohia'lam...		
37	20 s. O'P.	Ra'no yuviniq kelib dada-siga uyaliq qaraydi. Be-shikdagi ukasining mitti qo'llarini suyub o'padi. Maxdum hamon tik turibdi.			
38	15 s. O'P.		Maxdum: — Sen mundan ke-yin kichkina bo'lmasan, qizim Ra'no. Shu ukalaring bila qilib o'tirgan ishingni kishi ko'rsa nima deydi? Inshoolloh, uy egasi bo'lishga yaqinlashib qolding. Endi tosh-tarozini ham shunga qarab qo'yishing kerak, qizim.		
39	5 s. YP.	Ra'no qizarib onasiga qaraydi.			
40	10 s. YP.		Nigor: — Ra'noni egasiga top-shirmagunimizcha quyul-maydig'onga o'xshaydi.		
41	5 s. YP.	Ra'no uyaliq beshikka biqinib oladi.			



Shunday qilib adabiy asosdagi matn televizion tasviriy ifodasini, ruhiy plastik holatini, obrazli jonli qiyofasini topdi. «Mehrobdan chayon» filmi bilan televizion talqin orasidagi tafovut katta. Rejissor Yo'ldosh A'zamov filmida Anvar va Ra'no muhabbatiga urg'u berilgan. Televizion serialda muallif matnini buzmaganda holda izchillik bilan ijtimoiy tuzum, tahlikali zamon, nafs qurbonlari o'z holiha yoritildi. Asar kompozitsiya jihatidan vazmin, bosiq, bamaylixotir tasvir ifodasini topishi kerak edi. Har bir seriya 45 minutdan iborat bo'lib asar 15 qismga jamlandi. Rejissor kichik ekran san'ati imkoniyatlarini hisobga olgan holda asosan yirik planda ishlashga harakat qilgan. Rejissor ssenariy yaratish jarayonida mizansahnalarni, xatti-harakatlarni teleekran imkoniyatlari chegaralanganini hisobga olishi, kadrlashtirishni chuqur o'ylab, tasvirga tushirish maydonchasing shart-sharoitidan kelib chiqqan holda ishlashi lozim. Biz bilamiz, teatr mizansahnalari zalda o'tirgan tomoshabin uchun mo'ljallangan, uning hayajonli, ifodali holatlari avansahnaga olib chiqish, aktyorlarni har xil joylashtirish bilan cheklanadi. Kinoda imkoniyatlar katta. Tabiatning cheksiz manzaralaridan, to yirik plandagi qiyofagacha ko'rsatish mumkin. Oynayi jahon esa shu imkoniyatlardan foydalangan holda kadrlarni faqat inson atrofiga, uning yirik planlariga, detallarga qaratishi lozim bo'ladi. Cheksiz umumiy planlar teleekranda kutilgan natijani bermaydi. Masalan, jang sahnalari, namoyishlar katta ekranga nisbatan kichik ekranda qo'g'irchoqqa o'xshab qoladi. Ruhii ta'siri boshqacha chiqadi. Demak rejissor ssenariy yozayotganda mana shu xususiyatlarni hisobga olishi kerak. Yaratilgan kadrlar kompozitsiyasi tomoshabin nigohini chalg'itmaydigan, voqea holatiga qaratilgan bo'lishi lozim, bu esa rejissor did-farosatiga, aql-idrokiga, fahmiga bog'liq. Ijrochilarning aniq va ravshan joylashishi, mizansahnalarni kadrlashtirish asosidir. Yana «Mehrobdan chayon» videofilmiga murojaat qilamiz (2-jadval).

Rejissor rejasi asosida ssenariy yaratishda tasvirchi-operator va rassom bilan hamkorklik alohida ahamiyatga ega. Asar studiya maydonchasini maqsadga muvofiq rejalashtirish, dekoratsiya va detallarni saralash, rang-tasvir ifodalarini topish, avvaldan chuqur o'ylash va izlanish natijasida yaratiladi. Ifodali detal, aniq his qilingan ruhiyat, to'g'ri topilgan yirik plan rassom va tasvirchi-operator san'atiga bog'liq. Voqea qayerda va qachon sodir bo'layotganligi mana shu holatlarda ayon bo'ladi.

2-jadval  
«Mehrobdan chayon» televizion serialining rejissor ssenariysidan lavhalar (2-qism)

T/r	Kadr hajmi	Tasvirlar mazmuni	Muallif matni	Musiqqa, ovozlilar	Suratga olinadigan joy
1	2	3	4	5	6
100	5 s. O'P.	Anvar birinchi maoshni olgan, ko'chada xursand ketmoqda.			
101	5 s. UP.	Anvar hovlida yetti tillo-sini Maxdumga topshir-moqda.			
102	5 s. YP.	Maxdumning og'zidan tanobi qochgan.	Maxdum: — Xabba... Hosi-ling durust Anvar. Bolam, le-kin pulga ehtiyot bo'l, bo'-tam!		Hovli.
103	10 s. UP.	Ertasi kuni. Anvar ishdan qaytib libos almashtir-yapti. Maxdum unga ya-qinlashadi.			
104	10 s. YP.		Maxdum: — Ana shu yerga senga atab bir uy, bir ayvon, oshxonasi va axtaxonasi bilan imorat solsam, deyman... Xabba, Anvar?!		

1	2	3	4	5	6
105	10 s. YP.		Anvar: — Imoratqa elik tildan kam pul yetmaydi. Manim bo'lsa bir pulim yo'q. Bo'lading'oni ham fo-tiha berguningizgacha albatta sizniki va oyimlarniki. Maxdum: — Xabba... him-matingga! Albaitta-ku, shunday va lekin o'sha niyatla-ringdan keyin boyagidek alo-hida pul yig'sang deyman-da... Albatta bu gap uch-to'rt yilsiz emas-da. Ra'no!		
106	10 s. O'P.				
107	5 s. UP.	Ularning oldiga Ra'no yaqinlashadi.			
108	10 s. O'P.		Maxdum: — Xabba... Mana shu yerga Anvar akangga uy qurib beramiz, Ra'no. Bu yer senga qalay o'xshaydur, qizim?		
109	5 s. YP.		Ra'no: — Anvar akamni yoq-tiradurg'on mehmonxonasi bor-ku.		
110	15 s. O'P.		Maxdum: — He-he-he, bolasan, qizim, bolasan. Anvar akang tokay mehmonxonada yotadi deysan. Axir bir kun uylanadi, bamisoli sen bo'lsang erga tegasan. Axir uy kerak-da qizim.		

1	2	3	4	5	6
111	5 s. UP.	Ra'no uyaliib, achchiq qilganday uyga kirib keltadi. Anvar qizargan.			
112	5 s. UP.	Nigoroym ishdan qaytgan Anvarga dasturxon yozmoqda.			
113	5 s. YP.	Qotib qolgan non, suyuq osh keltiradi. Anvar o'tirib ovqat yeya boshlaydi.			
114	10 s. YP.		Nigoroym: — Hamma pulingni domlangga chakki beribsan, Anvar. Ust-boshingni, ko'rpa-yosting'ingni, ortib qolsa Ra'no ukangning us-tini tuzatishing kerak edi. Domlang tuflab tugishdan boshqani koshki bilsa...	Musiqqa.	
115	5 s. UP.	Anvar ish bilan mashg'ul.			
116	5 s. O'P.	Rajabbek Anvardan sinov olmoqda.			
117	5 s. O'P.	Anvar, Ra'no qadimiy kitoblarni ko'zdan ke-chirmoqda.			
118	5 s. UP.	Anvar maosh olgan, ko'chada o'rkinchilarga sa-lom berib kelmogda.			

1	2	3	4	5	6
119	10 s.YP.	Anvar olgan maoshini Maxdumga bermoqda.	Anvar: — Agar ijozat bersangiz, shu uch tilloga uyga kiyim-kechak olsam degan edim... Maxdum: — Shu ish chakkida, bolam. Naqdina tilloni bemaza ovqatlarga, kiyim-kechak degan moyu-yà nìlarga sarf qilish kufromi nìmat. Xayr bundan so'ng shu noma'qulchilik bo'lmasin! Dunyo degan ko'p noyob narsa, kishining bir kuni bo'lsa yig'lab-sixtab o'tib ketaveradir. Illo zar qadriga yetish kerak...		Hovli.
121	10 s.YP.	Anvar bosh irg'aydi.			
122	5 s. UP.	Bahor. Anvar bilan Ra'no gullar orasida. Ular gullar chamaniga mahliyo.	Ra'no: — Yerga yog'lar to'kilsa, yotib yalar taqsimim, Bo'lsa bozorda pastlik, sotib olar taqsimim. Menim uchun bir zirak.	Musiqa.	Hovli.
123	20 s. O'P.				

1	2	3	4	5	6
124	5 s. UP.	Ular xandon otib kullishadi.	Ra'nobonuga jevak, Desa oyim «Ne kerak?» — yummalalar taqsimim.		
125	5 s. UP.	Anvar yo'lakdan yurib kelmoqda.	Quloq teshish fazi emas, pulni topish hazl emas, Jevak taqish farzmas! g'avg'o solar taqsimim.		
126	5 s. O'P.	Qayrag'och tagida parandji yopingan ayol uning yo'limi to'sadi.			
127	10 s.YP.				
128	15 s.YP.		Nodira: — Pochchang bizning hovliga kelib tursin, o'zim uylantirib qo'yaman, deya bdi. Anvar: — Opa, domlam javob bermaguncha bu uydan ketolmayman. Pochchangga borib ayting, qo'limdan kelganicha yordam berib tura-man.		
129	5 s. UP.	Anvar yo'lida davom etadi.			
130	5 s. UP.	Maxdum bolalarga dars berayapti.		Musiqa.	

Masalan, panjara ortidagi Qodiriy (qamoq holati), mash'ala fonida Shoh Edip, qurigan daraxtda bitta yaproq, kitob ichidagi unutilgan gul, osilib turgan dor va hokazo. Aniq topilgan detal, uyg'unlashib ketgan ovoz ko'p sarf-xarajat qilib olingan kinodan ko'ra kichik ekranda ishonchliroq chiqadi. Bunda rejissorning aniq va o'tkir nigohi, didi va me'yorni his qilish xislati katta rol o'ynaydi. Kinodagidek televideniye ham yolg'onni yoqtirmaydi. O'ylab topilgan har bir detal rost va ishonarli bo'lishi kerak. Voqea kechmish joy to'laqonli ifodali chiqsin. Bunda rejissor ssenariyni rassom, tasvirchi-operator bilan hamkorlikda yaratishi kerak. Makonda dekoratsiya ifodasini topish yaratilayotgan spektakl ifodasini topish demakdir, kadr kompozitsiyasining tuzilishi montaj qurilmasining asosidir. Bular rejissor ssenariysining tashqi tomoshaviy ifodasidir. Rejissor ssenariysining yana muhim jihatlaridan biri asarning musiqali va ovoz partiturasini ishlab chiqishdir. Ovoz va ohang kerakli kayfiyatni tug'diribgina qolmay montaj jarayoniga, kadrlashtirish holatlariga ham xizmat qiladi, yordam beradi. Rejissor ssenariysida ovoz va ohangga ham e'tibor berish, uni hisobga olish spektakl yoki ko'rsatuvda ruhiy ta'sirni kuchaytiradi. Rejissor ssenariysini yozish jarayonida tasvirchi-operator hamda rassom bilan hamkorlikda, keyinchalik aktyorlar bilan bo'lgan muloqotda ma'lum bir tuzatishlarni kiritadi. Rejissor rahbarlik qilayotgan butun ijodiy guruh bilan o'z rejasini rejissor ssenariysi asosida amalga oshiradi. Televideniye san'atining muvaffaqiyati, rivoji va ravnaqi garovi rejissor ssenariysining negizidadir.

### 10. Milliy teleserial va uning ilk tajribalari

Televideniye paydo bo'lishi bilan san'at olamida yangi janr — televizion dramaturgiya paydo bo'ldi. Umuman dramaturgiyaga yangiliklar kirib keldi. Teatrning bir necha seriyalik spektaklini, seriallarini bilmaymiz. Ko'p bo'lsa ikki kun qo'yiladi. Masalan, ikki qismli spektakl, ba'zida 3 qismli spektakllar ishlangan. Tomoshabinlar ikki yoki uch kun spektaklga kelishgan. Ma'lum bir darajada teatr spektakli 2–3 seriyadan oshmagan. Masalan, kinolarni olsak ular ham ikki qismdan iborat bo'lgan. Ko'p seriyaali kinolar dastlab Yaponiya, Hindistonda olingan.

Ko'p seriyali Meksika, Argentina, Braziliya, umuman Janubiy Amerikaning seriallari («Sovun ko'pigi» deyishadi)ni maza qilib tomosha qilamiz. Masalan, «Santa Barbara», «Izaura», «Oddiy Mariya», «Gvadalupe», «Oshin», «Mahobxorat», «Qish ertagi», «Saroy javohiri» kabi televizion seriallarning ajoyib namunalari paydo bo'ldi. Har bir mamlakat o'z tarixi, o'tmishi, urf-odatlariga haqida serial yaratmoqda. Ko'p qismli televizion asar yaratish, har kech tomoshabinni zangori ekranga muhrlab qo'yishi odat tusiga kirdi. Ko'p mamlakatlar bunga katta ahamiyat bermoqda. Aslini olganda serial yaratish xalqimizda qadimda boshlangan. «Ming bir kecha», «Go'r-o'g'li», «Alpomish» dostonlari, «Nasriddin afandi sarguzastlari» kabi asarlar ham serial, faqat bular adabiyot, xalq og'zaki ijodining ajoyib seriallari hisoblanadi. Teatr va kino san'ati televideniye bilan hamkorlikda o'zbek xalqining necha yillik orzu-armonlarini ro'yobga chiqardi. O'zimizning milliy seriallar oynayi jahonda namoyish etila boshladi. Bu seriallardan aksariyat tomoshabin ma'naviy ozuqa olmoqda, hayoti, turmush tarzida xulosa chiqarmoqda. Mavzu qanchalik ko'p bo'lsa, mazmunga boy, inson dilidagi gaplarni ayta olsa, o'sha filmni butun oila miriqib tomosha qiladi.

1995-yillarda televideniye yozuvchi Ahmad A'zam bosh muharrir lavozimiga tayinlanadi. U teledramaturg va rejissorlarni to'plab, «Biz nega o'zbek seriallarini yarata olmaymiz, o'zbek dramaturgiyasida nega serial asar yo'q» degan fikrni o'rta tashlaydi. Kinodramaturg Rixsivoy Muhammadjonov, rejissorlar Meli Mahkamov, Mahkam Mahametov, Mashrab Boboyev, Haybat Aliyev va Sharof Boshbekovlar bilan ochiq muloqot olib boradi. Shunda o'zbek serialini yaratish xususida dastlabki rejalar tuziladi. O'zbekiston televideniyesida yaratiladigan seriallarni Braziliya, Meksika seriallari kabi maishiy mavzular, oilaning ichki kechinmalari, shahvoniy holatlar aks etgan g'arb davlatlari seriallariga o'xshash emas, balki sharqona, milliy, o'zbekona qilib olishga kelishildi. O'zbek seriali 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan tomoshabinlarga mo'ljallangan, dramaturgiya qonunlariga xos bo'lishi kerak.

O'zbekiston televideniyesida birinchi marta suratga olingan «Ko'ngil ko'chalari» serialida bir o'zbek oilasi misol qilib olingan, voqealar o'zbek oilasining turmush tarzi, keksalarning hayoti, mahallada yuz berayotgan voqealar, oilaning buzilishi, farzand tarbiyasi va hayotdagi turli muammoli vaziyatlarni tomoshabin hukmiga havola qilinishi maqsad qilib olindi.



«Ko'ngil ko'chalari»  
videoseriالىning  
ijodkorlari.

«Ko'ngil ko'chalari»... Haqiqatdan ham inson zotining ko'ngli keng bo'ladi. Har xil ko'chaga kirishni xohlaydi. Insonning kirmagan ko'chasi yo'q, adashadi, qoqiladi, har xil so'qmoqlardan yuradi. Inson hayoti har xil kechinmalardan iborat. Mana shu kechinmalarni bir oilaning taqdiriga bog'lab Mashrab Boboyev «Ko'ngil ko'chalari» serialini tayyorladi. Bu serial ijodkorlari fidoyilik bilan ish boshlashdi. Serialga umuman ekranda ko'rinmagan aktyorlar kerak, degan fikrga kelinib, hali elga tanilmagan, sahnada ko'p ko'rinmagan san'atkorlarni taklif qilindi. Televideniye san'ati yangi qiyofa, yangi ijrochilarni yaxshi ko'radi. Tomoshabinga tanilmagan aktyorlar ma'qul tushadi. Aks holda u san'atkor, tomoshabinning «Yana o'sha o'ynabdi» degan so'zlarini eshitib, el nazaridan qolishi hech gap emas.

Serial ijodkorlari dastlab asar nima bilan boshlanishi, oqibati nima bilan tugashini bilmas edilar. Asarda bir oilada bir nechta farzand, sho'ro davrida katta lavozimda ishlagan kommunistning qismati, uning hayotda yo'l qo'yan xatolari, xotin ustiga yana xotin olishi kabi qator voqealar aks ettiriladi. O'zi Bekobodda rahbarlik lavozimida ishlab xotini, bola-chaqasi Toshkentda qolgan holda ba'zi bir sabablarga ko'ra boshqa bir ayolga uylanadi, qiz ko'radi, bu qiz oqibatda voyaga yetib, otaning katta lavozimda ishlaydigan o'g'li bilan tanishib qoladi, taqdir taqozosi tufayli munosabatlar chuqurlashadi. Ular aka-singil ekanligini bilmaydi. Chunki ota birinchi oilasiga bu sirni oshkor qilmagan. Musulmonchilikda aslida uzoq muddat safarda bo'lgan kishi bo'lsa kimnidir nikohiga olishi, undan

farzand ko'rishi, keyinchalik ular bilan bordi-keldi qilishi mumkin. Aka bilan singil o'rtasidagi munosabat sho'ro davrida bo'lib o'tgan son-sanoqsiz hikoyalardan biridir. Shahvoniy munosabat esa aqlga sig'maydigan holatdir. «Ko'ngil ko'chalari» dagi mavzuning teranligi, kutilmagan munosabatlar, gunohi azimning oqibatlari nimalarga olib kelishi mumkinligi, bir oila boshiga tushgan kulfatlar tomoshabinni qiziqtirib qo'ydi. Bir egri qadam tufayli, xiyonat tufayli xonadon a'zolari hayotning katta sinovlaridan o'tadi. Ulardan omad yuz o'giradi: biri esdan og'adi, biri vazifasidan bo'shatiladi, biri qamaladi. Xullas barchasi tegishli jazosini oladi. Qahramonlar butun film davomida o'z-o'zini jazolaydi, vijdon azobida qoladi. Bu teleserialda voqealar nihoyasiga yetmagan bo'lsa-da, asar qahramonlari Al-Buxoriy maqbarasiga ziyorat qilib, qilgan gunohlarini yuvish il-tijosi bilan, iymonga, e'tiqodga sadoqat bilan film yakun topadi.

«Ko'ngil ko'chalari» teleseriali 51 qismda to'xtab qoldi. U yana bir necha fasl davom etib, keyin yakun topishi kerak edi. Shunday bo'lsa ham ikkinchi fasl tavba tazarru bilan tugadi. Televizion dramaturgiyani milliy qilib olishga bizda ham katta imkon bor ekanligiga ishonch hosil qildik. Aslida serialni ovozlashtirish, pardoz-undozi qilish, qisqartirish kerak edi, ammo ijodkorlar bunga ulgurishmadi. Haqiqiy naturada ketgan serial efirga yetkazib berildi, xolos.

Bu asar Mashrab Boboyevning dramaturg sifatida o'zbekona, milliy hayotimizga oid voqealarni, muammolarni ko'tarib chiqishi uning dramaturgiya sohasida qilgan katta jasoratidir.

Dramaturg Sharof Boshbekov «Charxpalak» videofilmida boshqa mavzuga qo'l urdi. U lo'li qiz hayotini, uning hayot charxpalagi atrofidagi qismatini yoritdi. Kinorejissor Y.Roziqov «Domla» serialini oxiriga yetkazmadi.

Tomoshabinlar kutayotgan asarlar ko'p. Alloma, yozuvchilari-miz, adiblarimiz yozib qoldirgan asarlar televizor ekranida ko'rilsa, kinolar sifatida chiqsa, bu nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Maktab o'qituvchilari ham, yosh tomoshabinlar ham mana shunday adabiyotlardan bahramand bo'lishlari kerak. Romanchiligimizning butun dunyo tan olgan ajoyib namunalari «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi asarlar zangori ekranda serial sifatida o'z ifodasini topishi kerak. Yangi avlodlar bu asarlar bilan qayta tanishishlari lozim. Mashhur rejissor Yo'ldosh A'zamov yaratgan filmlar butun bir asarni boricha qamrab ololmagan, asarning ba'zi joylarinigina olgan

xolos. U paytlarda hatto ikki qismli kino olishga ham ruxsat berilmagan. «O'tgan kunlar»dagi voqealik bir qismga sig'mas edi. Shuning uchun ko'p voqealar aks ettirilmagan. Dramaturg M.Mahametov, Xayriddin Sultonovga «Mehrobdan chayon» asarini televizion serial qilish niyati borligini bildiradi. Ular birgalikda Abdulla Qodiriyning o'g'li Ma'sud akaning oldiga borishadi. Tez fursatda asarning 15 qismiga ssenariy yoziladi. Lekin XIX asr ikkinchi yarmidagi Qo'qon xonligi muhitini o'rganish, tarixiy haqiqatga yaqinlashish murakkab kechdi. Bosh rollarni ijro etuvchilarni tanlash qiyin bo'ldi. Qahramonlarni Farg'ona universiteti, Qo'qondagi kollejar, San'at institutidan qidirildi. 20–30 ta aktyor ko'rikdan o'tkazilib, oxiri tasvirda ifoda etilgan qahramonlar tanlandi. Ijodkorlar bir narsani oliy maqsad qilib qo'ydilar, ya'ni rejissor Yo'ldosh A'zamov kinoda yorita olmagan xonlik saroyidagi chirkin muhitni, nafs bandalarini, milliy muhabbat iztiroblarini bezab, bo'yamay boricha ko'rsatishga, yozuvchining bironta so'zini chetda qoldirmaslikka harakat qildilar. Asar nima uchun «Mehrobdan chayon» deb ataladi? Qodiriyning mohirligi, adabiyotimizning ajoyib namoyandasi ekanligi mana shu asarda bilinadi. Dardini, aytolmagan gaplarini, shu kitoblarga singdirgan. Mehrob, bilamizki bu — sajdagoh. Masjid mehrobiga hamisha sajda qilinadi. Nima uchun shu mehrobga sajda qilamiz, chunki mehrob toza, pokiza, halol joy. Mehrobdagi chayon kim bo'ldi? Qodiriyning kitobning so'zboshisida «Men aytgan va aytolmagan gaplarimni o'quvchim uqib olar» degan yaxshi gaplari bor. Mehrobdagi chayon kimligini har kim o'zicha idrok qiladi.

A.Qodiriy asarda faqat Anvar bilan Rano muhabbatinigina emas, balki moziyning iflos tomonlarini ham aks ettiradi. Asarni tasvirga olish jarayonida qiziq bir holatga duch keldik. Taqdir taqozosi bilan rejissor Melis Abzalovning «O'tgan kunlar» romani asosida ikki qismli badiiy filmi hamda «Mehrobdan chayon» televizion seriali bir vaqtning o'zida suratga olina boshlandi. Ikki ijodiy guruh Xudoyorxon saroyida ish boshladi. A.Qodiriy qahramonlari — o'z davrining saroy ayonlari-yu, qozikalon, mirzalari o'sha davr liboslari, urf-odatlari bilan saroy kezdilar. Bizlarga Qodiriy bobomiz ruhi madad bergandek bo'ldi. Qayerda, qachon, qaysi kuni biz tasvirga tushirmaylik romanda yozilgan holatlar, tabiat mo'jizalari ro'y berib turdi. Qo'qon izg'irin shamollarida kech kuzda daraxt barglarining uchishlari-yu, xazonrezgi holatlari, kimsasiz xonadonda Anvar bilan

Ra'noning xayrlashuv oqshomida eshiklarning shamolda taraqturug'i, «Mo'yi-muborak»da Qo'qonni tark etishdagi oydin kecha, hamma-hammasi ssenariyga mos keldi. Anvar bilan Ra'noning yarim kechada gulzordagi pinhona uchrashuviga biz butun Qo'qonni aylanib joy topolmadik. Rassom Saidakmal Rasulov bilan Toshkentga kelib, aynan Qodiriy xonadonining hovlisidan romandagi tasvirni topdik. Bu bizga katta omad edi. Xullas, hamma joyda Qodiriy ruhi biz bilan kezib yurdi. Eng hayratlanarlisi shuki, biz filmni yakunlab efirga uzatganda 15 qism birinchi fevraldan boshlab 15-fevral kuni nihoyasiga yetdi, vaholanki Qodiriy bobomiz ham romanning so'nggi nuqtasini 1928-yili 15-fevral kuni qo'ygan ekanlar. Bu taqdir ajoyibotlari edi. Bu bizning ilk tajribamiz, ilk urinishimiz edi. Albat, ta filmda juz'iy kamchiliklar ham bor, nihoyasiga yetmagan, cho'zilgan sahnalar ham mavjud. Lekin butun ijodiy guruh yozuvchi so'zlarini buzmasdan, aslidagiday talqin qilishga harakat qildi. 15 kecha teletomoshabinga adib durdonasini yetkazishga intildi. Navbatda mana shu buyuk yozuvchimizning «O'tgan kunlar» asari turibdi. O'sha davrni, zamon ruhini, kayfiyatini, liboslari chuqur biladiganlarning ko'pchiligi o'tib ketayapti. Asarning televizion talqinini yaratish, yosh avlodga qoldirish kerak.

So'nggi yillarda «O'zbektelefilm» studiyasida milliy seriallarga katta e'tibor berilayapti. Bu jabhada rejissorlardan «Lafz», «Iymon» seriallarini tayyorlagan rejissor Bahodir Ahmedov, «Charxpalak», «Qaytar dunyo» seriallarini tayyorlagan Shavkat Junaydullayev, «Gulxan atrofidagilar», «Tutash taqdirlar» seriallari rejissori Zamira Begimqulovanning qilayotgan ishlari tahsinga loyiq.

---

## II BO'LIM

### 1. O'zbekistonda televideniye shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari

(badiiy televideniye misolida)

Mustaqillik jamiyatimizda yangilanish davrini vujudga keltirdi. Bu davr kishilar ongini turli mafkuraviy andozalar ta'siridan ozod qilish, o'zlikka qaytish, iqtidor-u salohiyatini to'la namoyon etish imkoniyatini berdi. Mustaqillik tufayli o'zlikni anglash, xalq tafakkurini o'stirish, ma'naviyatini yuksaltirish, axborot bilan ta'minlashda adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari, xususan televideniye ning roli beqiyosdir. Respublika aholisining axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, teleradio dasturlari mazmunini tubdan yaxshilash, ko'rsatuv va janr doiralarini kengaytirish borasida qator qarorlar qabul qilingan.

Istiqlol va yurtimizdagi ulkan islohotlar, ijobiy o'zgarishlar respublika teleko'rsatuvlarining mazmun, mundarijasini o'zgartirdi. Endilikda telejurnalistlar mavjud dastur va tartibotlardan voz kechib xalq dili, didi, madaniyati, ma'naviyati va imon-e'tiqodiga monand yangi yo'nalishlar asosida ko'rsatuvlar tayyorlashni maqsad qilib qo'yganlar. Zero, xalq ma'naviyatini mustahkamlash va rivojlantirish — O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir.

Ma'naviyatning bir jabhasi bo'lmish televideniye ning kashf etilishi va rivojlanishi kinematografiya kabi ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Televideniye ijtimoiy zarurat tufayli yuzaga keldi. Zamonaviy texnologiyadagi turli tarmoqlarning rivojlanishi asnosida televideniye ning tasviriy ifoda vositalari ham orta boshladi. Bugunga kelib televideniye ma'naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Televideniye taraqqiyoti jarayonida adabiyot, teatr, kino va radioga xos jihatlarni mujassamlashtirgan bo'lsa-da, lekin ulardan o'zib ketolmadi. E'tibori nuqtai-nazaridan oldinga chiqdi.

Televideniye axborot va san'atlarning reproduktiv va kommunikativ doirasidan chiqib, boshqa san'at elementlarini o'zlashtirgan

holda xususiy mahsulotlarini yaratib, efirga uzatishga harakat qildi. Bu efir hajmining kengayishi va to'ldirilishi uning dasturlari ortib borishi hamda taraqqiyoti uchun asos bo'ldi.

Televizion ko'rsatuvlarda ma'lum g'oya va maqsad ko'zda tutiladi. Bu g'oyani muayyan voqea-hodisa zamirida amalga oshirish uslubiga qarab televideniye yirik ikki: informatsion (hujjatli) va badiiy televideniye ga bo'linadi. Informatsion televideniye dagi turkum ko'rsatuvlarda voqelikni ortiqcha bo'yoqsiz tomoshabinga yetkaziladi.

Badiiy televideniye ga badiiy san'at va yuksak estetik talablarga javob bera oladigan, voqelikni nafis san'at vositalari, obrazlar orqali ifoda etuvchi, ijodkorlarning badiiy imkoniyati, aktyorning mahoratini tasvirlovchi televizion asarlar va ko'rsatuvlar kiradi.

Badiiy turkumga oid ko'rsatuvlar badiiyat unsurlaridan foydalanган holda tomoshabinga yetkaziladi. Unda ramzlardan, yorqin xarakter, badiiy to'qimadan foydalaniladi.

Voqelikning murakkabligi va ko'p tarmoqliligi san'atda rang-barang janrlar tug'ilishining obyektiv asosiga aylanadi. San'at obyektini murakkab va serqirra bo'lganligi bois, uni o'zlashtirish uchun o'sha murakkab jihatlarni tadqiq qilishda maxsus shakllar ishlab chiqishga to'g'ri keladi. Hayotiy aloqalar va o'zaro munosabatlarning muayyan turi o'zining aniq, muvofiq badiiy in'ikosi uchun nisbatan barqaror badiiy shakllarni taqozo qiladiki, tur va janrlar shuning natijasida paydo bo'ladi.

Janrlar o'zgaruvchan dinamik xususiyatga ega bo'ladi. Ularning janr belgilari qaysi turga bog'liqligi bilan turlicha ahamiyat kasb etadi. Shunga qarab u yoki bu belgi janrni aniqlashda yetakchi rol o'ynashi mumkin. Har bir asar mazmunini uning janr e'tiboridan qat'iy nazar, ma'lum bir g'oya tashkil etadi. Lekin uning janr xususiyatlarini shu asarning mazmuni bilan o'lchaymiz.

Badiiy televideniye dagi ko'rsatuvlar doirasiga boshqa san'at turlaridagi janrlarni o'zlashtirgan dasturlar (musiqiy, adabiy-dramatik, kinoko'rsatuvlar, bolalar uchun kompozitsiyalar, kinofilmlarning reproduktiv namoyishi, telefilm va televizion dramalar) kiradi.

Televizion dramalarning shakllari ko'p. Bulardan biri — teatr spektakllarining reproduktiv namoyishi. Bunday shaklda sahna asarini yaratuvchi dramaturgning g'oyasi o'zgartirilmay namoyish qilinadi. Ikkinchisiga esa, bevosita televideniye uchun moslab yaratilgan telespektakllar kiradi. Bunday shaklda badiiy yoki dramatik asar ekran tiliga, voqea va harakat bir me'yorda davom etishi uchun



Parda Tursunning «O'qituvchi» romani asosida televizion spektakldan lavha.

badiiy tasvirga ko'chiriladi. Bu esa teledramaturgiyani vujudga keltiradi.

Teledramaturgiya mustaqil ijod turi bo'lib, televideniye uchun yozilgan asar teatr pyesasidan ham, kinossenariydan ham farq qilib, maxsus spesifik talablarga javob berishi zarur. Ma'lumki, televizion spektakldagi dialog kinofilmidagi so'zsiz sahnalardan, rang-barang kadrlardan va dialoglardan farq qiladi. Teledramaturgiyada dialog muhim rol o'ynaydi. Biroq, teatr uchun yozilgan barcha pyesalar ham o'zining original shaklida televizion spektaklga to'liq mos kelavermaydi.

Garchi televizion dramaning ssenariysidagi dialoglar teatr pyesasi dialoglariga yaqin bo'lsa-da, televideniye o'ziga xos element — ya'ni televizion operatorning televizion ifoda vositalari orqali butun sahnani ko'rsatish xususiyati mavjud. Qisqa va har xil sahnalar, siqiq dialoglar, ortiqcha gapdan ko'ra ko'proq ma'lumot beruvchi ekspozitsiyalar — mana shularning hammasi dramaturgiya asosi — ssenariyga sayqal beradi.

Teledramaturg teatr dramaturgiga nisbatan ancha keng imkoniyatlarga ega. Chunki teledramaturg voqealarni keng planda yoritib berish uchun texnik vositalarga ega. Lekin u televideniyaning ifoda vositalarini, uning o'ziga xos xususiyatlarini bilmay turib, olg'a bosolmaydi. Binobarin, bu televizion ifoda vositalaridan foydalanishni, shuningdek, televizion til, teleijodkorlarning mahorati va uning badiiy imkoniyatlarini hisobga olmay turib televideniye uchun maxsus asar yozish mumkin emas.

Adabiy asar asl holidan televizion badiiy janrda talqin qilinganida o'zgarishlarga uchraydi, ya'ni uning televizion shakli yuzaga keladi va mustaqil asarga aylanadi. Uning mazmunida ham o'zgarish

yuz berishi mumkin. Bu asarning teleekran uchun mo'ljallangan talqini va yechimi hamda ijodkorlar nimaga urg'u berishiga bog'liq. Roman bir ijodkorning yolg'iz o'zi tomonidan obyektiv hodisa va voqealarga subyektiv yondashuvi, uning dunyoqarashi, hayajoni va qator boshqa sabablar natijasida yuzaga keladi. Televizion asarning yaxshi chiqishi jamoaning mavzuga bo'lgan mehri, munosabati, e'tiqodi va badiiy imkoniyatiga bog'liq.

O'zbek televizion teatrining «O'talar so'zi — aqlning ko'zi» va «Televizion miniatyuralar teatri» ko'rsatuvlarida dramatik, satirik janrlar uyg'unlashib, asosiy e'tibor birinchi shaxs so'ziga qaratiladi. Aynan televideniyaning badiiy janr xususiyatlari nazarimizda ana shunda namoyon bo'ladi. Bunda asarning rejissorlik kompozitsiyasini qurish, makon va zamonni tashkil etish usullari, televizion kameraning o'ziga xos xususiyatlarini, syujet va qahramonlar xarakterinigina emas, balki muallif o'y-fikrlari, niyatini birinchi o'ringa olib chiqadi.

## 2. O'zbekiston badiiy televideniyesining evolyutsiyasi

XX asrning ommaviy kommunikatsiya va axborot manbalaridan bo'lmish televideniye jamiyat hayotiga jadal kirib, ijtimoiy va ma'naviy ongning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylandi. Shuningdek, televideniye badiiyatdan xoli axborot turining shakllanishi va ommalashuvi bilan bir vaqtda texnik vositalar asosida yuzaga kelgan badiiyatga, jumladan teleteatr, telefilm va televideniye xos badiiy ko'rsatuvlarga asos soldi. Televideniyaning keng omma bilan muloqoti haqida fikr yuritganimizda, u faqat bitta ma'noga ega bo'lgan televizor va tomosha hodisasinigina emas, aksincha, nihoyatda murakkab, muntazam, millionlab tomoshabinlarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadigan jarayonni nazarda tutamiz.

O'zbekistonda televideniye ishga tushirishdan maqsad, o'sha davr uchun ijtimoiy talab hamda yangilikka intilish bo'lsa, o'z navbatida ana shu yangilikdan hukmron mafkura o'z siyosatining targ'iboti yo'lida asosiy qurol sifatida foydalanishni maqsad qilib qo'ygandi.

O'zbekistonda televideniye ish boshlagan dastlabki vaqtlarda ko'rsatuvlar tayyorlash uchun texnik va ijodiy kuch yetarli bo'lmagani



tufayli dasturning aksariyat qismini filmlar va konsert nomerlari tashkil etdi. Buni quyidagi O'zbekiston Davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlardan ko'rish mumkin:

TTS ning 1957-yil 3-yanvarda bo'ladigan eshittirishlar programmasidan.

19.15–19.29. Televizion moslashtirish (nastroyka).

Muzika.

19.29–19.30. Pozivniye.

19.30–19.50. Assalomu alaykum, qadrlı o'rtoglar. Televizion eshittirishlarni boshlaymiz. Bugungi programmada kinojurnal va «Turli taqdirlar» degan badiiy film.

Hozir kinojurnalni tomosha qiling.

19.50–19.55. Biz kinojurnalni namoyish etdik. Endi besh minutlik tanaffus e'lon qilamiz. Tanaffusdan so'ng «Turli taqdirlar» degan badiiy filmni tomosha qilasiz.

Tekst, muzika.

19.55–21.40. Televizion eshittirishlarni davom ettiramiz.

«Turli taqdirlar» badiiy filmni tomosha qiling.

21.40–21.42. Siz «Turli taqdirlar» nomli badiiy filmni ko'rdingiz. Shuning bilan bugungi eshittirishlarimizni yakunlaymiz. Navbatdagi eshittirishlarimiz 5 yanvar kuni soat 19 dan 30 minut o'tganda boshlanadi. Unda «Ona» degan badiiy film namoyish etiladi.

Xayr, o'rtoglar».

Teleteatr spektakli teatrning ayrim qonunlarini saqlagan holda ekran yuzini ko'ra boshladi.

Kinematografiya ham o'z mahsulotlarini kichik ekranga chiqarish jarayonida uning bir qancha qonunlarini televideniye ga singdirishga muvaffaq bo'ldi. Zotan, san'atning barcha turlari teleekranga chiqarilar ekan, shu jarayonning o'zida tabiiy saralanish kuzatila boshladi. Buning sabablari talaygina bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

birinchisi – adabiy asarlarning televideniye ga mos kelishi yoki kelmasligi. Mos kelgan adabiy asarning mazmuniga putur yetmagan holda televideniye ning ifoda uslubi va tasvir vositalari bilan uyg'unlashuvi;

ikkinchisi – adabiy asarning dolzarb va davr talabiga mosligi, vatanparvarlik mavzuidagi barcha janrlarga oid asarlar;

uchinchisi – janr va turlaridan mustasno sotsialistik g'oyani aks ettiruvchi adabiyot, teatr, musiqa, tasviriy san'at, kino mahsulotlari.


Teleteatr janrida turli mavzuda yaratilgan adabiy asarlar ekranga chiqib turdi. 1968-yilning 17-mayida kichik va o'rta yoshdagi maktab o'quvchilari uchun afrikalik yozuvchi Abraxamsning «Ozodlikka chaqiriq» romani asosida rejissor M.Muhamedov sahnalashtirgan 20 daqiqalik insenirovkada janubiy Afrikaning Yoxanesburg shahrida istiqomat qiluvchi qora tanli bolaning fojeali hayotidan lavha namoyish etildi.

Bu insenirovkadagi ahamiyatli nuqtalardan biri insoniy iztiroblarni ochishga bo'lgan harakat, ya'ni san'atning mohiyati avvalo insonning yuragida, xayolidagi kechmishlarni, o'y-iztiroblarini ko'lamlı ravishda badiiy tadqiq etishdir. Bu telespektakl jamiyatdagi munosabat tufayli kamsitilishga, ya'ni irqiy diskriminatsiyaga uchrayotgan insonning ichki kechinmalari yordamida mavjud davrdagi ma'naviy inqirozlar haqida fikr, o'ylarga toldiradigan asar edi. Lekin sho'ro mafkurasi hamda o'sha davrdagi ijtimoiy voqealikdagi mavjud mafkuraviy tahdid va tazyiq ta'siri tufayli bunday mavzudagi spektakllar ekranga chiqarilmadi.

1966-yildan boshlab kino bo'limi tomonidan «Sovet kinosi tarixidan» hamda «Sevimli kino artistlari» ko'rsatuvlari ham tomoshabinlarni xushnud eta boshladi. O'zbekiston televideniyesi tayyorlagan dasturlar o'ttiz yildan ortiqroq vaqt mobaynida ikki tilda (o'zbek, rus) uzatildi. Chunki O'zbekiston televideniyesi sobiq Ittifoq Markaziy televideniyesining tasarrufida bo'lgan va moddiy bazasi ham sobiq Markaziy televideniye tomonidan ta'minlagan.

Televideniye da faoliyat ko'rsatayotgan ijodiy guruhning tinimsiz mehnati va izlanishlari tufayli ko'rsatuv turlari ko'paydi va xalqning teleko'rsatuvlarga bo'lgan qiziqishlari ham ortdi. Mahalliy xalq ongi, saviyasi, bilimi, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda teledasturlar hajmi kengaydi. Axborot, siyosiy hayotimizdagi yangiliklar haqidagi xabarlar bilan ko'ngilochar, dam olish yo'nalishidagi ko'rsatuvlar ham tayyorlandi va badiiy televideniye ko'rsatuvlarining namunalari vujudga kelgani sezildi.

Televideniye auditoriyasi qisqa muddat ichida kengaya borishi, hamda unga bo'lgan tomoshabinlar talabining ortishi o'sha davr



«Marhabo talantlar» telefestivalidan lavha.

mafkurasi uchun asosiy qurol sifatida foydalanish imkoniyatini yaratdi. Televideniye mafkura yo'lida xizmat qilarkan, bora-bora uning iskanjasiga tushdi va o'zining badiiyat darajasiga putur yetkaza boshladi. Bu holni ko'proq musiqiy ko'rsatuvlarda kuzatish mumkin edi.

Unda xitoblar, bag'ishlov, ritorik she'r va badiiyatdan mahrum marshlar o'rin oldi. Bunday kompozitsiyalarda asosan hukmron mafkuraga madhiyalar, hamd-u sanolar aytiladi. Lekin ular orasida inson kechinmalariga hamohang, kishi ruhiyatiga ta'sir etuvchi qo'shiq va she'rlar ham uchrab turardi. Mirtemir, Uyg'un she'rlari asosida tayyorlangan kompozitsiyalar tomoshabinni biroz bo'lsa-da televideniye ko'rsatuvlaridan ma'naviy ozuqa olib, ko'ngilli dam olishlari uchun yordam berar va tomoshabinni televideniye dan uzoqlashtir-maslikka ko'maklashardi.

1965-yildan boshlab, Toshkent televideniyesi sobiq Markaziy televideniye ko'rsatuvlarini qabul qilib, respublika hududiga tarqata boshladi. Sobiq Markaziy televideniye ko'rsatuvlarining respublika hududida ko'rsatilishi tufayli Toshkent televideniyesida ayrim ko'rsatuvlar paydo bo'ldi. Masalan, 60-yillarning oxirida «Kinosa-yohatchilar klubi» ko'rsatuviga o'xshash O'zbekiston televideniyesi-da «Olamga sayohat» nomli ilmiy-ommabop va ma'rifiy ko'rsatuv tashkil etildi. Bundan maqsad, o'zbek tomoshabinlarini dunyo shaharlari, tabiati, hayvonot olami bilan tanishtirish edi. Uning ilk sonini televizion jurnalist olib bordi. Lekin boshlovchi-jurnalist bu sohaning mutaxassisi bo'lmaganligi tufayli dastlabki ko'rsatuv shahar-

lar haqidagi sayozgina hikoyadan iborat bo'lib qoldi. Ko'rsatuvni mazmunan rivojlantirish maqsadida unga mutaxassislar jalb qilindi. Ular orasida taniqli kinorejissor B.Xo'jayev o'zi tasvirga tushirgan lavhalari bilan ko'rsatuvning shakli, mazmuni va saviyasini oshirish-ga ko'maklashdi.

1968-yilda ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlar redaksiyasi tomonidan tayyorlanadigan «O'zbekiston xotin-qizlari», «Shahringizni beza-ting» kabi ko'rsatuvlar qatori badiiy janrdagi «Istiqbol egalari» tele-jurnali tayyorlandi. Mazkur adabiy musiqiy dasturda hunarmand, raqqosa, shoir, bastakor, xonanda, sozanda, xullas madaniyatimiz va san'atimizning umidli yoshlari, ularning hayoti va ijodi haqida hikoya qilinardi. Bu ko'rsatuvga istiqbolli yoshlar taklif etilib, ular-ni teleekran orqali xalqqa yaqinroq tanishtirishga harakat qilinardi.

«Istiqbol egalari» ko'rsatuvi asosan to'rt sahifadan iborat bo'lib, uning birinchi sahifasida bir oy mobaynida respublikamizning ijti-moiy va siyosiy hayotida ro'y bergan yirik voqealar haqida hikoya qilinardi. Ikkinchi sahifasida esa ishlab chiqarishdagi ilg'or yigit va qizlarning mehnatdagi muvaffaqiyatlari haqida hikoya qilinardi. Ko'rsatuvning uchinchi sahifasi — ya'ni badiiy sahifasida yosh ijod-korlar haqida hikoya qilinardi va ularning ijod namunalari teleekran orqali tomoshabinlarga namoyish etilardi.

Ko'rsatuvning to'rtinchi sahifasi satira va yumor janrida edi. Televideniye da ijodiy izlanish davom etayotgan paytda televizion ijodkorlar tomonidan yig'ilgan syujetlar ko'rsatuv sahifalaridan joy olardi. Bu ko'rsatuvdagi sahifalar kelajakda mustaqil ko'rsatuvlar uchun poydevor bo'ldi.

1961-yilda alohida «Yoshlik» studiyasi tashkil etildi va bu stu-diyaning dastlabki badiiy janrdagi to'ng'ich ko'rsatuvlaridan biri — «O'talar so'zi — aqlning ko'zi» ko'rsatuvi bo'ldi. Bu ko'rsatuvning boshqa ko'rsatuvlardan farqi shundaki, u aytmoqchi bo'lgan fikr qog'ozdan quruq o'qib berilmay, sahnaviy ko'rinishlar orqali vo-qealar, ba'zan hujjatli dalillar asosida namoyish qilinardi. Ba'zan ekrandagi o'n minutli gapni eshitish tomoshabinni toliqtiradi. Lekin ekranda dildan, erkin gapiruvchi, mulohaza yurituvchi kishiga tomo-shabin quloq soladi. Buni «O'talar so'zi-aqlning ko'zi» ko'rsatuvining boshlovchisi O'zbekiston xalq artisti Karim Xonkeldiyev isbotladi. Birinchi ko'rsatuv yosh ota-onalarga bag'ishlangan bo'lib, ikki ko'rinishdan iborat edi. Birinchi qismda ota-ona farzandining

sho'xliklariga befarq qarasa, ikkinchi qism didaktik ko'rinishda, ya'ni ota-ona bolasini to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ana shu ikki ko'rinishni tomoshabin taqqoslab, o'zi uchun to'g'ri xulosa chiqarishga imkon berildi. Ko'rsatuvning shakli ham, nomi ham o'rinli topilgan. Chunki o'zbek xonadonida otaning o'rni va hurmati alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham bu ko'rsatuv xalq hayotiga tez singdi. Xalqimizdagi mehr-muruvvat, ibrat, oqibat, andisha, diyonat kabi tushunchalar avvalo oilada shakllanadi va avloddan-avlodga o'tib boradi. Ko'rsatuvlarda bir oila misolida, ya'ni aka-uka, qaynona-kekin munosabatlari, milliy qadriyatlarning oiladagi ko'rinishi haqida hikoya qilinardi.

Bu turkum ko'rsatuvlarning har sonida biror voqea haqida batafsil hikoya qilinib, yechim topiladi va bu ayni paytda keyinchalik yaratilgan teleseriallar uchun zamin yaratdi. Yozuvchi O'lmas Umarbekov o'zining «Qiyomat qarz» asarini shu ko'rsatuvdan ilhomlanib yozgan. Chunki ko'rsatuvning bir sonida xiyonat va oqibat tushunchalari haqida hikoya qilingan. Keyinchalik, 1990-yillarga kelib O'zbekiston televideniyesi orqali namoyish etilgan «Domla», «Kelinsalom» teleseriallari uchun ham shu ko'rsatuv zamin bo'lgan.

Yuqorida badiiy janrdagi «Istiqbol egalari» ko'rsatuvining sahifalari haqida gapirib o'tildi. Ana shu ko'rsatuvdagi badiiy sahifa mustaqil ko'rsatuv uchun manba bo'ldi. 1965-yilning avgust oyida «G'azalxon yoshligim» ko'rsatuv ana shu badiiy sahifa asosida tayyorlandi va bu ko'rsatuvning dastlabki sonlarida ishtirok etgan E.Vohidov, A.Oripov, G.Nurillayeva o'zlarining birinchi she'rlarini ana shu ko'rsatuv orqali tomoshabinlarga o'qib bergandilar. Bir so'z bilan aytganda bu ko'rsatuv go'zallik asiri bo'lgan ko'pgina yoshlarga san'at va adabiyotga yo'llanma berdi.

«Yoshlik» studiyasida asosan yoshlar haqida, ularning ma'naviyati, quvonch-tashvishlari, tarbiyasi, faolligi haqida hikoya qiluvchi ko'pgina ko'rsatuvlar tayyorlanardi. Masalan, «Studentlik — oltin davrim», «Mardlik — mangulik», «Yoshlik oqshomi», «G'azalxon yoshligim», «Kasbim — faxrim», «Fizkultura va sport», «Sening zamondoshing» va h.k.

«Istiqbol egalari» ko'rsatuvining to'rtinchi sahifasi «Satira va yumor» ham 1966-yilning mart oyida alohida ko'rsatuv sifatida ajralib chiqdi. Bu sahifaning ajralib chiqishidan maqsad ilgari telejurnalda kichik hikoyalar, hajviyalarni diktor o'zi o'qib berar, bunda kul-

gili voqealar, obrazlar, xarakterlar ochilmay qolardi. Ularni inssenirovka qilib, aktyorlar ijrosida berish maqsadida alohida ko'rsatuv dunyoga keldi. Ko'rsatuvning turli xil mavzulari orasida siqilib qolgan «Satira va yumor» sahifasi mustaqil badiiy janrdagi ko'rsatuvga aylandi. Ancha izlanishlardan so'ng, unga original nom topildi va yangi ko'rsatuv — «Televizion miniatyuralar teatri», ya'ni bir yoki ikki aktyor teatri ko'rsatuvini tayyorlandi.

Bu ko'rsatuvning muvaffaqiyat qozonishiga yana bir sabab, unda namoyish qilinadigan voqealar zaharxanda kulgi ostiga olinadi, nuqsonlar hajviy sahna ko'rinishlari orqali namoyish etiladi.

«Televizion miniatyuralar teatri» o'z repertuarini, mavzularini kundalik hayotdan oldi. Shuning uchun u xalqning diliga yaqin edi. Bu mavzularni xalqning o'zi aytib turardi. Miniatyuralar teatri turmushda uchraydigan salbiy nuqsonlar, illatlar — fisq-u fujur, poraxo'rlik, ichkilikbozlik, bezorilik, ko'zbo'yamachilik, munofiqlik, hasadgo'ylik kabi illatlarga qarshi satira yordamida o't ochdi. Ko'rsatuvlarning shakli va soni ortib borarkan, shuni e'tirof etish kerakki, televideniye badiiyat yaratishdagi imkoniyatlari kengayib bordi.

«Televizion miniatyuralar teatri»ning postanovkalari aksariyat hollarda e'firga «jonli» berilardi. Shu sababli rejissorlar uchun «jonli efir» katta qiyinchiliklar tug'dirdiki, kezi kelganda teleinssenirovkaning g'oyaviy hamda badiiy qimmatiga o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Sababi — televideniye pavilyonlarida asar ruhiga mos manzaralar ko'rsatilishi lozim bo'lgan anjomlar qatorasiga qurilib, voqea kechadigan sahnalar oldinma-keyin namoyish etilishi kerak. Ba'zan «jonli efir» chog'ida texnikaning ishdan chiqishi, mikrofonning kutilmagan kadrda tushib qolishi, gohida u kadr o'rniga boshqasining efirga ketib qolishi, ovozning yo'q bo'lib qolishi kabi mashaqqatli ijodiy jarayon ko'rsatuvning sifatiga putur yetkazardi. Shuningdek, kamera bilan muloqotda bo'lmagan yosh aktyorlar uchun to'laqonli obraz yaratish anchagina mushkul ekanligi ham ayon bo'ldi.

Davr o'tishi bilan «Televizion miniatyuralar teatri» turkumidagi ko'rsatuvlarning diapazoni kengayib bordi. Unga, asosan, S.Ahmad, A.Jamol, M.Xudoyqulov, E.Musayev, E.Raimov kabi yozuvchilar turli hajviy intermediyalar yozib berishar edi. Lekin ba'zida esa tomoshabinga ta'sir eta olmaydigan past saviyali intermediyalar ham uchrab turardi. Ba'zi televizion inssenirovka, postanovka yoki



Rassom eskizi  
muhokamasi.

spektakllar efirni to'ldirish uchun, zo'rma-zo'raki yaratilishiga sabab — yozuvchilarning televideniye bilan hamkorligining tanqisligida edi.

«Yoshlik» studiyasida «Romantika» televizion teatri ham tashkil etildi. Televideniyeга kirib kelgan dramatik va epik shakldagi barcha asarlar — teatr dramaturgiyasi usulida tayyorlanib, deyarli teatr spektakllarining teleckranga moslashtirilgan shakli bo'lib qoladi. Teatr asarlari televideniye ekraniga ko'chirilganda yirik plan bilan montaj teatrdagi mizansahnaning o'rnini bosadi, bunda tomoshabinni ko'rish, idrok etish shart-sharoitlari o'zgaradi. Shuni hisobga olgan holda, aktyorning ijrochilik shakllari o'zgaradi, bir shakldan ikkinchi shaklga o'tadi, voqealarning tabiiy holda, tabiiy muhitda tasvirga olinishi shartlilik va shartsizlik, hayotiylik bilan sahnaviylik o'rtasidagi nisbatni sifat jihatdan o'zgartirib yuboradi.

«Yoshlik» studiyasining «Romantika» televizion teatri, «Otlar so'zi — aqlning ko'zi», «Teleminiaturalar teatri», «Bir aktyor teatri», musiqali redaksiya tomonidan tayyorlanadigan musiqali dramalar o'zbek televizion teatrlarini tashkil etadi.

O'zbek televizion teatri 1968-yilda birinchi marta o'z spektakli bilan Ostankino studiyasi orqali «Intervideniye»ga (sobiq umumittifoq ekraniga) chiqdi. Unda dramaturg H.H.Niyoziy qalamiga mansub «Paranji sirlari» dramasi rus tilida namoyish qilindi. Garchand, televizion spektakl uchun tanlangan mavzuni o'sha davr mafkurasi

talab qilsa-da, lekin bu dramani qardosh xalqlar bilan bir qatorda chet ellik tomoshabinlar ham ko'rishga muvaffaq bo'ldilar.

1967-yilning aprel oyida adib G'.G'ulomning mashhur «Shum bola» asarini rejissor G.Yoqubov televideniyeда sahnalashtirdi. Asar o'z milliyligi va samimiyligi bilan darhol e'tiborni tortdi. Undagi bosh rollarni taniqli aktyorlar V.Qodirov, M.Hamidovalar bilan debutant aktyorlar H.Sa'diyev va L.Sa'dullayevlar ijro etishdi. 1970-yillarda esa S.Ahmadning «Ufq», M.Ismoilning «Farg'ona tong otguncha», shuningdek, qardosh xalqlar adabiyotining namunalaridan, Ch.Aytmatovning «Birinchi o'qituvchi», I.Turgenyevning «Bahor toshqinlari», A.Muxtorning «Opa-singillar», Sh.Xolmirzayevning «O'n sakkizga kirmagan kim bor» kabi asarlari asosida telespektakllar yuzaga keldi. Bunda televizion til to'la ishga solinib, epik asar zaminida mutlaqo yangi shakldagi telespektakllar yaratilganini ta'kidlash joiz.

1967-yilda adabiy-dramatik ko'rsatuvlar redaksiyasida rejissor S.Anorqulov turkman yozuvchisi X.Diryayevning «Qismat» romani asosida yaratgan telepostanovkasi ko'pchilikning yodida qolgan, desak mubolag'a bo'lmas. Spektaklning ekspozitsiyasi romandagiga nisbatan bir oz boshqacharoq. Chunki ko'pgina asarlar ekranga yo'qotish va kashfiyotlar bilan ko'chadi. Pyesadagi voqea Murod ota oilasidan boshlanadi. «Qismat» dramasi uch qismdan iborat. Spektaklning birinchi qismi go'zal qiz Uzukjamolning uyidan olib qochilishi va Berdimurodboyning ukasi Omondurdi bilan majburiy nikoh o'qitish sahnasi bilan tugaydi. So'nggi ikkinchi va uchinchi qismlarida esa asarning asosiy g'oyasini tashkil etuvchi ziddiyatlar to'liq tasvirlanadi.

«Qismat» romani asosida yaratilgan insenirovkani tomoshabinlar qiziqish bilan tomosha qildilar. Melodrama janri insonparvarlik, muhabbat kabi tuyg'ularni o'zida mujassam etgani bois tomoshabin ruhiyatiga yaqindir. Asardagi voqealar uch qismdan iborat bo'lib, har biri 30 daqiqalik insenirovka shaklida televideniye orqali uch kun mobaynida namoyish etilgan. Bu o'z navbatida televideniyeда ko'p seriyali asarlar yaratilishi uchun asos va imkoniyat borligini isbotladi. Asardagi voqealarning hammasini televideniyening bir kunlik dasturida namoyish qilish ham mumkin edi. Lekin tomoshabinlarni televizor dasturiga e'tiborini ko'proq tortish maqsadida, uni bir necha qismda namoyish qilingan.

Yozuvchi A.Muxtorning «Opa-singillar» romani asosida tayyorlangan telespektaklni rejissor va ssenarist G.Yoqubov ekranlashtirdi. Mavzu jihatdan ancha keng bo'lgan bu romanning syujet liniyasi ko'p qirrali bo'lib, ular bir necha g'oyaviy yo'nalishlarni o'zida aks ettirdi.

1966-yilning yanvarida televideniye qoshida bosh muharririyat sifatida «Telefilm» studiyasi tashkil topdi va o'zining dastlabki mahsulotlarini – televizion filmlarni ishlab chiqara boshladi. Ijodkorlar Oybekning «Nur qidirib» asari asosida film yaratdilar. Bu filmning yaratilishini O'zbekiston televizion badiiy film janri uchun solingan birinchi asos deyish mumkin. Bu bilan studiya ijodkorlari yozuvchi Oybekni ham hayotligida tasvirga tushirib qoldirishga ulgurandilar.

Teleekran talabidan kelib chiqib, televizion filmlar yaratila boshlandi. Teleekran shaklan kichik bo'lgani uchun asosan yirik planda ishlashni talab qiladi. Operator yirik planda qahramonning ruhiy holatini aniqroq ko'rsatadi. Masalan, badiiy kinoda katta omaviy sahnalardan foydalaniladi, tabiiy sharoitda, tabiiy muhitda yaratilsa, televizion film esa televizion texnik imkoniyatlardan foydalanib, tasvirga tushiriladi.

«Telefilm» studiyasining ishga tushishi kino san'atida yangi tur – televizion kino turining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Keyinchalik «Telefilm» muharririyati «O'zbektelefilm» studiyasi taraqqiyotining dastlabki davridanoq televideniye moddiy ta'minotida bo'ldi. Bu studiyada yaratilgan filmlar ikki ekran, ya'ni televideniye va kino san'atining hosilasidir.

1956-yildan 1970-yilga qadar televideniye orqali namoyish etilgan va yuqorida tahlil qilingan asarlarda teledramaturgiya izlanishlarini ko'rish mumkin. Teledramaturg ilgari surgan g'oyani qaysi janrda talqin etish rejissorga bog'liq. Chunki u ba'zan asarning tag qatlamiga singdirilgan fikrga urg'u berishi barobarida asarning janri o'zgarishi mumkin. Voqelikning murakkabligi va ko'p tarmoqliligi san'atning ayrim turlari chegarasida rang-barang janrlar tug'ilishining obyektiv asosiga aylanadi. San'at predmeti shunchalar murakkab va serqirra bo'lganligi sababli, uni o'zlashtirish uchun o'sha murakkab jihatlarni tadqiq qilishda maxsus shakllar ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Hayotiy aloqalar va o'zaro munosabatlarning muayyan turi o'zining aniq, muvofiq badiiy in'ikosi uchun nisbatan

barqaror badiiy shakllarni taqozo qiladiki, tur va janrlar shuning natijasida ham paydo bo'ladi.

Televideniye rivojlanib, uning ifoda vositalari va imkoniyatlari ortib, shuningdek, boshqa san'at turlaridan tajriba olib uning an'anaviy janrlari boyidi va yangi turlari ortib bordi. Televizion janrlar o'ziga xos farqlarga ega. Masalan, «Assalom, O'zbekiston!» ko'rsatuvini olsak. Televizion ijodkorlar bu ko'rsatuvda reportajni ham, ocherk janrini ham, lirik janrlarda tayyorlangan syujetlarni ham bir-biriga televizion montaj yo'li orqali bog'laydilar. Bir ko'rsatuvning o'zida tomoshabin axborot olishi, biror mavzu yoki kishi haqidagi teleocherk bilan tanishishi, musiqiy ohanglardan bahramand bo'lishi mumkin, chunki televideniye san'ati, uning shakli, ekran shuni talab etadi. Ana shu janr qiyinchiliklari televideniye oldida turgan eng muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Televizion janrlar jurnalistika yoki adabiy janrlardan o'zining ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Televizion janrlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- informatsion televizion janrlar (informatsion xabar, hisobot, xabar, kadrda monolog – boshlovchi, intervyu, reportaj);
  - tahliliy publisistik janrlar (izoh, sharh, suhbat, bahs, tok-shou, matbuot konferensiyasi, muxbirlar tizimi);
  - badiiy-publisistika janrlari (ocherk, esse, hajviy janrlar).
- Badiiy televideniye janrlarini quyidagicha ajratish mumkin:
- hujjatli-badiiy janrlar (tok shou, telemusobaqa, teleo'yin, televiktora);
  - badiiy janrlar (telespektakl, telekonsert, telefilm, ko'p seriyali televizion film).

Yana shuni eslatib o'tish lozimki, har bir asarning mazmunini uning janr e'tiboridan qat'iy nazar, ma'lum bir g'oya tashkil etadi. Lekin shu bilan birga biz uning janr xususiyatlarini shu asarning mazmuni bilan baholaymiz.

Birinchi guruhga televideniye janrlarining matbuot bilan o'zaro yaqinligini asoslaydigan axborot-publisistik janrni kiritish mumkin. Shuning uchun ham televideniye janrlarida turg'un, an'anaviy janrlar, korrespondensiya, reportaj, ocherk, portret, intervyu va boshqalar munosib o'rin egallagan.

Televideniye orqali eng ko'p namoyish etiladigan, o'z mohiyati bilan teleocherk ko'proq hujjatlarga va badiiy tasvir vositalariga:

voqealarning haqiqatga yaqinligi, qahramonlarning aynan o'zi, montaj, qiyoslash va o'xshatishlar yordamida obraz yaratishga asoslanadi. Bu yerda jamoa ijodiy mehnatining mahsulini – rejissor, operator va muallif mahoratini asosiy narsa – adabiy asar, ya'ni ssenariy belgilaydi.

Bu jihatdan ocherk ko'proq ikkinchi guruhga – hujjatli janrga yaqin turadi. Bu o'rinda ancha afzalliklar bor. Chunki asl voqelik muallif uchun faqat maqsad yoki obyekt bo'lib xizmat qilmaydi, balki uni kengroq fonda yoritishga (fantaziya)ga imkon beradi. Teleocherk yozuvchi voqea va hodisalarni, dalillarni, kishilar va ularning faoliyati, xulq-atvoridagi muhim xususiyatlarni tanlab oladi, ularni aynan saqlab qoladi. Teleocherk ham gazeta ocherkidagi kabi turmushni tipik obrazlar va hodisalar orqali tasvirlash nihoyat darajada aniqlik va dalillarga asoslangan aniqlikni talab etadi. Uchinchi guruhdagi televizion janrga ko'proq boshqa san'at turlaridagi ba'zi bir ko'rinishlarni o'zlashtirgan badiiy janrdagi ko'rsatuvlar: musiqiy, adabiy-dramatik, kinoko'rsatuvlar, bolalar uchun tayyorlangan kompozitsiyalar, kinofilmlarning reproduktiv namoyishi va televizion dramalar kiradi.

Televizion dramaning shakllari har xil. Bulardan biri teatr spektakllarining reproduktiv namoyishidir. Bunday shaklda sahna asarini yaratuvchi dramaturgning g'oyasi o'zgartirilmay jonli translyatsiya qilinadi.

Ikkinchisiga esa, bevosita televideniye uchun moslab yaratilgan telespektakllar kiradi. Bunday shaklda badiiy yoki dramatik asar ekran tiliga, voqea va harakat bir me'yorda, yagona syujet liniyasida, kompozitsiyada davom etishi uchun studiya pavilyoniga, boshqacha qilib aytganda badiiy tasvirga ko'chiriladi. Bu esa tele-dramaturgiyani vujudga keltiradi.

Televizion spektakl asosiy kompozitsion qurilishni, stilistik va boshqa xususiyatlarni asosan teatr va kinodan oldi. Lekin voqealarning mantiqan bir joyda, faqat studiya pavilonida rivojlanib borishi, tasviriy vositalarda ko'proq yirik plandan (ko'rinishda) foydalanish va boshqa tomonlar teatr va kinoga nisbatan televideniyeiga xosdir. Shuningdek, aktyorning birinchi plandagi (yirik) ko'rinishi, mo'jazxonadagi ekranda, uzilishi va davomiyliigi (ko'p qismli) badiiy televideniyeining o'ziga xos xususiyatlaridir.

Televideniye o'zining ifoda vositalarini topish hamda badiiy janrlarni rivojlantirish uchun izlanishlar, san'at turlari bilan hamkorlikda faoliyat olib bordi. Aksariyat hollarda janrlar televideniyeida sof ko'rinishda uchramay, transformatsiya holatida bo'lar edi. Televizion dramaturgiya ham televideniyeining imkoniyati va o'ziga xos xususiyatlari asosida yuzaga keldi.

Ommaviy axborot vositalari ichidan televideniyeining differensial holatga o'tishi yangi badiiy madaniyatning bir ko'rinishi – badiiy televideniyeiga asos soldi. Uning izlanishlarini televizion badiiy film, televizion dramalar va televizion badiiy ko'rsatuvlar misolida ko'rish mumkin bo'ldi. Masalan, nomlari yuqorida qayd etilgan teledramalar bilan «San'at olami» (mual. Sh.G'aniyeva, rej. V.Raykova), «Royal oldida suhbatlar» (mual. D.Ziyodova, rej. N.Levina), «Teatr uchrashuvlari» (mual. E.Musayev, rej. H.Aliyev), «Kino olamida» (mual. H.Akbarov, rej. S.Rahimqulov), «Jahon kino yulduzlari» (mual. S.Xo'jayeva, rej. I.Fattohov), «Filmlar va taqdirlar» (mual. J.Teshaboyev, rej. J.Matmurodov) va boshqa san'at turlariga bag'ishlangan ko'rsatuvlarda badiiylik elementlari mujassam. Ko'rsatuvda muallif va boshlovchi bevosita san'at haqida fikr yuritarkan, rejissor tilga olingan asarlarni o'rni kelganda reproduktiv tarzda namoyish etadi. Muallif mahorati, u yaratgan asarning tomoshabin e'tiborini tortadigan jihatlarini izlab topib, uning ijodiy laboratoriyasiga boshladi, tomoshabinni san'at namunalaridan bahramand etdi. Ko'rsatuvda ilgari surilgan g'oyani teleoperator tomoshabinga nafasat bilan yetkazish uchun televizion rakurslar topdi. Televizion ifoda vositalaridan o'rinli foydalandi. Biz yuqorida nomlarini qayd qilgan badiiy janrga oid ko'rsatuvlar evolyutsiyasi televideniye estetikasining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, uning ichki imkoniyatlari boshqa san'at turlariga xos ifoda vositalaridan voz kechmagan holda, o'ziga qarashli texnik imkoniyatlarni to'laligicha ishga solish bilan belgilandi. Uning mazmuniga mos shakllar, aynan televideniyeiga xos vositalarning qo'llanishi tufayli roman, qissa, dramatik asar va boshqa tur hamda janrlarning rivojlanishi qonuniy tus oldi. Badiiy janr evolyutsiyasi jarayonidagi e'tiborli jihat shuki, televideniye uchun asar yozadigan dramaturglarning teledramaturgiya bo'yicha tushunchalarida ham o'zgarishlar yuz berdi.

Televideniyeining ilk davridan boshlab, to 1970-yillargacha kechgan tarixi, izlanish, intilishlari, o'ziga xosliklari, ayni chog'da nuq-

son-u kamchiliklari bilan birga bu davrda ko'rsatuv, teleteatr, telefilm namunalarini yaratish imkoni paydo bo'ldi. Ayni chog'da ijtimoiy voqelikda mavjud mafkuraviy tazyiqlar teleko'rsatuvlarga ta'sirini o'tkazdi. Natijada mafkuraga moslashish tendensiyasi ayj oldi. 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlariga kelib televideniye kuchli mafkuraviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, televizion ijodkorlar yaratilgan badiiy janrdagi asarlarga badiiylik jihatiga sayqal berish uchun imkoniyatlar topdilar. Bu imkoniyat televideniya televizion aktyorlik kashfiyotlarining paydo bo'lishi hamda iste'dodli, hamfikir, hammaslak san'atkorlar bir paytda jam bo'lishlari hosilasidir.

Lekin har bir janr o'zining uslubi, voqelikni o'ziga xos tarzda ko'rsatish bilan ajralib turadi. Televizion badiiy janrlar o'z birligi jihatidan o'ziga xos bo'lmagan boshqa janr elementlaridan foydalanishi mumkin. Televideniye ko'p janrli san'at turi, u o'zining yangidan-yangi shakllarini izlamoqda, shu bilan birgalikda uning ko'rsatuv shakli va uslubi ham shuni talab etadi.

Birgina «Otalar so'zi — aqlning ko'zi» turkumidan beriladigan ko'rsatuvning o'zidayoq uch janr mujassam. Bular: suhbat, intervyu va drama janridir. Lekin shunga qaramay bu janrlar bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldirib boradi, ko'rsatuv sifatini, shaklini o'zgartiradi, saviyasini ko'taradi.

Shuningdek, teledramaturgiya va televizion janr o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichini o'tadi. Badiiy televideniyaning mustaqil mahsuloti bo'lmish badiiy janrdagi «Otalar so'zi — aqlning ko'zi», «Televizion miniatyuralar teatri» kabi ko'rsatuvlar yuzaga keldi. Zero, bu davrda televizion badiiy ijodda sifat jihatidan o'zgarishi, izlanish va tajribalari ko'zga tashlanishi bilan e'tiborlidir.

### 3. O'zbekiston badiiy televideniyesida uslub va izlanishlar

1973-yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston televideniyesining ko'rsatuvlari rangli tasvirda berila boshladi. Bu jarayon ko'rsatuvlarning yanada serjilo bo'lishini ta'minladi. O'zbekistonda rangli televideniye ishga tushgach, rang-tasvir o'z jilosi orqali bayram kayfiyatini berib, tuyg'ularga qattiq ta'sir o'tkazishga qodir ekanligi aniqlandi. Ranglar tovlanishiga qarab tomoshabinlar ayancli turmushni ham unutishi mumkin. Rangli televideniye tufayli ko'rsatuvlarning badiiy emotsionallik kuchi ortdi.

1970-yillarda teletomoshabinlar e'tiborini teleekranga jalb qilish maqsadida televideniya izlanishlar kuchayib ketdi, badiiy janrdagi ko'rsatuvlarning mavzu doirasi kengaydi, izlanishlarning natijasi bo'lmish yangi ko'rsatuvlar paydo bo'ldi. «Ona madhiyasi» (mual. A.Haydarov), «Sihat-salomatlik» (mual. S.Obidov) bilan bir qatorda turkum ko'rsatuvlar ham tobora tomoshabinlarning e'tiborini torta boshladi hamda tomoshabinga ma'lum mavzu haqida ko'proq va chuqurroq ma'lumot berdi.

1976-yilda O'zbekiston televideniyesida «Quvnoqlar va zukolar» ko'rsatuv paydo bo'ldi. Bu ko'rsatuv quvnoqlar va zukolar bahsi bo'lib, unda talabalar topqirligi, quvnoq va xushchaqchaqligi namoyish etilar edi. Ko'ngil-ochar dastur qatorida bo'lgan ko'rsatuv publisistika, qo'shiq, she'r va raqs san'atlarini o'z ichiga olardi. Uni ijro etish uslublari estrada, teatr, kino san'atlariga taqlid yo'li bilan belgilanardi. Ko'rsatuvda qo'yilgan shartlar, belgilangan vazifalar, topishmoqlar nihoyatda sayoz, jo'n va hatto bachkanaligi tufayli tezda teleekrandan tushib ketdi. Chunki ijodiy izlanishlar hamisha ham muvaffaqiyat keltirmaydi.

Taqlid, qiyoslash kinoda ham mavjud bo'lib, agar undagi badiiy saviya darajasi avvalgisiga o'xshash yoki yuqori bo'lsa — bu muvaffaqiyat keltiradi.

O'zbek televizion teatri mahsulotlarining turli shakllari namoyon bo'la boshladi. Ikki ulkan janrning uyg'unlashuvi natijasida badiiy janrning yangi izlanishlari kuchaydi.

O'zbekiston badiiy televideniyesida uning izlanish namunalari ko'rına boshladi. 1970-yillarga kelib, adabiyot, san'at, xususan, kino,



Yangi televizion minora.

teatr hamda televideniya yevropalashish tendensiyasi sezila boshladi. Buning mahsulini biz televideniya orqali yaratilgan epik shakldagi asarlar L.Tolstoyning «Rus xarakteri» (1972-y., rej. H.Aliyev), G.Kuprinning «Yoqut ko'zlik bilakuzuk» (1973-y., rej.T.Hamidov) asarlari misolida ko'ramiz.

Adabiy asarlarning teleteatrga kirib kelishining sababi, birinchidan, ma'lum sanalar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan adabiy asarning jamoatchilik orasida e'tibor qozona boshlaganidan, deb izohlash mumkin. Bu yillarda teleteatr uchun xos narsa shuki, adabiy asarlarni o'zlashtirishda uning badiiy qimmatini yo'qotmaslikka harakat qilinishi hal qiluvchi element bo'ldi. 1968-yilda O'.Umarbekovning «Odam bo'lish qiyin» (rej. M.Mahkamov) va 1982-yilda O'.Hoshimovning «Bahor qaytmaydi» (rej. M.Mirzaahmedov) asarlari asosida telespektakllar yuzaga keldi.

1978-yilda R.Fayziyning (rej. M.Mahkamov) «Hazrati inson» romani asosida ko'p seriyali televizion spektakl yaratildi. Bu telespektakl batafsil bayon shaklida namoyish etilib, mualliflar asosiy qahramonlarning faoliyatini keng yoritib berganlar. Natijada psixologik kolliziyalarga kirib borish imkoniyati yaratildi.

O.Yoqubovning «Diyonat» (1979-y.), «Ulug'bek xazinasini» (1980-y.) hamda O'.Usmonovning «Girdob» (1980-y.) romanlari asosida yaratilgan telepostanovkalar ham ichki kolliziyalarga kirib borish imkoniyatini yaratdi. Bu telepostanovkalar ko'p seriyali bo'lib, televideniyaning oltin xazinasidan joy olgan.

Ulug'bek obrazi kino ekrani hamda teatr sahnasida yaratilgandi. Televideniya ham bu tarixiy obrazni gavdalantirish borasida izlanishlar olib borildi. Rejissor M.Yunusov «Ulug'bek xazinasini» telespektaklida tarixiy qahramonlarni tiklabgina qolmay, tanlagan janriga sinchkovlik bilan yondashib, asar mohiyatini zamon ruhiga moslashtirishga harakat qilgan. Televideniyaning ifoda vositalarini to'la ishga solgan holda Ulug'bek fojeasini tasvirlashga uringan.

Rejissor «Ulug'bek xazinasini» romanini telespektakl shakliga ko'chirar ekan, unda tarixiy ruh naqadar kuchli ekanligini, muhim davriy muammolar badiiy talqin etilganligini isbotlaydi (mual. A.Shorahmedov, X.No'mon). «Ota» (mual. J.Sharipov), «Xorazm» singari tarixiy, inqilobiy va avtobiografik romanlarni muvaffaqiyatli ekranlashtirgan Maqsud Yunusov mazkur asarni ham, tarixiy davr haqiqatining mohiyatini ham chuqur tushungan. Buni telespektakl-

dagi qahramonlar siyosida aniq ko'ramiz. Biroq obraz zamiridagi juda yaxshi belgilangan bu muhim fikr, tasvirlangan amaliy xatti-harakatlar xolisona ko'rsatilganda obrazning hissiy qimmatini yanada oshardi.

Telespektaklda aktyor P.Saidqosimov Abdullatif obrazidagi murakkab ijtimoiy psixologik jarayonni ochib berishga harakat qilgan. Uni qilmishlarining intiqomi hamisha hamma yerda ta'qib etadi. Artistning mahorati shundaki, u ruhiy kechinmalarini vijdon azobi sifatida emas, balki, taxtdan judo bo'lib qolish vasvasasi, o'limdan qo'rqish vahimasi sifatida talqin etadi.

Albatta, besh qismdan iborat bu telespektaklda mahorat bilan tasvirlangan Urgut tog'i manzarasi, Usta Temir istiqomat qiladigan g'ordagi voqealar tasvirlangan epizodlarning natural ifodasi spektakl badiiyligini oshiradi. Lekin bu hol qo'shimcha ijodiy mehnat va ayrim moddiy masalalarga bog'liq.

Ssenariy muallifining mahorati shundaki, besh qismdan iborat telespektaklning har bir qismi kompozitsion jihatdan puxta ishlangan. Shu bilan birga qismlarning hayajonli detallar, qiziqish uyg'otuvchi davomli epizodlar orqali puxta bog'lanishi tomoshabinlarda g'oyaviy estetik tuyg'u paydo qiladi. Telespektaklda o'rinli qo'llanilgan qo'shaloq sahnalar bunday taassurotni oshiradi. Masalan, Ulug'bekning zindonda yotgan Ali Qushchi tasavvurida paydo bo'lishi shogirdiga sabot, matonat, iroda bag'ishlaydi.

«Ulug'bek xazinasini» telespektakli o'zbek telesan'atining kamolotidan darak beruvchi katta tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyatga ega tarixiy mavzudagi zamonaviy asardir. Albatta, tarixiy shaxslarning badiiy obrazini yaratish mas'uliyatli va ayni paytda murakkab vazifa-dir. Chunki tarixiy ma'lumotlarni qayta hikoya qilish va sahnalashtirish bilan ish bitmaydi, tomoshabinga buning keragi yo'q. Ijodkor tarixni o'z tafakkuri orqali idrok qilib, yaxlit sharoit, muhit ichida, yagona g'oya asosida rivojlanadigan dramatik syujet shaklidagi, jonli hissiyotlar, kechinmalarga boy qahramon obrazini yaratgandagina adabiy asardan televizion badiiy asar yuzaga kelishi mumkinligini rejissor M.Yunusov televideniya sharoitida isbotladi.

1982-yilda B.Boyqobilovning «Kun va tun» qissasi asosida (rej. M.Yunusov) ikki qismli televizion asar yaratildi. Telespektaklning birinchi qismida Boburning Samarqanddan chiqib ketishi, Kobul arkidagi kechinmalari hikoya qilinsa, ikkinchi qismida Agrada



bo'lgan voqealar, sarguzashtlar namoyish etiladi. E'tiborli jihati shundaki, Boburni birinchi marta teleekranda ko'rdik (Bobur rolini artist R.Avazov ijro etgan). Bu aynan badiiy televideniyeining yutug'idir. Aktyorlar yaxlit ansamblni tashkil etib, uni ifoda va ishoralari, muomala munosabatlari bilan Bobur dunyosini ko'rsatishga urnadilar. Epizodik rollarni ijro etgan R.Ibrohimova (hind ayoli), G.Sa'dullayeva (Ma'suma), T.Xonto'rayev (Singx) va boshqa aktyorlarning ham xizmatlari katta.

1986-yilda rejissor M.Yunusov yozuvchi O.Yoqubovning «Diyonat» romani asosida yaratilgan videofilmdagi zamondosh obrazini tahlil etishga chuqur ma'naviyat bilan yondashgan. Rejissor inson uchun eng zarur bo'lgan vijdon, insof, iymon, diyonat negiziga putur yetishiga qarshi turar ekan, bu kurashni g'oyaviy poydevor qilib oladi va shu asosda personajlarni guruhlarga ajratib, o'z xulosasini chiqaradi.

Roman bir kishining ijodi, adibning yutug'i bo'lsa, film katta ijodiy jamoaning mahsulidir. «Diyonat» videofilmini suratga olishda ellikka yaqin artist, operator, rassom, grimchi, rejissor yordamchilari ishtirok etishgan. Rejissor M.Yunusov so'z san'ati bilan televideniye san'ati orasidagi mushtaraklik va tafovutni nozik his etadigan, badiiy, hattoki kichik personajlar zamirida yotgan estetik ma'no — konsepsiya tagiga chuqur yetadigan sinchkov san'atkor. U televideniye badiiy asarlarni ekran mulkiga aylantirishda rejissorlikni san'at darajasiga ko'targan fidoyilardan.

Besh qismdan iborat «Diyonat» videofilmi ijodiy jamoaning katta yutug'i bo'lib, O'zbekiston televideniyesining yirik romanlarni ekranlashtirish yo'lidagi muvaffaqiyatli dadil qadamlarining davomidir. U adabiyot bilan badiiy televideniye o'rtasidagi rishtani mustahkamlashga, teledramaturgiyaning rivojiga hissa qo'shdi. Televideniye badiiy romanlarni ekranlashtirish an'anasi mavjud bo'ldi, masalan, rejissor H.Aliyev yozuvchi N.Dumbadzening «Abadiyat qonuni», rejissor M.Yunusov yozuvchi Oybekning «Navoiy», rejissor M.Mahkamov Oybekning «Qutlug' qon» romanlari asosida videofilmlar yaratdilar.

To'rt qismli «Girdob» videofilmining muvaffaqiyatini ta'minlagan omillar birinchidan, romanning kuchliligi, baquvvat va pishliqligi, ikkinchidan, ssenariy muallifi va postanovkachi rejissor M.Yunusovning yuqori professional mahoratidir.

Yozuvchi O'.Usmonovning «Girdob» videofilmi mualliflari asar ruhini mumkin qadar to'liq berishga, uning drammatizmini beshikast yetkazishga, kuchli, esda qolarli xarakterlarni murakkab kolliziyalar, nozik to'qnashuvlar asosida ochishga, tomoshabinni videofilm oxirigacha qiziqtirib, diqqatini ekranga qadab turishga muvaffaq bo'lishgan. Tajribali rejissor M.Yunusov romanning ekran variantini yaratishda asarga ijodiy yondashgan, muallif O'.Usmonov bilan maslahatlashib ish tutgan. Saltanat, Muhiddin Jabborovich obrazlarini yangicha talqin etib, asar mazmuniga putur yetmagan holda yangi voqealar kiritgan. Aynan televizion dramaturgiya namunalarining teleekrandagi namoyishi muvaffaqiyatli tarzda ketayotgan paytda «Girdob» videofilmi ularning davomi sifatida televideniye orqali namoyish etildi.

1970-yillarning oxiri, 1980-yillarning boshida O'zbekiston badiiy televideniyesida yangi janrdagi uslubiy izlanishlar hamda kino, teatr va televideniyeining o'zaro hamkorligi mahsuli sifatida «O'zbektelefilm» studiyasida «To'maris» film-baleti tasvirga tushirildi.

O'zbekistonda film-balet janrida taniqli kinorejissor L.Fayziyev («Jonlangan miniatyuralar», «Dilorom») ijod qilgan. Lekin televideniye badiiy janri bu ishga kinorejissor N.Mahmudov qo'l urdi.

Televideniye badiiy janrining paydo bo'lishini baletmeysterning nomi bilan emas, balki televizion dramatik rejissor nomi bilan bog'lash mumkin. Rejissor N.Mahmudovgacha bu janrdan hech kim ijod qilmagan, deb aytolmaymiz. Chunki, balet spektaklidan parchalar tasvirga tushirilgan, lekin to'laqonli televizion film-balet yaratilmagan edi.

1986-yilda «O'zbektelefilm» studiyasida yaratilgan «To'maris» badiiy film-baleti o'tmishda bosqinchilarga qarshi kurashgan sak qabilalari va ularning sardori To'marisning jasorati haqida hikoya qiladi.



«Ulug'bek xazinasi» telespektaklidan lavha.

«To'maris» film-baletini ekranlashtiruvchi ijodkorlar balet san'atini hamda televizion ifoda vositalarini o'rinli uyg'unlashtirish, chog'ishtirish (rapid, montaj, ohista harakati, murakkab syomkalar)dan o'rinli foydalanganlar. Shu jihatdan ham «To'maris» badiiy film-baleti O'zbekiston televideniyesi faoliyatida yangi janrning yuzaga kelishiga solingan asos deyish o'rinlidir. Afsuski, shu kunga qadar ijodkorlar televizion film-balet janriga qayta murojaat etmadilar. Shu ma'noda «To'maris» televizion film-baleti O'zbekiston badiiy televideniyesidagi yagona film-baletligicha qolmoqda.

Adabiyot va kino san'ati orasida turuvchi videofilm ssenariysida drama janri bilan kinossenariylarning eng yaxshi xususiyatlari uyg'unlashib, teledramaturgiyaning rivojiga katta hissa qo'shdi. Rejissor M.Yunusov bu sohada yetarli tajriba to'plagan. U 5 qismdan iborat «Ulug'bek xazinasi» (O.Yoqubov), 2 qismli «Vafodor» (V.G'ofurov), 1 qismli «Palatkada yozilgan she'r» (E.Vohidov), 2 qismli «Tun va kun» (B.Boyqobilov), 4 qismli «Girdob» (O'.Usmonov) asarlarini telespektakl va videofilm qilish jarayonida, uni ekranlashtirish borasida talay izlanishlar olib borgan va televizion ifoda vositalaridan o'rinli foydalangan, televizion uslub va janrlarni rivojlantirish borasidagi izlanishlarga hissa qo'shgan.

---

### III BO'LIM

#### 1. San'at mavzuini yoritadigan televizion ko'rsatuvlar: izlanishlar va mahorat muammolari

O'zida jurnalistika, fan, san'at, ilmiy-texnik tafakkur, iqtisodiyotning eng ilg'or yutuqlarini birlashtirgan televideniye yigirmanchi asrning eng murakkab hodisalaridan biridir. Televideniye boshqa ommaviy axborot vositalari orasida jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatishning eng kuchli mexanizmiga ega bo'lgan holda ommaning qarashlari, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy yo'nalishlarini shakllantiradi. Mana shu nuqtai nazardan televideniyaning ahamiyati beqiyosdir.

Yuksak ma'naviy an'analar asosida sog'lom jamiyatni shakllantirish, uyg'un kamol topgan shaxsni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan qo'yilgan asosiy vazifalardan biridir. XXI asrda zamonaviy madaniyat muammolari hamda o'zbek xalqining ma'anaviy merosini tiklash masalalari O'zbekistonning madaniy va iqtisodiy hamjamiyatga faol integratsiyalashuvi munosabati bilan yangi ma'no va mazmun kasb etmoqda.

Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy masalalarga katta e'tibor berilayotgan bir paytda, televideniyaning kommunikativ imkoniyatlarini o'rganish dolzarb masaladir.

Televideniye jamiyatning ma'naviy hayotida yuz berayotgan voqealarni aks ettirishga mas'ul. Shu sababli madaniy jarayonlarni muqobil aks ettirish muammosi badiiy-axborot ko'rsatuvlari uchun asosiy o'rinda turadi. Shuningdek, televideniye ommaning estetik ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, aholining madaniy ehtiyojlariga xizmat qilish vazifasi turibdi. Televideniye kanallari orqali shaxsning ma'naviy olamiga ta'sir ko'rsatib axloqiy mukammal, ma'naviy boy shaxsni kamol toptirishga harakat qilinadi.

Zamonaviy teleekranda san'atning barcha turlari va janrlari namoyon bo'ladi. Televideniye ham san'at asarlarini, badiiy filmlar, konsertlar, teatr spektakllarini translyatsiya qiluvchi, zamonaviy va an'anaviy madaniyat qadriyatlarini haqida ko'rsatuvlar tayyorlovchi,

shuningdek, spektakllar, badiiy va hujjatli telefilmlar yaratuvchi vosita sifatida ish ko'radi. Translyatsiya qilinadigan hamda televideniyaning sa'y-harakatlari bilan yaratiladigan artefaktlar jam bo'lgan holda ko'rsatuvlarning umumiy dasturida madaniy-badiiy yo'nalishdagi ko'rsatuvlar ajralib turadi.

Muallifning fikricha, televizion ko'rsatuv televideniyaning zaxira qismini tashkil etadi. San'at haqidagi madaniy-badiiy ko'rsatuvlarning teatr san'atining tabiatini organik singdirib olgan telespektakldan, kinematografiyaga yaqin telefilmdan va boshqa har xil teletranslyatsiyalardan farqi televideniyaning xususiy mahsuloti ekanligidadir. Teleko'rsatuvlarning bazis birligi sifatida, san'at to'g'risidagi ko'rsatuvning rasmiy-mazmuniy elementlarini tahlil qilishni nazarda tutadigan ta'rif bo'yicha umuman televideniyaning ijodiy, intellektual va professional darajasini baholashda muhim va yetarlicha ishonchli mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Televideniyaning ikki tomonlama tabiatini – birinchidan, ommaviy axborot va targ'ibot vositasi, ikkinchi tomondan san'at turi ekanligini hisobga olgan metodologik prinsipni qo'llash sharti bilan amalga oshirish mumkin.

Ko'pchilik teletomoshabinlar uchun televideniye nafaqat axborotning bosh manbai, balki ta'lim, san'at, siyosat, fan dunyosiga, ya'ni tabiat va jamiyat olamiga chinakam «daricha» hisoblanadi. Televideniye odamlarni har xil qit'alarda yashaydigan turli xalqlarning hayoti va madaniyati bilan tanishtiradi; u juda ko'plab odamlarni jahon san'atining durdonalariga oshno qiladi.

Biroq televideniyaning salbiy tomonlari ham bor: zamonaviy inson asta-sekin kitob o'qishdan chiqib, ommaviy madaniyatni afzal biladi; televideniye san'at asarlarini passiv idrok etishga o'rgatadi, estetik qadriyatlar mezonini tenglashtiradi.

Inson ongi tabiat va jamiyatning oliy ijodi sifatida juda nozik va bo'sh narsa. Uni ehtiyot qilish zarur. Bunda bir vaqtning o'zida taraqqiyotning buyuk yutug'ini namoyon qiladigan ko'plab xavflarni ham tug'diradigan televideniye singari qudratli ta'sir vositasidan foydalanishni nazarda tutish zarur. Texnik taraqqiyot yo'ldosh va kabel aloqa vositalarining yoyilishi munosabati bilan O'zbekiston televideniyesi bugungi kunda jahon kommunikatsiya jarayonining bir qismiga aylandi. Zamonaviy televideniye bilan bog'liq muammolarning ko'pchilik qismi endilikda bizning ham muammolarimiz

hisoblanadi, jamiyat madaniyatini shakllantirish jarayonida esa televideniye o'zida ifodalaydigan yutuqlar ham, tahdidlar ham biz uchun teng darajada dolzarbdir.

Ushbu xavflarning kuchsizlanishi va oldini olish hamda madaniyatning tijoratlashuvi bosimi ostida yot qadriyatlar ekspansiyasi, madaniy globallashuv jarayonlarining kuchayishi ko'p jihatdan televideniyaning o'ziga bog'liq. Milliy madaniyat ushbu savollarga javobini izlamoqda. Jamiyatning madaniy va ma'naviy asoslari shakllanishiga televideniyaning ijobiy ta'sirini kuchaytirish ushbu javoblarga bog'liq. Shu sababli madaniy-axborot ko'rsatuvlari asoslanadigan asosiy g'oyaviy-badiiy prinsiplarni aniqlab olish, madaniyat va san'at to'g'risidagi ko'rsatuvlarda televizion ijodkorlikning zamonaviy mezonlarini belgilash juda muhimdir.

Demokratik e'tiqodlarga asoslangan mustaqillik mafkurasini shakllantirish O'zbekistonning madaniy-axborot makoni tobora ochiqligi jarayoni bilan birga kechmoqda. Bu televideniya oldida turgan vazifalarni aslo soddalashtirmaydi. Televideniyaning kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirish, O'zbekistonning butun hududida yangi telekommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish teletomoshabinlarning manfaatlarini tabaqalashtirishga yordam beradi. Teletomoshabinlarda bugungi kunda istalgan daqiqada boshqa kanalga o'tishning keng imkoniyatlari mavjud.

Televideniyaning jamiyatga madaniy ta'sirini real baholashda efirga uzatilayotgan ko'rsatuvlarning ijodiy va professional darajasini mazmuniy-rasmiy mezonlarga aniq belgilashi mumkin. U yoki bu ko'rsatuv ushbu mezonlarga qanchalik aniq muvofiq bo'lsa, uning teletomoshabinlarga ta'sir ko'rsatish ehtimoli shuncha ko'p bo'ladi.

Ijodiy telejarayon mezonlari shakllantirilishini uni o'rganish jarayonida kuzatish mumkin. Madaniyat kanali sifatida televideniye ilmiy o'rganish o'tgan asrning 50–60-yillarida boshlandi. U



Aziz Nesin hajviy hikoyalari asosida tayyorlangan ko'rsatuvdan lavha.

bilan dastlab teatr sohasidagi mutaxassislar qiziqdi. So'ngra, televideniye ko'p funksiyaliligi va texnologik yutuqlarga moyilligi e'tirof etilgandan keyin «kino va televideniye» so'z birikmalari odatdagi so'zlarga aylandi.

Shu o'rinda M.S.Kagonning «Tomosha san'atlari oilasi: kino, televideniye, teatr»<sup>1</sup> maqolasiga murojaat qilamiz. Maqolada taniqli faylasuf televideniye, kinematografiyaning o'ziga xosligi sifatida teatr san'atining qonunlari va ifoda vositalaridan yetarli darajada foydalanayotganligini ishonchli ravishda isbot qildi.

Nihoyat, XX–XXI asrlar chegarasida televideniye ommaviy axborot kommunikatsiyalariga tegishli deb hisoblash tendensiyasining mustahkamlanayotganligi aniq kuzatilmoqda. Agar san'atda asarning emotsional va ratsional jihatlari bir xilda muhim bo'lsa (ba'zan ulardan birinchisi ikkinchisidan ustunlik qiladi) va axborot bilan bog'liq jihatga unchalik urg'u berilmasa, tanqid, san'at haqidagi bilimlarda, madaniyat to'g'risidagi ko'rsatuvlarda ijodning ushbu sohasi bir-biriga nisbatan qo'shilib ketadi, o'rin almashadi. Bunda, intellektual, tahliliy asos muhimroq, axborotga boylik keyingi o'rinda turadi.

Ko'rsatuvning borishini zarur intellektual va hissiy oqimga yo'naltirish, mavjud axborot oqimini erkin boshqarish faqat teleekranda shaxsning qo'lidan keladi.

Intellektual asos san'at to'g'risidagi televizion ko'rsatuvlarning asosiy mezonlaridan biri ekan, u holda yana bir mezon — teleekranda qanday maqomda — boshlovchi yoki ekspert, ko'rsatuvning «egasi» yoki uning «mehmoni» maqomida hozir bo'lishidan qat'i nazar shaxs hozir bo'lishidir.

Faqat professional yetuk, o'z sohasini biladigan boshlovchi (odatda, u ko'rsatuv muallifi ham bo'ladi) zamonaviy san'at muammolari haqida jiddiy muloqot olib borish tashabbusi bilan chiqishi mumkin. Aks holda kasb bilimiga va fuqaroviy yetuklikka ega bo'lmagan boshlovchining hech vaqoga arzimligini tezlikda fosh qilib qo'yadi.

Yana bir mezon ko'rsatuv shakli muammosiga, uning audiovizual estetikasiga tegishlidir. Madaniyat to'g'risidagi ko'rsatuvlar boshqa mavzudagi bloklar ko'rsatuvlaridan ular tomosha san'atlari — teatr va kinoning ifodaviy vositalaridan foydalanishga taqqoslab

<sup>1</sup> M.S.Kagonning «Системный подход и гуманитарное знание» kitobida e'lon qilingan. — L., 1991.

bo'lmaydigan tarzda ko'proq darajada asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ko'rsatuv muhiti, uning intonatsiyasi, o'z dramaturgiyasi, temporitm, jonli va xronikal kadrlar montaji, fotomateriallar va badiiy illyustratsiyalar, musiqali bezak, studiya interyeri dizayni, mi-zansahnalashtirish — televizion san'at elementlaridandir. Ular ma'naviy muomala muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Na bosma san'atshunoslik tanqidida, na jurnalistikada bunchalik bevosita shaklda mumkin bo'lmagan to'g'ridan-to'g'ri ma'naviy muomala faqat televizion ko'rsatuvning o'ziga xos belgisidir. Shu sababli «ma'naviy muomala vaziyati» tushunchasi, bizning fikrimizcha, o'zida, bir tomondan publisistika parametrlarini, ikkinchi tomondan estetik parametrlarini birga qo'shib olib boradigan madaniyat to'g'risidagi ko'rsatuvlarning mazmuni va shaklini tushunishda asosiy o'rinda turadi.

Televideniye axborot berish, ko'ngilocharlik, ta'lim, ma'rifiy funksiyalari orasida mutaxassislar ko'ngilocharlikni birinchi o'ringa qo'yadilar. Ko'ngilocharlik televideniye shug'ullanishi kerak bo'lgan asosiy funksiya emas, balki tomoshabinlarning har xil toifalari uchun axborot va tahlil, siyosat va madaniyat manbayidir. Biroq televideniye ko'ngilochar funksiyasi yetakchi rol o'ynashi shubhasizdir, bunga asosiy iste'molchilar ommasi, shu jumladan yoshlarning talabi katta, u televideniye moliyalashtirishning muhim manbayi hisoblanadi.

Biroq biz «ko'ngilocharlik» tushunchasiga birmuncha kengroq va, ayni vaqtda, oddiy va tushunarli mazmunni yuklaymiz, ya'ni istalgan kanaldagi har qanday ko'rsatuv tomoshabiniga qiziqarli va maroqli tarzda taqdim etilishi kerak. Qadimgilarning dramatik san'at haqidagi «qiziqtirib o'rganish» degan formulasi televideniye to'liq darajada tegishlidir. Yanada aniqroq qilib aytish mumkinki, tomoshabinni qiziqtirishga, uning tasavvurini uyg'otishga, qiziquvchanligini oshirishga qodir bo'lmagan zerikarli «san'at» singari zerikarli ko'rsatuvning ham umuman ma'nosi bo'lmaydi.

## **2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston televideniyesida madaniy-badiiy ko'rsatuvlar**

Mustaqillik yillarida televideniye rivojlanishida ikki davr ayon ko'zga tashlanadi. Birinchi davr 1991-yildan 1996-yilgacha davom

etdi. Bu davrda ma'naviy sohadagi yangilanishlar televideniyada bugungi kungacha shakllangan ko'rsatuvlar setkasi doirasida aks etdi. Mamlakat hududida bir kecha-kunduzda 9 soat ko'rsatuv dasturlarini uzatadigan birinchi davlat kanali vujudga keldi. Telefirning kattagina qismi badiiy filmlar, teatr spektakllari, ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlar, hujjatli filmlar, telefilmlar va telespektakllar namoyish qilish uchun ajratildi. Madaniyat va badiiy ijod sohasida televideniye asosan san'at asarlarini namoyish qilish bilan shug'ullana boshladi. San'at arboblari qatnashgan ko'rsatuvlar efirga berildi, san'at namoyandalari haqidagi televideniy portretlar yaratildi. Biroq mustaqillikning dastlabki yillarida televideniye tabiiy ravishda yangi rasmiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy axborot bosimi ostiga tushib qoldi. Ko'rsatuvlar setkasi tubdan yangilanmadi, cheklangan vaqt doiralari bilan bog'liq vaziyat o'zgarimasdan qoldi.

Ikkinchi davr 1996-yildan boshlandi. Bu davrga kelib milliy televideniye ko'rsatuvlariga e'tibor kuchaydi, «Yoshlar» telekanali tashkil etildi, «Ma'naviyat» tahririyati tuzildi, bevosita axborot-badiiy ko'rsatuvlar tahririyati tomonidan yaratiladigan madaniyat va san'at haqidagi yangi ruknlar, ko'rsatuvlar turkumi birmuncha ko'paydi. Efirga chiqish vaqti ham o'zgardi — endilikda madaniyat va san'at haqidagi ko'rsatuvlar tomoshabinlar uchun eng qulay vaqtda berila boshlandi.

90-yillar o'rtalariga kelib O'zbekiston televideniyesida tarkibiy o'zgarishlar davri boshlandi. Rossiya televideniyesi ko'rsatuvlari asta-sekin qisqarib bordi va keyinhalik butunlay to'xtatildi. Rossiya televideniyesi dasturlarini ko'rmoqchi bo'lganlar kabel va yo'ldosh televideniye ning jadal rivojlanayotgan tarmog'idan foydalana boshladilar.

Ayni vaqtda O'zbekiston televideniyesining asosiy kanallarida ko'rsatuvlarning umumiy hajmi o'sib bordi. Ko'rsatuvlarning ko'pchilik qismi ikki asosiy telekanal — «O'zbekiston» va «Yoshlar» telekanallariga to'g'ri keladi. Bu kanallar tegishli ravishda bir kunda 18 va 16 soat davomida ishlay boshladi. Ma'naviy meros va zamonaviy madaniyat haqidagi ko'rsatuvlar hajmi ham o'sib bordi. Bu ko'rsatuvlarni tayyorlash «Ma'naviyat» bosh tahririyatining ustuvor vazifasiga aylandi.

1997-yilda «Ma'naviyat» bosh tahririyatining tashkil etilishi ma'rifiy-ta'lim jarayoniga yo'naltirilgan «Ma'naviyat va ma'rifat»

davlat dasturini amalga oshirishda televideniye qo'shgan munosib hissa bo'ldi. Ushbu tahririyatning sa'y-harakatlari bilan keyingi yillarda asosiy davlat telekanallarida madaniyat va san'at haqidagi aksariyat ko'rsatuvlar tayyorlandi.

Ushbu tahririyatning faoliyatida ikki asosiy yo'nalish aniq namoyon bo'ldi. Birinchi yo'nalish — zamonaviy san'at to'g'risidagi axborot-tahlil ko'rsatuvlarini shakllantirish. Ikkinchi yo'nalish — ma'naviy meros, o'tmishdagi tarixiy siymolar, an'anaviy badiiy madaniyat haqida ko'rsatuvlar tayyorlash.

«Ma'naviyat» tahririyatida ushbu yo'nalishlarning yaxlitligi o'zbek madaniyati rivojlanishining o'ziga xosligini aks ettiradi. Bu o'ziga xoslik tektonik ijtimoiy-siyosiy siljishlar davrida teran madaniy-tarixiy ildizlarga murojaat qilish uchun asosiy omil bo'ldi. Mustaqillik yillarida milliy o'zlikni anglash, zamonaviy ijodkorlar bilan birga yirik tarixiy shaxslar ma'naviy merosidan, an'anaviy san'atidan foydalanish ustunlik qildi.

Shunday qilib, 1997–2005-yillar davri madaniyat va san'at bilan bog'liq ko'rsatuvlar salmog'i oshganligi, milliy ko'rsatuvlar hajmi kengayganligi bilangina izohlanib qolmaydi, balki televideniye ning strategiyasi, davlat kanallarining ma'rifiy-ta'lim vazifalariga aniq maqsadni ko'zlab yo'naltirilganligi bilan ham e'tiborlidir.

Asosiy davlat telekanali bo'lgan «O'zbekiston» telekanali oldida aholiga axborot berish va ma'rifat tarqatish, ya'ni aholini yuksak didli, axloqiy va estetik standartlar bilan ajralib turadigan ma'rifiy, axborot-ko'ngilochar dasturlar bilan ta'minlash vazifasi turibdi.

Mustaqillik yillarida milliy o'zlikni anglashga, millatning madaniy o'ziga xosligini mustahkamlashga yo'naltirilgan ko'rsatuvlarni tayyorlab, efirga uzatish birinchi kanal faoliyatining asosiy belgisiga aylandi. Madaniyat va san'at to'g'risidagi asarlar yordamida jamiyatda millatning qadriyatlarini, umumiy tarixiy xotira, umumiy



«Azizim» ko'rsatuvijodkorlari.

madaniyat, badiiy moddiy va ma'naviy meros haqidagi umumiy tasavvurlar shakllantiriladi. Bir tomondan, ma'naviy merosni tiklash sohasidagi davlat ustuvorliklari, ikkinchi tomondan, tobora o'sib borayotgan madaniy globallashuv tufayli ushbu vazifa O'zbekiston televideniyesi uchun alohida ahamiyat va o'ziga xoslik kasb etdi.

«Yoshlar» davlat telekanalining tashkil etilishi nafaqat televideniye rivojlanishida, balki mamlakatning madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. Ushbu kanal o'z nomi bilan bog'liq holda avval boshdanoq yoshlarga mo'ljallangan edi.


Yoshlar manfaatlarini himoya qilish — O'zbekiston ijtimoiy va madaniy siyosatining ustuvor yo'nalishi. Yosh insonning shaxsiy xislatlari shakllanishida estetik tasavvurlar va qadriyatlar katta rol o'ynaydi. Davlat ko'rsatuvlari uchun bu axloqiylik va xulq-atvor normalari nuqtai nazaridan nojoiz syujetlar va ko'rsatuvlarni filtrdan o'tkazishgina emas, balki yoshlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan maxsus dasturlar yaratish hamdir. Bu jihatdan teledasturlarning asosiy qismini ma'naviy meros va zamonaviy san'at haqidagi ko'rsatuvlar tashkil etgan yangi telekanal tashkil etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Avval boshdanoq yangi kanal birinchi kanal bilan muvaffaqiyatli ravishda raqobatlasha boshladi, bir qancha parametrlar bo'yicha esa o'z ustunliklarini namoyish qildi. Bu ayniqsa axborot dasturlari misolida ayon bo'ldi. An'anaviy-barqaror «Axborot» dasturi bilan taqqoslaganda yangilik, tezkorlik, keskinlik, efirni tashkil etish va materiallarning zamonaviyligi jihatidan «Yoshlar» kanali ustunlik qila boshladi. Materiallarni berishdagi keskinlik, yangi mavzular va janr shakllarini izlash, ko'rsatuvlarni olib borishning dinamik tuzilishi, zamonaviy televizion estetika — bularning barchasi «Yoshlar» kanaliga nafaqat yoshlar orasida, balki jamiyatning keng qatlamlari orasida tezlikda ommaviylashish imkonini berdi.

Televideniye 2000—2005-yillar mobaynida kundalik ko'rsatuvlari mavzularini tahlil qilish madaniyat, zamonaviy va an'anaviy san'at to'g'risidagi syujetlarning umumiy hajmi butun efir vaqtining kamida to'rttdan bir qismini tashkil etishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Agar bunga badiiy filmlar, teatr spektakllari va konsertlar translyatsiyasi, telespektakllar, bevosita studiyaning o'zida musiqachilar va xonandalarning chiqishlari qo'shiladigan bo'lsa, O'zbekiston televideniyesi umumiy ko'rsatuvlarining yarmidan

ortig'i badiiy va badiiy-axborot dasturlaridan iborat deb ishonch bilan aytish mumkin.

Bunday hajm va madaniy-badiiy mavzular bloki ko'rsatuvlari korpusining ma'rifiy yo'nalishi O'ztele-radiokompaniya faoliyatida ta'limiy-ma'rifiy tendensiya ustuvorligi to'g'risidagi xulosaga kelish imkonini beradi.



«Bekat» ko'rsatuv ijdokorlari.

U yoki bu ko'rsatuvning ma'rifiy darajasi belgilanishi uning formatiga, mualliflar tomonidan tanlangan janrga bog'liqdir. Janr ideal olganda ifodalash shaklini, ijodiy sa'y-harakatlarning yo'naltirilganligini taqozo etadi. Ma'lumki, janrning belgilanganligi, «buyurtma berilganligi» tomoshabinning idrok etishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq aynan «janrning belgilanganligi» umuman olganda zamonaviy televideniye, madaniyat va san'atga bag'ishlangan ko'rsatuvlarga nisbatan ayniqsa eng ko'p mujmallik hisoblanadi. Chunki ular san'at va publisistikani o'z ichiga oladigan chegara mavzuli segmentida joylashgan.

Eng yosh televideniye yaratilgunga qadar paydo bo'lgan ko'plab janrlarni ham o'z ichiga oladi. Bu janrlarning ayrimlari adabiyot va jurnalistika uchun, boshqalari kinematografiya va teatr uchun umumiy hisoblanadi. Televideniye tabiati ijodiy faoliyatning har xil janrlarini sintezlashtiradi. Bular rejissura, jurnalistika, san'atshunoslik, operatorlik ishlari va tomosha san'ati tizimining boshqa mutaxassisliklaridir. Ushbu xususiyat televideniye san'at bilan faol hamijodkorligi haqida so'z yuritish imkonini beradi.

Televideniye boshqa san'at janrlaridan faol foydalanishdan tashqari allaqachonlardan beri o'z janrlarini ham yaratadi. Ushbu janrlar faqat shartli ravishda qabul qilingan janrlar tasnifiga bo'y-sunadi. Masalan, badiiy ko'rgazma ochilishi haqidagi syujetni qanday tavsiflash mumkin. Ushbu syujetda reportaj elementlari, rassom bilan intervyu, san'atshunosning sharhlari, boshlovchining bahosi kabi elementlari mavjud. Bularning barchasi reportaj olib boruv-

chining lirik intonatsiyalari bilan uyg'unlashgan. Amaliy vaziyatda suratga olingan intervyuni uy interyeri fonida suratga olingan suhbatdan qaysi janr prinsipi bo'yicha farqlash mumkin? Ko'pincha yirik rassom yoki yozuvchi haqidagi ko'rsatuv o'sha rassom haqidagi telefilmdan juda kam farq qiladi. Bunday ko'rsatuvlar badiiy asos O'zbekiston televideniyesi uchun asosiy belgi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu nafaqat televideniye tili bilan, balki Vatan televideniyesi an'analari bilan belgilanadi.

Janrlararo aloqalar, janr elementlarining transformatsiyasi va o'tishi, shunday qilib, zamonaviy televideniyaning xarakterli xususiyati hisoblanadi. Boshqa tomondan, ular orqali madaniyat va san'at to'g'risida ko'rsatuvlar yaratiladigan va axborot, tahliliy, badiiy-publisistik janrlarga ajratish mumkin bo'lgan yetarlicha aniq bo'lgan janr guruhlari mavjud. Madaniy hayotning to'liq manzarasini yaratish uchun voqealar, faktlar, shaxslar to'g'risidagi axborot ham, ushbu axborotning tahlili ham bir xilda muhim va zarurdir. Axborot va tahlil o'rtasidagi mutanosiblik madaniyat to'g'risidagi ko'rsatuvlarni yaratish vazifasiga kiradigan televideniye tahririyatlarining ijodiy salohiyatining qo'zg'atuvchisi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Madaniy hayot voqealari to'g'risidagi dolzarb axborot eng «sof» ko'rinishda har kuni tomoshabinlar e'tiboriga «Axborot», «Davr», «Poytaxt» axborot dasturlari orqali muntazam ravishda havola qilinadi.

### **3. Axborot dasturlarida madaniyat va san'at to'g'risidagi mavzular**

Axborot dasturlari har qanday telekanal ko'rsatuvlarining asosini tashkil etadi. Axborot dasturining tuzilishiga, axborotning xususiyatiga qarab telekanal haqida bir fikrga kelish, uning mafkuraviy yo'nalishini belgilash mumkin. «Axborot — har qanday kanalning tashrif qog'ozi»<sup>1</sup>, deb hisoblaydi televideniye tadqiqotchisi G.V.Kuznetsov.

Har kuni O'zbekistonda yuzlab madaniy hodisalar yuz beradi. Bular — ko'rgazmalar, spektakllar va kinofilmlar premyerasi, yirik san'at arboblarning yubileylari, ijodiy kechalar, ilmiy yig'ilishlar va konferensiyalar, yangi madaniyat muassalarining ochilishi, har xil

jarajadagi madaniy tadbirlar bo'lib o'tadi. Ushbu voqealarning eng muhimlari, mamlakatning eng yaxshi ijodiy kuchlarini va yetakchi madaniyat institutlarini o'zida jamlagan poytaxt, Toshkent shahrida bo'lib o'tadi.

Bundan tashqari mamlakatda har kuni siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy hayotda ijtimoiy jihatdan ahamiyatliroq boshqa voqealar yuz beradi. Bular ham axborot dasturlarida o'z aksini topishi kerak. Televideniye ommaviy auditoriyaga ega bo'lgan holda, axborotning to'liqligi jihatidan bosma matbuot bilan raqobatlasha olmaydi. Agar kundalik gazeta mamlakatning turli mintaqalaridagi madaniy hayot haqidagi besh-olti materialni e'lon qila olsa, televideniyaning bunday imkoniyati yo'q. Odatda, efir vaqtining 3–4 daqiqasida, axborot dasturining so'ngida madaniyat to'g'risidagi bitta, nari borsa ikkita syujetni berish mumkin. Ushbu syujetlar qanday tanlandi?

Birinchi navbatda voqea o'zining ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra tanlanadi. Odatda, bu mamlakatning yetakchi madaniyat muassasalari ishtirok etgan umumdavlat darajasidagi madaniy tadbir, yoxud zamonaviy san'atning rivojlanishi uchun favqulodda katta ahamiyatga ega bo'lgan voqea bo'ladi. Masalan, mamlakatning barcha teatrlari ishtirokida Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan respublika teatr festivali, o'rta asrlarning buyuk rassomi Behzod yubileyi doirasida o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya, «Sharq taronalari» musiqa festivalining kunlik rejasi, konservatoriyaning katta zalida Madaniyat jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan yosh iste'dodlar konserti, kino muzeyining ochilishi va boshqa shunga o'xshash tadbirlar. Shubhasizki, axborot dasturlari hamma vaqt ijtimoiy ahamiyatli voqealarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kun uchun muammoli va dolzarb bo'lmagan voqealar ikkinchi toifaga tegishli bo'ladi. Bularga — o'zbek madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan san'at arboblarning yubileylari, rassomlarning shaxsiy ko'rgazmalari, tanlovlar va san'atning har xil turlari, ko'riklar misol bo'la oladi. Nihoyat, madaniy hayotning ko'pdan-ko'p faktlari, kundalik badiiy jarayon uchinchi toifaga tegishlidir.

Tashabbus ko'rsatish, kundalik madaniy hayotdan qiziqarli faktlar, voqealar va muammolarni qidirib topish, yangiliklar dasturlari jurnalist va sharhlovchilarning asosiy vazifasidir.

Bu ayniqsa «Yoshlar» kanalining «Davr» axborot dasturiga tegishlidir. «Davr» axborot dasturining madaniyat ruknida san'at so-

<sup>1</sup> Кузнецов Г.В. Телевизионная журналистика. — М., 1994.

hasida yoshlar masalalarini yoritishga, san'at to'g'risidagi odatdagi madaniy hayotning an'anaviy tasavvurlar doirasidan tashqariga chiqadigan faktlari haqida xabarlar beriladi. Bunday hollar ko'pincha hali ijodkor arboblardan tomonidan e'tirof etilmagan yosh izlanuvchan avlod bilan yuz beradi.

Yosh iste'dod, yosh avlodning ijodiy salohiyati haqidagi har qanday axborot bizning ko'z o'ngimizda o'zining o'tmishi bilan faxrlanibgina qolmasdan, balki yangi, yosh ijodiy shaxslar tufayli boyiyotgan jonli, boy, eng asosiysi sermahsul madaniyatning targ'ibotchisi bo'lib xizmat qiladi.

Axborot dasturidan san'atning yangi sohalarini teran va har tomonlama tahlil qilishni talab qilib bo'lmaydi, uning vazifalari va maqsadlari boshqa. Biroq axborot tomoshabinlarning madaniyat sohasidagi yangiliklar va xilma-xilliklar haqidagi umumiy tasavvurini kengaytiribgina qolmay, balki bu tasavvurning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Bugungi kunda barcha viloyatlarda, shuningdek, Qoraqalpog'istonda mintaqaviy teleradiokompaniyalar mavjud. Markaziy televideniye va viloyat kanallarining o'zaro faol hamkorlik qilishi yangiliklar dasturining madaniy-badiiy mavzulari doirasini jiddiy ravishda kengaytirishi hamda mamlakatning turli mintaqalarida yuz berayotgan madaniyat voqealarining ommalashtirilishiga ko'maklashishi mumkin. Bunday hamkorlik nafaqat televideniye, balki madaniy hayot uchun ham o'rinlidir. Bundan respublikamizning barcha joylarida istiqomat qilayotgan san'at shinalarini va ijodkor insonlar bahra oladi. Televideniye ularga e'tirof etilish va mashhur bo'lishda ko'maklashishi mumkin. Bu sohada televideniye haqiqatdan ham kashf qiluvchi bo'lishi va iste'dodli kishilarning ijodiy o'sishiga ko'maklashishi mumkin.

Mustaqil O'zbekistonning madaniy hayotidan tanlab olish mumkin bo'lgan xilma-xil jihatlardan serob. Poytaxtda ham, viloyatlarda ham qariyb har kuni qiziqarli madaniyat voqealari yuz beradi. Yangi voqealar va faktlarni izlash, davrning ruhini his etish madaniyatga doir axborotning muhim jihati, jurnalistning burchidir. Axborot dasturlari tahririyatlari oldida har bir materialning mazmuni va uni uzatish shakli, qamrab olish kengligi va badiiy voqealarni tanlash prinsiplari kabi masalalar, shuningdek, «Madaniyat va san'at» ruknining «o'z qiyofasi» bo'lishi kerakligi hamma vaqt kun tartibida turadi.

Televideniye axborot dasturlarida har kuni mamlakat madaniy hayoti kuzatib boriladi. Tabiiyki, madaniyat sohasida yuz berayotgan barcha voqealar unda o'z aksini topishi mumkin emas. Buning ustiga axborot dasturlarining vazifasi san'at masalalariga bag'ishlangan maxsus ko'rsatuvlarga qaraganda boshqacha. San'atga bag'ishlangan maxsus ko'rsatuvlar biror-bir badiiy hodisa, madaniy hayot voqeasi sifatidagina emas, balki diqqat-e'tibor qilish va tahlil qilishga sazovar voqea sifatida beriladi.

Televideniye «tahlil» tushunchasi fanda qabul qilinganiga qaraganda birmuncha boshqacha ma'noga ega. Televizion ko'rsatuvdagi tahlil — bu madaniy hayot fakti sifatida san'at hodisasi to'g'risida shunchaki axborot berishdan farq qilgan holda uni har tomonlama va batafsilroq ko'rib chiqishdir. Tahliliy ko'rsatuv shaxsni bo'rttirib ko'rsatishni, munozaraviy jihatlarni, yangi qirralarni va turlicha nuqtayi nazarlarni aniqlashni, ya'ni san'at to'g'risidagi aniqroq gapni taqozo etadi, xolos. Chunki hatto gazetadagi tahliliy maqola yoki taqrizdan farq qilgan holda televideniye o'ziga xosligi cho'zqlikni va «ilmiylikni» ko'tarmaydi.

Zamonaviy san'at to'g'risidagi ko'rsatuvlar efirga chiqadigan to'rt formatni ajratib ko'rsatishi mumkin. Bu, birinchidan, tomoshabinlarni san'atdagi yangiliklar bilan tanishtiradigan, muntazam berib boriladigan, deyarli har kuni namoyish qilinadigan kundalik turkum. Odatda, bunday turkumlarni yaratuvchilar voqealar to'g'risidagi sof axborot doirasidan tashqariga chiqishga va ko'rsatuvga tahliliy materillarni jalb qilishga intiladilar.

San'atdagi yirik shaxslarga bag'ishlangan shakli va janriga ko'ra xilma-xil ijodiy portretlar ikkinchi turda tegishlidir. Bunday ko'rsatuvlarda, odatda, studiyada olingan lavhalar va naturada olingan suratlar, kombinatsiya qilingan holda namoyish qilinadi. Hamkasblar, tanqidchilar, hayotdagi yaqin odamlar ko'rsatuv qahramoni to'g'risida o'z fikrlarini bildiradilar. Bunday ko'rsatuvlar ko'pincha (biroq hamma vaqt emas) yodnoma tusiga ega bo'ladi, ya'ni unda hayotdan ko'z yumgan kishilar haqida hikoya qilinadi.

Uchinchi turi — kengaytirilgan intervyu bo'lib, unga ko'rsatuvni olib boruvchining zamonaviy madaniyatning taniqli siymosi — yozuvchi, rassom, aktyor, rejissor, san'atshunos olim bilan suhbat asos qilib olinadi.



Nihoyat ko'rsatuvlarning to'rtinchi turi – muammoli-mavzuli davra suhbat. Bunday turdagi ko'rsatuvda odatda ko'rsatuvni olib boruvchi moderator, ekspert mutaxassislar va faol, qiziquvchan omma qatnashadi. Oldindan aniqlab olingan mavzu haqida munozara qilish yoki zamonaviy san'atning u yoki bu dolzarb muammosini muhokama qilish bunday ko'rsatuvlarning o'zagini tashkil etadi.

Televideniye uchun tipik bo'lgan bunday ko'rsatuvlarning variantlari ko'p. Masalan, intervyuning turli xillari mavjud: voqea joyidan reportaj ichidagi intervyu, boshqa ko'rsatuv ichidagi intervyu (bunday intervyular ertalabki «Assalom, O'zbekiston» dasturida ko'p).

Xilma-xilligi mualliflarning ijodiy fantaziyasiga va materialning ichiga chuqur kirib borish darajasiga bog'liq bo'lgan tipik ko'rsatuvlardan tashqari original ko'rsatuvlar ham mavjud. Bunday o'ziga xos ko'rsatuv 1996-yilda O'zbekiston televideniyesining birinchi kanali orqali efirga berilar edi. O'sha vaqtda xronometraji uncha katta bo'lmagan «Hayrat» dasturini tanqidchi Rahmon Qo'chqor olib borar edi.

San'at to'g'risidagi ajratib ko'rsatilgan ko'rsatuv turlaridan birinchi uchasi O'zbekiston televideniyesi madaniy-axborot ko'rsatuvlarining asosiy korpusini tashkil etadi. Uchinchi tur formatdagi ko'rsatuvlar hozircha yo'q, biroq ular haqida gapirmaslik mumkin emas: oldinga qo'yilgan vazifa – ijodiy hayotning televideniye tomonidan muqobil aks ettirilishi bilan bog'liq ravishda ko'rsatuvlarning ushbu turi o'zgacha diqqat-e'tiborni talab etadi.

#### **4. 90-yillar birinchi yarmi ko'rsatuvlarida shaxs va davr**

90-yillardan boshlab badiiy-publisistik dasturlar sohasida adabiy mavzulardagi ko'rsatuvlar asosiy o'rinni egalladi. Yaqin tarixiy davrga, 20-yillarning birinchi yarmiga alohida e'tibor qaratildi. O'zbek adabiyotining qatag'on qilingan Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir singari arboblari efirning bosh qahramonlariga aylandi.

90-yillar boshida adabiy ko'rsatuvlar ushbu shaxslarning mamlakat yangi tarixiga qaytishi jarayonini aks ettirdi. Ushbu yozuvchilarning fojealarga to'la hayoti va asarlarining murakkab taqdiriga bo'lgan qiziqish kuchaydi.

Taniqli adabiyotshunoslar N.Karimov va O.Sharafiddinov adabiy ko'rsatuvlarda tez-tez qatnashar, ular ham muallif, ham ko'rsatuvni olib boruvchi, ham taklif etilgan ekspertlar vazifasini bajarishar edi. Qatag'on qilingan yozuvchilarning hayoti va ijodi to'g'risidagi materiallar o'sha vaqtdagi gazeta va jurnallar sahifalarida to'lib-toshib yotgan bo'lsa ham, ko'rsatuvni olib boruvchilarning shaxsi tufayli ko'rsatuvlarga bo'lgan qiziqish zarracha pasaymadi. Mavzuni chuqur bilish o'zini erkin tutish, kamera oldida fikrini bir joyga jamlash va o'ylash, o'z fikrini lo'nda ifodalash bilan tabiiy ravishda qo'shilib ketdi.

Ushbu holatda professional jihatdan olganda «boshlovchi» iborasi shiddatli O.Sharafiddinovga kamroq va o'zini vazminroq tutadigan N.Karimovga nisbatan yanada kamroq mos kelar edi. Unisi ham, bunisi ham teletomoshabinlarda qanday taassurot qoldirayotganligi haqida zarracha o'ylab o'tirmas edilar. Ular uchun eng asosiysi o'zlarining shaxsiy fikrlarini aytish, o'zbek adabiyotining fojeali davri haqidagi o'z mulohazalarini bildirish asosiy o'rinda turar edi. Buni jurnallar va gazetalar sahifalarida yoritish emas, balki omma oldida aytish ular uchun muhim edi. Ko'pchilik adabiy ko'rsatuvlar to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatilishi ko'rsatuvlarning yanada samarali bo'lishini ta'minlar edi.

Mavzuga, dastlab o'zbek adabiyotidan o'chirib tashlangan, so'ngra yana unga qaytarilgan odamlarning hayoti va ijodiga bo'lgan behad qiziqish tufayli televideniye bilan teletomoshabinlar ommasi o'rtasida ma'naviy yaqinlik kelib chiqar edi.

Televizion muloqotning o'ziga xosligini zukkolik bilan his etgan mutaxassislar tufayli N.Karimov va O.Sharafiddinov ishtirokidagi ko'rsatuvlarda ushbu tarixiy davrga xos bo'lgan madaniy qatlam yorqin namoyon bo'lar edi.

O'z umrini yashab bo'lgan sobiq tuzum qadriyatlarini o'rniga san'atda yangi g'oyaviy mezonlar shakllandi. Avvalgi mafkuraviy



Ijodiy guruh boshqaruv pulti.

prinsiplar bilan bog'liq bo'lgan muammolardan uzil-kesil xalos bo'lish uchun ularni zamonaviy prinsiplarga taqqoslash kerak edi. Bu nuqtayi nazar adabiy ko'rsatuvlarda belgilovchi o'ringa ko'tarildi. Adabiy mahorat, ijodiy uslubning o'ziga xosliklari, u yoki bu asarning badiiy xususiyatlari mavzusi ikkinchi o'ringa tushib qoldi yoki umuman ko'tarib chiqilmadi. Ko'rsatuvga taklif etiladigan S.Ahmad, P.Qodirov, T.Malik, Mirmuhsin va boshqalar adabiy mahorat detallari haqida emas, balki asosan o'tgan davr qiyinchiliklari, o'zbek adabiyotining rivoji to'g'risida gapirar, ko'rgan-kechirganlari haqida o'rtoqlashardilar.

P.Qodirov o'zining «Yulduzli tunlar» romanini yaratishda boshidan kechgan iztirobli tafsilotlar haqida gapirib berdi. Yozuvchi Bobur hayotiga bag'ishlangan ushbu kitob yaratilishi va e'lon qilinishi yo'lida sho'rolar davrida kutilmagan tarzda paydo bo'lgan muammolar va to'siqlar to'g'risida alam bilan so'zlashdi.

S.Ahmadning Stalin rejimining oxirgi yillari to'g'risidagi xotiralari keng omma uchun kutilmagan yangilik bo'ldi. Bu davrda T.To'la, Shuhrat, Mirmuhsin kabi yozuvchilar ochiq-oshkora bo'lmagan rasmiy qatag'onga uchradi.

Adabiyot tarixidagi «oq dog'lar»ni to'ldirish, xolisona baholarni tiklash televideniyaning ustuvor vazifasi emas. Televideniye yangi bilimlarni, madaniyat tarixi mutaxassislariga va tor doiradagi mutaxassislariga ma'lum bo'lgan yangi bilim va faktlarni ommalashtiruvchi vazifasini bajarar edi.

Televideniye rivojlanishining unchalik uzoq vaqtni o'z ichiga olmagan ushbu davridan oldin ham, keyin ham vaqt kategoriyasi o'sha yillardagi adabiy ko'rsatuvlarda bo'lgani singari o'zi uchun shunchalar tabiiy bo'lgan dinamik rivojlanishni boshdan kechirmadi, deyish mumkin.

Tarix insonlar taqdirining haqiqati bilan dramatik, vaqt – dinamik kategoriya, zamonaviylik bilan cho'lg'angan va zamonaviy hayotning murakkab jarayonlariga daxldor bo'lgan zamondoshlar ko'zi bilan ko'rilgan o'tmish esa bugungi hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Eng yaxshi adabiy dasturlarning ushbu leytmotivi televideniye rejissuraning yirik ustasi Mahkam Muhamedov ijodida, u tomonidan yaratilgan Q.Muhammadiy va A.Muxtor kabi yozuvchi-shoirlar haqidagi ko'rsatuvlarda yorqin namoyon bo'ldi.

... O'z uyasi tomon ohista pastlab uchayotgan laylak – O'zbekiston xalq yozuvchisi A.Muxtor haqidagi ko'rsatuv mana shu kadrda boshlanadi. Sharqda keng tarqalgan hayot ramzi sifatidagi laylak obrazi ushbu ko'rsatuvda o'zgacha mazmun kasb etgan. Yozuvchi o'z yozuv xonasida suratga olingan, u xona derazasidan osmonda parvoz qilayotgan laylakka tikilib turibdi. Butun ko'rsatuv davomida hali kasaldan butunlay forig' bo'lmagan ko'rsatuv qahramoni biror og'iz gap gapirmaydi. Rejissor bunday kamdan-kam uchraydigan va yozuvchi kadrda «sukut saqlaydigan» illosiz vaziyatdan hayron qolarli, o'z drammatizmi bilan qattiq ta'sir ko'rsatadigan badiiy samaradorlikka erishadi. A.Muxtor kursida yengil egilganicha o'zi turli yillarda yozgan she'rlarni tinglaydi. Tarixning eski fotosuratlar bilan yengil montaj qilinishi yozuvchining horg'in va diqqat bilan tikilib turgan ko'zlari namoyish qilingan yirik kadrlar bilan qo'shib olib boriladi. Ushbu ko'zlarda ma'qullash shubha bilan, shubha yarim jilmayish, kulgi – jiddiylik bilan almashadi. Qaysidir damda shoir o'z she'rlarini tinglar ekan o'z hayotini qayta boshdan ko'z o'ngiga keltirayotganligini sezib qolasan kishi – yoshlik uning ko'zlarida sal kinoyalik kulgi bilan, yetuklik – shubhalar, yutuqlar quvonchi va omadsizlik qayg'usi bilan o'z aksini topadi... Qarshida o'tirgan, she'rlarni o'qiyotgan yosh yigit esa o'tgan umrning muvaffaqiyatlari bo'ylab xotiralar so'qmog'idan olib o'tayotgan yo'l boshlovchiga qiyoslanadi. Shoirning oxirgi ma'qullovi ko'z qarashida yashab o'tilgan hayot haqida unga eslatgani uchun minnatdorchilik-nigina emas, balki o'z hayotini behuda o'tkazmaganligidan qoniqish belgisini sezish mumkin.

So'nggi marta derazadan tashqariga nazar tashlash. She'r o'qigan yosh yigit daraxtlarning kuzgi yaproqlari asta-sekin ko'zdan g'oyib bo'ladi. Yo'l uni qayerlarga boshlar ekan? Uzoq yoshlik yillarigami yoki bo'lg'usi avlodlar xotirasigami? Buni faqat o'z uyasi tomon ohista uchib borayotgan laylak biladi...

Qisqa va yaxlit, kompozitsion jihatdan tugallangan syujet o'zida rejissorning shoir shaxsiga o'ziga xos tarzda yondashganligi, M.Muhamedovning hayron qolarli nazokatlilik va yuksak rejissorlik madaniyati tufayli ijodkorning taqdirida vaqt to'g'risidagi dramatik mulohazalarni singdirgan.

Bir necha yildan keyin rejissor mavzuga qaytadi, syujetni A.Muxtor haqidagi xotiralar bilan kengaytiradi. So'ngra kinorejissor

R.Botirov yozuvchi to'g'risidagi hujjatli filmni suratga oladi. «Umr daftari» deb nomlangan ikki qismli yana bir ko'rsatuv yaratiladi. Ko'rsatuvda A.Muxtorni hayotlik vaqtida yaxshi bilgan qalamkash safdoshlari A.Oripov, S.Ahmad, O.Sharafiddinov, E.A'zam va boshqalar Asqad Muxtor shaxsi va ijodi to'g'risidagi xotiralari bilan o'rtoqlashadi. Yozuvchi mehnati haqidagi samimiy va teran mulohazalar, hamkasblarning xotiralarida yozuvchi shaxsi butun qirralari bilan ochib beriladi.

Lekin baribir ... na hujjatli film va yangi televizion ko'rsatuvlar xronometrajli katta ekanligi, na kadrda taniqli o'zbek yozuvchilarning namoyon bo'lishi 1995-yilda M.Muhamedov mahorat bilan bajargan «Umr» deb atalgan kichik syujetdan esib turgan ma'naviy kuch-qudratning o'rnini bosa olmadi. Ushbu syujetdan olingan ifoda kuchi yuqoridagi parchalardan keyingi ko'rsatuvlarda foydalanilganligi, ular A.Muxtor haqida telememuarlarning o'zagiga aylanganligi bejiz emas.

O'zbekiston madaniyati rivojlanishiga katta hissa qo'shgan san'at arboblarning jonli obrazlarini saqlab qolish yirik shaxslar ishtirokidagi ko'rsatuvlarning yana bir ma'no-mazmunini, yana bir muhim vazifasini tashkil etadi. Agar ko'rsatuvning «qurilish material»ga oilaviy albomdan olingan eski fotosuratlardan tashqari hujjatli xronikaning «jonli» kadrlari montaj qilingan bo'lsa, badiiy ifodaviylik, ma'naviy aloqa samarasi necha martalab oshadi.

Ko'rsatuv mualliflari bunday kadrlardan foydalanishi mumkin bo'lgan faqat ikkita resurs mavjud. San'at arboblari to'g'risidagi hujjatli filmlar — biroq hayotlik vaqtida san'at arboblarning ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan shaxsiy filmlar yaratilavermaydi. Va ushbu san'at arboblari ishtirokidagi eski teleko'rsatuvlar, bunday ko'rsatuvlarning ko'pchiligi, afsuski, texnik va moliyaviy sabablarga ko'ra televideniye arxivida saqlanib qolmaydi.

Jumladan, 1996-yilda Rahmon Qo'chqor boshlovchilik qilgan «Hayrat» mualliflik ko'rsatuvi ham saqlanib qolmagan. Mohiyat e'tibori bilan bu haqiqatdan ham san'at to'g'risidagi birinchi mualliflik ko'rsatuvi edi. Jo'shqin, hissiyoti kuchli R.Qo'chqor jahon she'riyatining eng yaxshi asarlari, T.Man, G.Markes, M.Prust romanlari, Rembo va G.Lorka poeziyasi o'zbek tiliga tarjima qilinishi zarurligini hayajon bilan uqtirar edi... O'zining mumtoz va zamona-

viy g'arb she'riyatidan qilgan ajoyib tarjimalarini o'ziga xos artistlik bilan o'qib, aytib o'tilganlarni isbot qilardi.

O'zimizning va xorijning yozuvchi va shoirlari haqidagi uncha katta bo'lmagan, hissiy-shaxsiy, o'ziga xos dastur bir necha marta efirga chiqdi va ushbu formatda boshqa tiklanmadi.



«Qora lola» telespektaklidan lavha.

60-yillardan keyin yashagan «televideniye orqali o'tgan» badiiy madaniyat siymolariga qaraganda hali televideniye rivojlanmagan 30–50-yillarda yashagan o'zbek san'atining yirik siymolari haqidagi xronikal-hujjatli kadrlar ko'proq saqlanib qolgan. 60–80-yillarda teleko'rsatuvlar yozuvlari, shu jumladan taniqli yozuvchilar, aktyorlar, rassomlar va boshqa san'at arboblari ishtirokidagi ko'rsatuvlar plyonkalari yoqib yuborilar edi. «Ishlab chiqarish» jarayoni nana shu taxlitda qurilgan, mana shu sababli arxivda juda kam material saqlanib qolgan edi. Buning o'rnini to'ldirib bo'lmaydi. Axborotning raqamli manbalari televideniye zamonaviy o'zbek badiiy madaniyati siymolarining jonli obrazlari muhrlanib qoladigan noyob arxiv yaratish imkonini beradi deb umid qilish mumkin.

Vatan madaniyati namoyandalari to'g'risida ko'rsatuv tayyorlashda kelib chiqqan ushbu xususiy muammo tomosha san'atlari — teatr va kinematografiyaga kamroq darajada tegishlidir. Rejissorlarga nisbatan muammoning keskinligi qay bir darajada ular tomonidan yaratilgan spektakllar va kinofilmlar orqali kompensatsiya qilinadi. Aktyorlar ushbu parchalarda «jonli» holda hozir bo'ladilar.

Davr va shaxs muammosining o'zi esa kinematografiya va teatr san'ati haqidagi ko'rsatuvlarda o'ziga xos va turlicha namoyon bo'ldi.

San'atning ushbu tomosha turlarini idrok etish andozalari odamlar ongida yetarlicha mustahkam o'rtnashib qolgan. Teatr ostonasini hatlab o'tgan kishining his-tuyg'ulari kinoteatrga qadam qo'yan odamning his-tuyg'ularidan farq qiladi. Teatrda muhit birmuncha tantanavor, kinoteatrdagi muhit esa birmuncha erkinroq



«Shukuhli karvon» telespektaklidan koʻrinish.

Idrok qilishning ushbu xususiyati telekoʻrsatuvlar mazmuni va shaklida turlicha aks etdi. Kinokoʻrsatuvlardagi erkin badihagoʻylik ham kinematografiya tabiatiga va eng asosiysi, 90-yillarning birinchi yarmidagi oʻzbek kinosi realliklariga hamohang boʻldi. Yangi filmlar yetarlicha koʻp yaratilganligiga qaramay, oʻsha yillar kinotanqidchilari ularga baho berishda faollik koʻrsatdilar. Jumladan, taniqli kinoshunos D.Teshaboyev «Zamonaviy kino rejissorligining rivojlanish yoʻllari»<sup>1</sup> deb nomlangan batafsil maqolasida oʻzbek kinematografiyasining asosiy tendensiyalarini tahlil qiladi. U yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarda oʻzbek kinosi oldida paydo boʻlgan bir qancha muammolarga eʼtiborni jalb qiladi. Muallif konyunkturali kinoning «qoʻpol sxemativligi» muammosini alohida ajratib koʻrsatadi, unga professional va badiiy mezonlarni zid qoʻyadi. U Y.Sobitov, S.Boboyev, Nazarmuhamedov, Z.Musoqov kabi rejissorlarning ishlarini ijobiy baholagan holda, «... biroq, ushbu filmlarni hamma vaqt ham yuksak professional darajada bajarilavermilmagan jinoiy va fosh qiluvchi kartinalar oqimi siqib qoʻymoqda... Bizning botqoqlikka botib qolgan kinematografiya aravamizni ilgari siljitish zarur» deydi. Kinotanqidchining mulohazalari oʻz pafosiga koʻra ishonarli. Uni oʻzbek kinematografiyasining oʻsha yillardagi

<sup>1</sup> D.Teshaboyev. «Пути развития современной кинорежиссуры». //Oʻzbekiston sanʼatshunosligi muammolari. — T., 1997.

harakatini belgilab beradigan ikki ogʻiz soʻzda — oʻzgartishlarni kuzatishda ifodalab berish mumkin.

Oʻsha realliklar, spetsifik televizion variantda kinoshunos H.Akbarov olib boradigan kinokoʻrsatuvlarda paydo boʻldi. Ushbu koʻrsatuvlar pafosini yuqorida aytib oʻtilgan sanʼatshunoslik maqolasi pafosi bilan bemalol qiyoslash mumkin. Ehtimolki, bundan oʻzgacha boʻlishi mumkin emas — u yoki bu filmga baho berish borasida koʻpincha har xilliklar kelib chiqqan bir vaqtda kinematografiyada tub oʻzgarishlar zarurligi kayfiyati va uni tushunish umumiy edi.

Kino jarayoni haqidagi sanʼatshunoslik maqolasini ushbu jarayon televideniya qanday aks etishi bilan qiyoslash telekoʻrsatuvlarning immanent tabiatini boʻrttiribroq aniqlash imkonini beradi. Maqola dalillangan, konseptual va kompozitsion jihatdan puxta. Kino haqidagi koʻrsatuvlar badihagoʻylikka asoslanganligi, savollar va ularga berilgan javoblar oldindan tayyorlanmaganligi bilan farq qilar edi. Tahliliy sanʼatshunoslik ishi bir mantiqli, mazmunan yoʻnaltirilgan, ushbu oʻrinda mutaxassislariga qaratilgan. Koʻrsatuv — dialogli. Kino professionallarining studiyadagi dialogi azaldan unda keng auditoriyaning jalb etilishini taʼminlaydi. Baʼzan ushbu dialoglar oldindan tayyorgarliksiz efirga uzatilgandek, bamisoli odamlar nimaga taklif etilganliklaridan bexabar holda hozirgina studiyada uchrashgandek tasavvur paydo boʻladi. Biroq tezda ushbu tasavvurning oʻrnini qiziqish egallaydi — mutaxassislarning hamma vaqt oʻz ishlari haqida aytadigan gaplari topiladi.

Koʻrsatuvni olib boruvchi qiziqib ketgan ekspertni toʻxtatib qoʻyadigan, ekspert esa olib boruvchining gapini tuzatadigan yoki uning soʻzlari bilan kelishmaydigan zamonaviy televizion muloqotning bunday turi «qatʼiy» tahrir qilingan ssenariy boʻyicha koʻrsatuvlar odatiy hol boʻlgan birinchi kanal uchun hali xos emas edi. Ikkinchi tomondan, H.Akbarovning kinokoʻrsatuvlari zamonaviy tadrijiy oʻsib boradigan hodisa sifatida kino sanʼatining odatda tomoshabinlar tomonidan idrok qilinishi bilangina emas, balki davr realliklari bilan ham bahs yuritar edi. Kino jarayonida hali nuqtai nazarlar aniq belgilab olinmagan, ijtimoiy fosh qiluvchi mavzular tugaganligi aniq kuzatilar, aniq yoʻnalishlar mavjud emas edi. D.Teshaboyev 90-yillar birinchi yarmi oʻzbek kinematografiyasi rivojlanish yakunlari haqida yozgan edi. Hayotbaxshlik, davr realliklarini anglab olishga intilish,

hech bo'lmaganda bitta kino asari misolida hozirning o'zida vaziyatni tushunib olish xohishi bilan qo'shilib ketgan ushbu gangish zamonaviy kino to'g'risidagi kinoko'rsatuvlarda jonli badihago'ylik va oldindan tayyorlanmagan dialoglarda o'z aksini topdi.

Tomoshabinlarning kinoga bo'lgan qiziqishi keskin pasayib ketgan vaziyatda axborot berish va ommaviylashtirish parametrlarini jonli qo'shib olib boradigan teleko'rsatuvlar «o'zgarishlarni kutish» davriga hamohang edi.


90-yillarning birinchi yarmida televideniye teatr san'atini idrok qilish andozalariga tuzatish kiritdi. Ushbu andozalar «Teatr va davr» ko'rsatuvlar turkumida uzoq vaqt hukmronlik qildi. Bu ko'rsatuvni 80-yillar ikkinchi yarmida va 90-yillar boshida E.Musayev olib borar edi.

Davr ilgari surgan o'zgarishlar teatr san'atida ma'naviy merosni o'zlashtirish, dramaturgiya, rejissura, ssenografiya muammolari bilan bog'liq yangi estetik muammolarni o'z ichiga olar edi. Biroq o'sha yillari teatrda deyarli har kuni yuz beradigan voqealar oqimidan «Teatr va davr» ko'rsatuvining muallifi va boshlovchisi ehtiyotkorlik bilan yuz berayotgan yangiliklardan eng odatiylarini tanlab olishni ma'qul ko'rar edi.

O'sha davrda amaliyotchilarni ham, nazariyachilarni ham hayajonlantirgan dolzarb muammolarni, o'tkir masalalarni silliqlashtirishni qisman birinchi kanalning so'zsiz rasmiy salobati bilan izohlash mumkin. Chunki «Teatr va davr» bilan bir qatorda o'sha yillari aynan birinchi kanalda boshqa boshlovchi olib boradigan teatr turkumlari efirga uzatilar edi. O.Tojiboyeva tomonidan tayyorlangan va olib borilgan, qatnashchilar soni uncha ko'p bo'lmagan, xronometraji ham kamroq bo'lgan «Muloqot» (1989–1991), «Aktyorlar va rollar» (1992–1994) turkumlari o'zbek teatrining dolzarb muammolarini anglab olishga qaratilgan intilishi bilan e'tiborni jalb qilar edi.

Yosh boshlovchi O.Tojiboyeva o'z ko'rsatuvlariga teatr san'atidagi mashhur kishilarni taklif qilardi. Uning mehmonlari orasida dramaturg M.Boboyev, U.Azimov, Sh.Boshbekov, aktyorlar A.Rafiqov, M.Rajabov, H.Nurmatov, E.Nosirov va boshqalarni ko'rish mumkin edi. Taklif etiladigan mualliflarning mashhurligi va taniqliligi ushbu holatda ochiq suhbat olib borilishi uchun faqat rag'bat berar edi xolos. Boshlovchi taklif etilgan shaxslar yetarli ekanligi bilan cheklanib qolmay, o'zining asosiy vazifasini teletomo-

shabinlar uchun ushbu shaxsni va teatrda yuz berayotgan o'zgarishlar mohiyatini chuqur tushunish va ochib borishda ko'rar edi. Nafaqat teletomoshabinlar uchun, balki o'zi uchun ochib berish — ehtimol boshlovchining ayricha farq qiladigan fazilati edi. Boshlovchining aktyorlar



Badiiy ko'rsatuvni efirga uzatish jarayoni.

o'ynagan rollarga, dramatik asarga, zamonaviy teatr muammolariga samimiy, soxta bo'lmagan qiziqishi uning suhbatdoshlari tomonidan ham shunchalik bevosita va qiziqish bilan qabul qilinardi. Ushbu o'zaro qiziqishdan teatr professionallari va barcha teletomoshabinlar bir xilda tushunadigan muloqot tuzilar edi. Bundan chiqdi televizion studiyada aktyorlarning o'zlari bir-birlarini tinglagan taqdirda sahnadagi aktyorlarni tomoshabinlar tinglaydi degan eski teatr qonuni amal qilar ekan. Teatr san'atining, aniqrog'i «jonli teatr»ning tabiati barcha narsa «shu yerda va shu onda» yuz berishi kerakligidan iborat. Shuningdek, televizion studiyada ham «shu yerda va shu onda» boshlovchi va uning suhbatdoshlari bir-birini diqqat bilan tinglaydi, shuning uchun kutilmaganda berilgan savollarga javoblar ham ochiq va samimiy edi.

O.Tojiboyeva tomonidan teatr to'g'risidagi turkum ko'rsatuvlar 90-yillarning birinchi yarmi ko'rsatuvlari orasida san'at haqidagi televizion muloqotning eng yorqin misollari bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ko'rsatuvlardan birida boshlovchining zamonaviy o'zbek teatri-ning holati va rivojlanishi haqidagi savollariga madaniyat vaziri javob berdi. Vazir «Teatr va davr» ko'rsatuvini ruhida teatr sahnasidagi muvaffaqiyatlar va yutuqlar haqidagi xotirjam suhbatga chog'langanligi ko'rinib turardi. U moliyalashtirishdagi mavjud muammolar, viloyat teatrlarining holati, muqobil teatr shakllarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi to'g'ridan-to'g'ri savollar berilganda ochig'i hayron bo'lib qoldi. Qo'yilgan savollarning dangalligi vazirni ana shunday dangal javoblardan bosh tortmaslikka un-

dadi va ko'rsatuv boshlovchi va uning mehmoni o'rtasidagi o'zaro hurmat ohangida tugallandi.

Javoblarni aynan studiyaga taklif etilgan aktyor, dramaturg, rejissordan eshitish uchun aniq, «individual» savollarni topish, ushbu savollarni suhbatdoshiga o'z vaqtida berish uquvi — teatr turkumlarini olib boruvchining muhim professional fazilatidir. Ushbu fazilatlar dramaturglar Sh.Boshbekov va M.Boboyev ishtirokidagi ko'rsatuvlarda boshlovchiga yordam berdi. Bu ko'rsatuvlarda teatr haqidagi muloqotlar shaxs va davr muammosidan ajratilmagan edi.

Har ikki dramaturg hozirgi zamonning o'tkir ma'naviy masalalari ko'tarib chiqiladigan o'z pyesalari bilan mashhur. Dramaturglarning avvalgi yillardagi ijodiy taqdiri turlicha kechdi. Sh.Boshbekov uchun ushbu yillar rasmiy va norasmiy taqiqlarni yengib o'tish yillari bo'ldi. Ushbu taqiqlar uning faqat qayta qurish yillarida davlat teatrlari sahnalarida qo'yilgan deyarli barcha oldingi pyesalariga tegishli edi.

Dramaturg M.Boboyevning sahnaviy taqdiri ancha xayrli kechdi — uning pyesalari ko'p yillar O'zbekistonning ko'plab teatrlarida muvaffaqiyat bilan namoyish qilindi.

Tabiiyki, ikki taniqli dramaturg bilan suhbatlarda gap dramaturgiya muammolari haqida boradi. 80-yillar adabiyotda eng mashhur bo'lgan asarlar — M.Boboyevning «Gurung», Sh.Boshbekovning «Temir xotin» pyesalari boshlovchi uchun faqat tayanch nuqtasi, «ozuqa» bo'lib xizmat qildi. Ko'rsatuvning ilk daqiqalaridan boshlab boshlovchi dramaturglarni hayotda va teatrdagi yuz berayotgan o'zgarishlar to'g'risidagi keng mulohazalarga «tortdi». «Muloqot» ko'rsatuvi mualliflarini individualliklar, ijodiy usullar xilma-xilligiga qaramay, to'g'rilik to'g'risidagi o'y-fikr birlashtirdi. Sh.Boshbekov «bugungi kunda o'zingga va o'z kasbingga to'g'ri munosabatda bo'lish talab qilinadi» degan fikrni ilgari surdi. M.Boboyevning so'zlari ham unga hamohang edi: «Bugun ijod qilishga hech narsa xalaqit bermaydi. Biz andozalardan, eski tuzum zanjirlaridan xalos bo'lmoqdamiz. Agar senda iste'dod bor ekan — o'tir va tarix bo'ladimi yoki zamonaviy hayot bo'ladimi, shular haqida yoz».

Ushbu so'zlar 90-yillar birinchi yarmidagi san'at to'g'risidagi eng yaxshi ko'rsatuvlarning motivi bo'lishi mumkin. San'at to'g'risidagi ko'rsatuvlar hajmi cheklanganligiga, muntazam berib borilmasligiga qaramay, televideniye ularning uncha katta bo'lmagan xronometrajida jamiyatda, badiiy madaniyatda yuz berayotgan murakkab jara-

yonlarni muqobil aks ettirishga intildi. O'zbekistonning taniqli san'at arboblarning televizion monologlari va dialoglarda nodkor shaxslar o'z taqdirini, yashab o'tilgan davrni anglab yetish va qayta anglab yetishga intilayotgan ijtimoiy ongdagi tub o'zgarishlar bilan bog'liq vaziyat aks etdi. Televizion muloqot shakli jiddiy ravishda yangilandi — oldindan tayyorlangan va puxta tahrir qilingan ssenariy toбора ko'proq boshlovchi va ekspertning rejalashtirilmagan savollari va kutilmagan javoblarga, badihago'yiligiga o'rin bo'shatib bera boshladi. Faqat mahorat masalalari bilan cheklanib qolmagan, ijodkor shaxsning ijtimoiy mazmun-mohiyati, ushbu shaxs o'z asarlarida aks ettirishi kerak bo'lgan davr to'g'risidagi mulohazalar bildirilgan studiyadagi suhbatlar alohida qiziqish uyg'otdi.

San'at to'g'risidagi eng yaxshi ko'rsatuvlarda teleko'rsatuvlar boshlovchisining roli va ahamiyatini mustahkamlash tendensiyasi tobora yetakchilik qila boshladi. Buni nafaqat eng yaxshi dasturlar, balki tanqidiyroq baho berish mumkin bo'lgan dasturlar misolida ham ko'rish mumkin. Boshlovchining o'z kasbini chuqur bilishi, mavzudan boxabarligi, san'at muammolarini bilishi va eng asosiysi ushbu muammolarga daxldorlik tuyg'usi muloqotga taklif etilgan ijodkor shaxslarning intellektual va ijodiy salohiyati ochib berilishi imkoniyatlariga, muhokama qilinayotgan mavzuning tomoshabin tomonidan idrok qilinishiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatdi.

Televideniye ixtiyorida san'at bilan o'zaro hamkorlik qilishning ko'plab imkoniyatlari mavjud. Kinofilm, teatr spektakli, rang tasvir polotnosini hech bir sharhsiz namoyish qilish mumkin. Ularni efirga chiqish oldidan yoki premyeradan yoki tasviriy san'at ko'rgazmasidan olib ko'rsatilgan reportajda sharhlash mumkin.

Asarning yaratuvchisini (yoki yaratuvchilarini) studiya pavilyoniga taklif qilib yoki suratga olish guruhi bilan birgalikda unga «mehmonga» borib u bilan batafsil suhbatlashish mumkin. Ushbu suhbatga tomoshabinlarni ham, mutaxassis-ekspertlarni ham jalb qilish mumkin.

Garchi teletomoshibinlarning hissiy munosabati san'atni bevosita idrok qilishda yorqin namoyon bo'lsa ham televideniye uchun murakkablik ko'rsatuvning oxirida o'sib boradi. Boshlovchi, ekspertlar va auditoriya ishtirokida ko'rsatuvni tayyorlash va olib borishdan ko'ra kinofilm yozilgan tasmani yoki spektakl yozuvini aylantirish osonroq.

U holda nima uchun televideniye «tomoshabinlarning tinchini» koʻzlab oʻz vazifalarini soddalashtirmaydi, sanʼat asarlarini translyatsiya qilish bilan cheklanib qolmasdan, aksincha sanʼat arboblari, keng auditoriya va mutaxassislar ishtirokidagi jonli koʻrsatuvlarini koʻpaytiradi? Chunki televideniyeining tabiati oʻzi shunday boʻlsa kerak. Tayyor narsani translyatsiya qilish koʻproq texnik jarayonga tegishli, televideniyeining tabiati esa ijod qilishga ehtiyoj sezadi. Tomoshabinlar ham shuni xohlaydi.

Teletomoshabinga sof holda tomosha qilishgina qiziqarli emas. Unga oʻz fikrlarini oʻziga oʻxshash «oddiy tomoshabin» boʻlgan boshqa odamlarning fikri bilan taqqoslash u yoki bu spektaklga, kinofilmga yoki taniqli ijodkorning ijodiga soha mutaxassislari qanday baho berishi qiziqarlidir.

Koʻpchilik teletomoshabinlar uchun badiiy ijod sohasi oʻz sirlariga, oʻzining maxsus odamlariga ega boʻlgan qandaydir alohida olam. Ushbu olamga nazar tashlash, bu odamlarni koʻrish, ularning hayoti haqida koʻproq narsa bilish, rejissor, bastakor, aktyor hunarining mazmun-mohiyatini anglab yetishga intilish hamma vaqt qiziqarlidir. Televideniye bu odamlar bilan uchrashish imkoniyatini berishga, teletomoshabinlarni ijodning nozik jihatlari bilan tanishtirishga, ularning estetik dunyoqarashini kengaytirishga qodir.

Tomoshabinni badiiy asar yaratish jarayoniga qiziqtirish, uning eʼtiborini kinokartinaga, teatr spektakliga, tasviriy sanʼat koʻrgazmasiga jalb qilish — sanʼat toʻgʻrisidagi koʻrsatuvlarning muhim vazifasi. Oddiy boʻlmagan oʻtish davrida jamiyatning oʻsib borayotgan isteʼmolchilik ehtiyojlari maʼnaviy ehtiyojlar oʻsishiga koʻmaklashmaydi. Shu sababli bunda televideniyeining roli juda muhimdir — u teletomoshabinlarning maʼnaviy boyishga qiziqishini, u yoki bu kitobni oʻqish yoki qaytadan oʻqib chiqish, spektakl yoki filmni koʻrish, rang-tasvir polotnosini oʻz koʻzi bilan koʻrish istagini ragʻbatlantiradi.

Zamonaviy televideniyeining paradokslaridan biri mana shunda mujassam boʻlgan. Televideniye oʻz moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, koʻrsatuvlarning texnologik darajasi va professional sifatini oshirib, barcha zarur vositalar bilan teletomoshabin uchun «kurashib» sanʼatning boshqa turlaridan tomoshabinlarni xolisona «tortib olib qoʻyadi».

Ushbu jarayon Oʻzbekistonda hali oltmishinchi yillardayoq boshlangan edi. Bugungi kunda u televideniyeining imkoniyatlarini va uning tomoshabinlarning amalda har qanday talab va ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini behad kengaytirayotgan kabel va yoʻldosh televideniye yayilishi munosabati bilan yangi keskinlik kasb etmoqda.

Ayni vaqtda televideniye oʻzining sanʼat toʻgʻrisidagi koʻrsatuvlari bilan ongli ravishda zamonaviy sanʼatni ommalashtirishdek muhim vazifani bajarmoqda, tomoshabinlarning jonli, bevosita idrok etishga boʻlgan qiziqishini ragʻbatlantirmoqda. Yaʼni tomoshabinlarni teatr va konsert zallariga, tasviriy sanʼat koʻrgazmalariga, kutubxonalar va kitob doʻkonlariga taklif qilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, televideniye sanʼatning boshqa turlari oldidagi oʻz qarzini toʻliq «uzishga» intilmoqda.

90-yillar ikkinchi yarmidan boshlab televideniyeimizning koʻrsatuvlar tartibi tubdan isloh qilinishi munosabati bilan ancha kengaydi. Ushbu oʻzgarishlarning natijalari tezlikda koʻrindi.

Yangi «Rakurs» dasturining dastlabki koʻrsatuvlari paydo boʻlganda teletomoshabinlarda kutilmagan taassurot qoldirdi. Koʻrsatuvlar dastlab ikkinchi kanaldan, soʻngra toʻrtinchi kanaldan berila boshlandi, 1998-yil sentabr oyida esa yangi tashkil topgan «Yoshlar» kanalida namoyish etila boshladi. Ushbu koʻrsatuv ham shakliga koʻra, ham boshqa barcha parametrlariga koʻra yaratuvchular muallif va boshlovchi Oybek Veysal oʻgʻli, rejissor M.Xoʻjayev, operator O.Kimning kasb mahorati yuksak darajada ekanligidan dalolat berdi. Har qanday koʻrsatuvni tomoshabinlar «kiyimiga qarab kutib oladi, aqliga qarab kuzatib qoʻyadi» degan gap bor. «Rakurs» tashiqi koʻrinishiga koʻra, koʻrsatuvning barcha bosqichlari chuqur oʻylanganligiga koʻra, «aqliga koʻra», yaʼni mazmuni boʻyicha zamonaviy va oʻtkir koʻrsatuvdek taassurot qoldirdi. Koʻrsatuv yoshlarga bagʻishlangan yangi «Yoshlar» telekanalining talablariga javob beribgina qolmay, balki qaysidir darajada kanal faoliyat koʻrsatgan dastlabki yillarda uning belgisiga aylandi. «Yoshlar» telekanali birinchi davlat kanalining vazminligi va konservativizmiga koʻrsatuvlarning dinamik tuzilmasini, materiallarni berishning dolzarb shaklini, muammoli mazmunni qarama-qarshi qoʻydi. Koʻrsatuvning barcha tillarda bir xilda tushunarli boʻlgan nomi oʻzida uslubiy yechimni va koʻrsatuv intonatsiyasini ifodaladi. Zastavkada sarlavhani yozish har xil shriftlarda, turli shovqinlar (goh oʻychan kuy, gohida yozuv

mashinkasining chiqillashi) almashtirib turilgan holda berildi. Muomala qilinadigan vaziyat ham o'ylab qurildi: boshlovchi va taklif etilgan mehmonlar jurnalistlar va intervyu beruvchiga qaraganda ko'proq suhbatdoshlarga o'xshab ketar edi. Operator va rejissor umumiy rakursdan deyarli to'liq voz kechishdi. Ekranida boshlovchi va ko'rsatuv mehmoni o'rtasida erkin muloqot borardi. Studiyaning interyeri – zamonaviy, ixcham, hech bir detal tomoshabinlarning e'tiborini chetga tortmaydi. Ko'rsatuv stilistikasi deyarli 8 yil davomida amalda o'zgarmadi. O'zgarishlarga shunchaki ehtiyoj yo'q edi. Shakliga ko'ra u bugungi kunda ham davr ruhiga mutlaqo muvofiqdir. Demak ko'rsatuv avval boshdanoq jiddiy va puxta rejalashtirilgan. Bu ko'rsatuvni batafsil ishlab chiqilgan uzoq muddatli loyihalar asosida tayyorlash zarurligini tasdiqlaydi. Ko'rsatuv nafaqat did bilan tayyorlanib qolmasdan, u avval boshdanoq unda tilga olingan masalalarning yetarlicha o'tkirligi va dolzarbligi bilan barchani o'ziga jalb qildi.

8 yil davomida O'zbekiston madaniyatining ko'plab taniqli arboblari ko'rsatuv mehmoni bo'ldi. Ular orasida yozuvchi-shoirlar A.Oripov, E.Vohidov, Sh.Xolmirzayev, kino va teatr rejissorlari Sh.Abbosov, B.Yo'ldoshev, O.Salimov, N.Abdurahmonov, aktyorlar S.Eshonto'rayeva, Z.Muhammadjonov, Y.Ahmedov, adabiyotshunos, san'atshunos olimlar O.Sharafiddinov, N.Karimov, M.Qodirov, A.Qayumov, E.Rtveladzelar bor edi.

Dastlab haftada bir marta, so'ngra oyda ikki marta 8 yil mobaynida efirga chiqqan ko'rsatuvning barcha mehmonlarini sanab o'tishning imkoni yo'q. Biroq keltirib o'tilgan ro'yxatning o'zidan qanday yirik ijodiy shaxslar va yorqin individual insonlar «Rakurs»ning mehmoni bo'lganligi, muhokama qilingan masalalar doirasi qanchalik keng va xilma-xil ekanligi ko'rinib turibdi.

Albatta, «Rakurs»ning barcha ko'rsatuvlari birdek qiziqarli emas edi. Balki, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz ko'rsatuvlarning almashib turishi normal, izohlash mumkin bo'lgan hodisadir. Taklif etilganlarning barchasi ham o'z kasbining mohiyati to'g'risida samimiy va ochiq so'z yuritishga ruhan tayyor deb bo'lmasdi, uningsiz esa ko'rsatuv o'z mazmunini yo'qotar edi. Telekamera qarshisida hamma ham o'zini ruhan xotirjam tutavermasligi yaxshi ma'lum. Hatto aktyorlardek ommaviy kasb egalari ham telekamera qarshisida «o'z rollarida» paydo bo'lganda ko'pincha tajribali aktyor ham

qutulib ketishi qiyin bo'lgan «bosim» ostiga tushib qolish holatini boshidan kechiradilar.

Muntazam ravishda haftada bir marta ko'rsatuv olib borilganda tajriba tezlikda oshadi. «Rakurs» ko'rsatuvining doimiy boshlovchisi Oybek Veysal o'g'li tez orada «Yoshlar» telekanalining eng taniqli «shaxslari»dan biriga aylandi. Boz ustiga u o'zining ko'rsatuvni olib beruvchi maqomini zarracha suiiste'mol qilmadi, panaroqda turishga harakat qildi, kadrda tushganda ham yon tomondan, teleekraning eng chekkasida paydo bo'ldi. Bu ham ko'rsatuv konsepsiyasining bir qismi hisoblanadi. Bunda barcha narsa mehmonning ijodiy shaxsiga qaratilgan bo'lib, rejissor, boshlovchi va teleoperator uning uchun «ishlaydi». Asosiy e'tiborni qahramonga qaratish hatto panaroqda turishga intilsa ham tinglash va kerakli savollarni berish uquviga ega bo'lgan boshlovchi shaxsini soyada qoldirmas ekan.<sup>1</sup>

Shunday qilib, «Rakurs»da bunday turdagi ko'rsatuvlarni tashkil etuvchi qimmatli jihatlar o'z aksini topdi, muomala qilinadigan vaziyat professional tashkil etildi va suhbatning o'zi uquv bilan olib borildi. Dolzarblik va muloqot mazmunining o'tkirligi ham kam ahamiyatga ega bo'lmadi.

Zamonaviy televideniye umuman 60–80-yillarga xos bo'lgan shoshilmasdan, bamaylixotir hikoya qilishni, ba'zan shov-shuvli yorqinlik va keskinlikni ma'qul ko'radi. «Rakurs»ning mehmonlari – o'zbek xalqining obro'li va hurmatli, ijodda tajribali odamlari, shu

<sup>1</sup> «Kutilmagan mehmon» ko'rsatuvida boshlovchining boshqacha, qarama-qarshi obrazi taqdim etilgan. Ushbu ko'rsatuvni olib boruvchi Yu.Oripova uning bosh qahramoni ham hisoblanadi. U hamma vaqt kadrda, buning ustiga suhbatdoshidan ko'proq gapiradi. Aslini olganda ko'rsatuvning niyati yaxshi – zamonaviy ommaviy madaniyat, estrada, shou biznes vakillari bo'lgan yoshlar bilan erkin vaziyatda uchrashish. Ushbu ko'rsatuvni ruhan erkin dunyoviy suhbat shaklida qurishga intilish muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin edi, biroq shaklning istalgan yengilligi mazmunning yengilligi bilan yo'qqa chiqqan. A.Vartanov ko'rsatuvni bunday olib borish usulini muvaffaqiyatli ravishda «shov-shuv, mish-mish tarqatuvchi jurnalistika» deb ataydi. Uning mohiyati «odamlarga madaniyat, san'at, hayotda yuz berayotgan ma'naviy mohiyat emas, balki ba'zan madaniyat, san'at va ko'p qirrali hayotning boshqa hodisalari bilan birga kechadigan kuchli taassurot qoldiradigan, «yarqiroq, o'ziga chorlaydigan yaltir-yulturlar qiziqarli ekanligidan iborat». (A.Вартанов. Актуальные проблемы телевизионного творчества на телевизионных подмостках. – М., 2003).



boisdan shov-shuv qilish ularga yarashmaydi. Ko'rsatuv ijodkorlari keskinlikni boshqa narsada ko'rishdi. Studiyadagi muloqotlar taniqli ijodkorlarning o'z kasbi, san'atning hozirgi holati, o'tmish va kelajak haqidagi mulohazalar asosiga qurildi.

Bunday turdagi ko'rsatuvlarga qiziqish ularda ko'pchilik hollarda zamonaviy badiiy jarayonning amaliyotchilari qatnashganligi boisidan yana bir karra oshadi. Rejissorlar, rassomlar, yozuvchilar, bastakorlar o'z muzxislari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish imkoniyatiga uncha ham ko'p ega bo'lavermaydilar. Shu sababli o'z kasbi haqida doimo o'ylaydigan haqiqiy professionallar hamma vaqt nimanidir aytishga ehtiyoj sezadilar. «Rakurs» mehmonlari zamonaviy san'atning muammolari haqida to'planib qolgan fikrlarni teletomoshabinlar bilan baham ko'rdilar.

Ushbu mulohazalarning ko'pchiligi turli ixtisosliklarga ega bo'lgan san'atshunoslarning jiddiy tahlili mavzusi bo'lishi mumkin edi. Taniqli rejissor B.Yo'ldoshev teatr jarayonidagi og'riqli muammolar haqida so'z yuritdi.

Toshkent yosh tomoshabinlar teatri va Yoshlar teatrining badiiy rahbarlari O.Salimov va N.Abdurahmonov bolalar teatrlarining ijodiy va tashkiliy holati haqida fikr almashdilar. Sh.Abbosov zamonaviy o'zbek kinosi haqida o'z ishining ustasi sifatida qat'iyat bilan so'z yuritdi... Aytilganlarning barchasiga qo'shilish mumkin emas, albatta. Ko'rsatuv va uning boshlovchisi to'liq va yalpi ma'qullashni talab ham qilishmaydi. Asosiy gap har xil fikrlarni silqlashtirishda emas, balki shaxsiy nuqtayi nazarlarga borib taqaladi.

«Rakurs» madaniyat to'g'risidagi ko'rsatuvlar orasida uzoq vaqt «efir umrini» yashaganligi bilan ajralib turdi. 2005-yildan boshlab bu ko'rsatuv boshqa formatda efirga chiqa boshladi. Endilikda u telesuhbatlar emas, balki o'ziga xos ajoyib sanalar taqvim edi.

Yangi ko'rsatuv ikki haftada bir marta Vatan va jahon madaniyatining yubilyarlari, shu oyda tavallud kunlarini nishonlaydiganlar haqida tayyorlana boshladi. Qisqa syujetlar, zamondoshlar bilan qisqa suhbatlar, hayotdan ko'z yumganlar haqidagi qisqa hikoyalar, ustalik va did bilan tanlangan musiqaviy jo'rlik va illyustrativ material. Oldingi turkumga munosib ko'rsatuv. Boz ustiga birinchi «Rakurs» yillar o'tib asta-sekin bo'g'ilib qolgan edi, «ajoyib odamlar» doirasi tobora torayib borayotganligidan qiynalmoqda edi. Buning sababini izohlash mumkin – sakkiz yil mobaynida ko'rsatuvda

o'zbek madaniyatining suhbatlashish uchun taklif qilish zarur deb hisoblangan barcha taniqli kishilari ishtirok etib bo'lishdi ...

Yangi «Rakurs»ning har bir ko'rsatuvi endilikda 6–7 syujetdan iborat. Ularning katta qismi zamonaviy san'at ijodkorlarining tavallud kunlariga, qolganlari Vatan va jahon madaniyati yirik arboblarning muhim sanalariga bag'ishlandi.

Eski nomdagi yangi dasturda yubiley sanalariga yubileyga xos bo'lmagan yondashuv o'ziga jalb qiladi. «Tantananing aybdorlari» bilan bo'ladigan har bir uchrashuv ijod haqidagi mulohazalarga bahona bo'ladi. Dasturning yaratuvchilari yangi formatga o'tib o'z hayotlarini aslo yengillashtirmadi. Balki aksincha – endilikda sakkiz syujetni tayyorlash, suratga olish va efirga uzatish kerak bo'ldi. Ushbu qisqa metrajli materiallar ham o'ziga xosligi bilan ajralib turardi.

Syujetlarning qisqaligidan afsus chekish mumkin xolos. Jumladan, ayni bir ko'rsatuvning o'zida taniqli ashulachilar N.Abdulayeva va M.Yo'lchiyevaning tug'ilgan kunlari «nishonlandi». Jozibali, aqlli ayollar faqat o'zlari haqida so'zlab qolmay, o'z kasbi haqida mulohaza bildirishdi. Ulardan biri estrada qo'shiqchisi, ikkinchisi maqomlar ijrochisi. Tasodif garchi har xil syujetlarda bo'lsa-da ularni bir ko'rsatuvda bir-biriga duch keltirdi. Ularning har ikkalasi qiziqarli suhbatdosh chiqib qoldi. Ushbu tasodifiylik zamonaviy qo'shiq san'ati, milliy ijro an'anasi va zamonaviy ohanglarning o'zaro hamkorligi haqida muloqot qilish uchun ajoyib bahona tug'dirgandi. Biroq bu biror boshqa ko'rsatuvning mavzusi bo'lishi mumkin. Taqvim bilan bog'liq «Rakurs»ning prinsipi keng muloqot emas, balki qisqa monologlardir.

Lo'nda lakonizm – vaqtni qadrlaydigan ko'rsatuvlarning ajoyib fazilati. «Davr» faqat televideniye davri emas. U o'z nomi bilan «Davr». «Davr»da o'tgan asr O'zbekiston san'at arboblari to'g'risida ko'plab syujetlar mavjud. Bunday syujetlardan kinoxronika, eski filmlar va spektakllardan parchalar o'rin olgan. Bu hamma vaqt to-



Rejissor Maqsud Yunusov aktyorlar bilan.

moshabinlarning turli avlodlari uchun o'z-o'zicha qiziqarlidir. Keksa avlod o'tgan kunlarni yodga oladi, yosh avlod ular tug'ilishidan ancha oldin yuz bergan voqealar, shaxslar bilan tanishadi.

Eski va yangi turkumlarni televizion mahoratning umumiy maktabi birlashtirib turadi. Ularning boshlovchisi aynan bir shaxs. Tafovut mualliflarning eski «Rakurs» asosida mavzusi, formati, janri bo'yicha prinsipial jihatdan boshqa ko'rsatuv yaratish istagi bilan belgilanadi. Uncha katta bo'lmagan syujetlarga o'tmish va hozirgi zamonning san'ati haqidagi jiddiy mulohazalar jam bo'ladi.

San'at haqidagi ko'rsatuvlar orasida ajralib turgan «Siyrat» dasturi muntazam bo'lmasa-da, teletomoshabinlarning diqqat-e'tiborini jalb qilish uchun tez-tez efirga chiqib turdi. Ushbu ko'rsatuv avval boshdanoq san'at kishilariga bag'ishlangan ko'rsatuv sifatida o'ylingan va qurilgan edi.

Ushbu ko'rsatuvlar, ma'lumki, muallif va boshlovchilardan alohida nazokatni va mavzuni yaxshi bilishni, materiallarni berishning sinovdan o'tgan va yangi shakllarini talab qiladi. «Siyrat» ko'rsatuvi ushbu talablarga javob berdi. Ko'rsatuvning ko'pchilik sonlarini istalgan parchadan boshlab tomosha qilish va hech bir qiyinchiliksiz bu «Siyrat» ko'rsatuvining parchasi ekanligini aytish mumkin. Hatto dasturning muallifi va boshlovchisi — san'atshunos N.Oqilova kadrda ko'rinmaganda ham shu ko'rsatuv ekanligini bilib olish mumkin. Ko'rsatuv elementlarining istalgan birini bilib olish so'zsiz uning yutug'idir. Teletomoshabinning idrok qilish psixologiyasi san'atning boshqa turlarida idrok qilishga ko'p jihatdan o'xshash. Tomoshabinlarning asosiy ommasi dastlab biror-bir mashhur, odatdagi, tanib olish mumkin bo'lgan ko'rsatuvlarga ustunlik beradi. Shu sababli zamonaviy televideniyeda bir martalik dasturlar emas, balki turkum ko'rsatuvlar mashhurdir. Aslini olganda zamonaviy televideniyeda jiddiy ijodiy loyihalar har xil formatli mavzuli turkumlar yaratishga yo'naltirilgan.

Biroq, niyat qilingan turkum uning kelgusidagi yuqori reytingining kafolatini bermaydi — bu ijodiy jamoaga berilgan o'ziga xos avansdir xolos. Ko'pincha rejalashtirilgan turkum ikki-uch gallik ko'rsatuvdan keyin to'xtab qoladi. Keyingi 15 yilda O'zbekiston televideniyesida ko'pincha shunday hollar yuz berdi. Efirga berilgan dastlabki ko'rsatuvlarda mavzu, janr, uslub birligi yo'qligining o'zidanoq u yoki bu turkumning uzoq davom etmasligini oldindan

taxmin qilish mumkin. Garchi ularda madaniyat haqida so'z borsa ham ko'rsatuvlar turkumga tasodifiy birlashadi, ularni tanib olish mumkin emas, biror-bir turkumga mansubligi ayon ko'rinib turmaydi. Shu sababli ushbu hollarda batafsil ijodiy buyurtma sifatida bunday loyihalar haqida so'z yuritish dargumon.

Masalan, «Muvozanat» turkumida yozuvchi Oybek ijodi, O'zbekistonning o'lkashunoslik va tibbiyot muzeylari, O'zbekiston Islom universiteti haqidagi ko'rsatuvlar efirga uzatildi. Shubhasiz ular o'zbek madaniyatiga tegishli. Biroq, mavzu bu tarzda cheklanmagan ravishda kengaytirib yuborilgan taqdirda har xil boshlovchilar olib boradigan mavzusi, shakli, stilistikasi bo'yicha mutlaqo boshqa-boshqa ko'rsatuvlarni istalgan nom bilan istalgan turkumga guruhlashtirish mumkin. Bunday holda televideniyeda dasturlash, ko'rsatuvlar setkasi tuzilmasini shakllantirish o'z ma'nosini yo'qotadi. Bu esa televideniyaning o'zining muhim madaniy tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar ko'rsatuvlar bir turkumda, bir xil nomda efirga uzatilsa, yagona nuqtai nazarni, umumiy muhitni, intonatsiyani, har xil ko'rsatuvlarni birlashtiradigan umumiy elementlarni topish juda muhimdir. Aks holda alohida ko'rsatuvlar qanchalik qiziqarli bo'lmasin, turkum hech qachon o'z ijodiy qiyofasini topmaydi, uni tanib olish mumkin bo'lmaydi va uni tomoshabinlar kutmaydi. Aslini olganda shunday ham bo'ldi. Bu «Muvozanat» turkumi doirasida ayrim qiziqarli ko'rsatuvlar bo'lsa ham uning efirda ko'rinmay qolishiga sabab bo'ldi.

«Siyrat» «umumiy ifodali bo'lmagan shaxslar» san'ati to'g'risidagi ko'rsatuvlar orasida ajralib turar edi. U san'at kishilariga, asosan teatr odamlariga bag'ishlandi. Boshlovchining nazokatli, ziyolinamo odobi u bilan ko'rsatuv qahramonlari — aktyorlar, rejissorlar o'rtasidagi muloqot stilistikasi va intonatsion qurilishida o'z aksini topdi.

Ushbu muloqotlar televizion pavilyonlarda emas, balki teatr interyerlarida bo'lib o'tdi. Suhbatlar kimsasiz teatr foyyalarida, bo'mbo'sh tomosha zallarida, artistlarning pardoixonalarida bo'lib o'tdi. Yorqin va bayramona teatr hayoti bu yerda boshqa jihati — odatdan tashqari jimlik va san'at olamining ish muhiti bilan namoyon bo'ldi.

Teatr san'ati to'g'risidagi ko'rsatuvlar (ijodiy portretlar, yangi spektakllar to'g'risidagi axborot, teleintervyu) orasida «Siyrat» o'z o'rniga ega. Ko'rsatuvning ko'pchilik sonlari A.Navoiy nomidagi

teatrning ijodiy hayotiga – balet artistlariga, opera qo'shiqchilariga, yangi rejissorlik ishlariga bag'ishlandi. Unda pedagoglar, xoreografiya bilim yurti va konservatoriya, San'at institutining bitiruvchilari qatnashdi. A.Navoiy nomidagi teatr murakkab ijodiy ahvolda bo'lgan, televideniyeining o'zi «milliy o'ziga xoslikni» izlash bilan haddan tashqari band bo'lgan va tarixiy mavzularga mukkasidan ketgan 90-yillar oxiri – 2000-yillarda balet va opera san'atini ommaviylashtirish nafaqat estetik, balki keng madaniy ahamiyatga ham ega edi.

Xorijiy telekanallarda keng ommalashgan tok-show formati hozircha bizning televideniyeimizda rasm bo'lmadi. Bu yerda televizion muloqotning kamroq hissiyotli, an'anaviyroq shakllariga ustunlik beriladi. «Zinnat» dasturi aynan mana shu shaklda efirga chiqa boshladi. Qat'iy qilib aytganda, ushbu dastur faoliyati faqat san'atga bag'ishlanmagan edi. Unda har xil gumanitar va texnik mutaxassislar, pedagoglar, olimlar, tibbiyot xodimlari qatnashdi. Bunday ko'rsatuvlar qanchalik kam bo'lmasin – ular boshlovchi N.Zohidova va uning suhbatdoshlari o'rtasidagi alohida bir-biriga ishonch va muomala madaniyati bilan esda qoldi. Dastur o'zida aynan mavzusi va shakliga ko'ra boshlovchining shaxsi tufayli turkumga birlashishning misoli hisoblanadi.

Dasturni suratga olish joyi hech bir doira bilan cheklanmadi. Suhbatlar studiya pavilyonlarida va teatr binolarida, ko'rsatuv qahramonlarinikida bo'lib o'tdi. Har xil joylarda suratga olingan parchalar erkin montaj qilindi va bitta audiovizual qatorga kombinatsiya qilindi hamda suhbatdoshlarning muloqotlarida, muallif va boshlovchining luqmalari va sharhlarida qahramonning favqulodda ijodiy shaxsi ochib berildi.

Dasturning O'zbekiston xalq artisti Ya.Abdullayeva va san'atshunos olim M.Rahmonovga bag'ishlangan ko'rsatuvlari mana shu jihatlari bilan ajralib turdi. Bu odamlarning butun hayoti teatr san'ati bilan bog'liq. Ular yoshlari o'tib qolganligiga qaramay, faol ijodiy ishni tark etmaganlar. Ularning o'z hayoti va ijodi haqida aytadigan gaplari ko'p. Hayotiy tajriba tufayli aql va donolikni o'zida mujassam etgan bu odamlar uchun bu hayot va davrni biladigan inson bilan o'z davri va san'at to'g'risidagi fikrlar, mulohazalarni baham ko'rish albatta qiziqarli edi. N.Zohidova ana shunday o'z ishiga mohir boshlovchilardan biridir. Uning san'at va ilmiy ijoddagi

hayotiy va ijodiy tajribasi unga ba'zan suhbatdoshlarga, demak tomoshabinlarga muhokama qilinayotgan muammolarga boshqacha nazar tashlashni taklif qilish huquqini berar edi.

N.Zohidova bunday o'zicha ko'rishni, o'z nuqtayi nazarini bosiqlik, odob bilan va o'z fikrini zo'rlandirib, faqat savollar berib qolmasdan, tinglashni ham o'rniga qo'yib ifodalaydi. Bu bilan faqat yaxshi tinglovchining yaxshi so'zlab beruvchisi bo'ladi degan so'zlarning haq ekanligini isbotlaydi.

Boshqa dasturlarda bo'lgani singari «Zinnat» dasturida muvaffaqiyatlar bilan birgalikda nuqsonlar ham bo'ldi. Ba'zida studiyadagi suhbatlar asossiz ravishda cho'zilib ketar, taklif etilganlar hamisha ham ishonchni oqlayvermas edilar. Gap, aslida, ayrim ko'rsatuvlarning fazilatlarini va nuqsonlari haqida ham emas. Boshqa bir narsa ayon: har xil ko'rsatuvlar boshlovchining muomala madaniyati, shaxsi, alohida ishonch muhiti bilan ajralib turadi.

«Rakurs», «Siyrat», «Zinnat» singari uzoq vaqt efirga uzatilgan ko'rsatuvlar to'xtab qolishini ko'plab sabablarga ko'ra oqlash mumkin. Yangi dasturlar, yangi texnologik imkoniyatlar paydo bo'lganda, dastlab loyiha asos qilib olingan ijodiy resurslar tugaydi. «Tok-show» janrining yaratuvchisi va uning klassigi mashhur Fil Donaxyuning televideniyeidan ketishi bunga yorqin misoldir. O'z kasbining ustasi reytingining pasayib ketishi televideniyeidagi ajoyib yutuqning pasayishiga sabab bo'ldi.

Bir qancha dasturlarning yo'q bo'lib ketishi tufayli hosil bo'ladigan bo'shliq asta-sekin to'ldirib boriladi. Eski ko'rsatuvlar o'rniga yangi ko'rsatuvlar keladi. Ular orasida yangilangan «Rakurs»dan tashqari «Kinotaqdim», «KinoTeatr», «Diydor», «Qiyofa», «Hayot davom etadi» singari ajoyib, muntazam berib boriladigan turkumlar mavjud.

«KinoTeatr»ning nomidan ma'lumki, ko'rsatuv o'zbek kinematografiyasi va teatr san'ati yangiliklariga bag'ishlangan. Ko'rsatuv



Adib Mirzakalon Ismoilov televideniye ijodkorlar davrasida.



«Mehr ko'zda» ko'rsatuv ijdokorlari.

bir necha yillardan beri efirga chiqadi. Bu orada u salmoqli o'rinni egalladi va tomoshabinlar o'rtasida ommalashdi. Dastlab unda har xil montaj va matnlarining bir-biriga mos emasligini kuzatish mumkin edi. Vaqt o'tib tajriba to'plandi, professionalizm o'sdi, ko'rsatuv zamonaviy qiyofa va dinamikaga ega bo'ldi.

Uning yangilik tarqatuvchi, axborot berish tusidagi xususiyati

dizayner bezagida, parchalar dinamik montaj qilinishida, naturada suratga olinganlardan boshlovchining lo'nda sharhlariga keskin o'tishda namoyon bo'ladi. Hatto, masalan, «Rakurs»ga xos bo'lgan uslubiy soflikning yo'qligi ham bu o'rinda teletoshabinlarning xotirasida aniq va yorqin esda qolish xohishidan tug'iladigan niyatdek tuyuladi. Videokliplar uchun xos bo'lgan «parchalangan montaj» usuli ko'rsatuvning axborot berish vazifalari bilan o'zini oqlaydi. Zamonaviy kino san'ati yangiliklariga bag'ishlangan «Kinotaqdim» ko'rsatuv uchun ham mana shunday istak va usullar xosdir.

Kinematografiya to'g'risidagi syujetlarning o'ziga xosligi shundaki, bu yerda urg'u ko'pincha tayyorgarlik ko'rish, suratga olish va repetitsiya qilish jarayoniga beriladi. Televideniye ijodiy jarayonining barcha sirlari allaqachonlar oshkor etilgandek bo'lib tuyuladi – suratga olish maydonlaridan kadrlar, spektakllar repetitsiyalari parchalari teleekranlarda odatdagi holga aylandi. Biroq teletomoshabinlarning ularga qiziqishi saqlanib qolmoqda. Televizor qarshisida o'tirgan tomoshabinlarning qiziqishiga javob berish, ularga ijodning ichki muhitiga kirish, san'atning «qora ishi»ga nigoh tashlash imkoniyatini berish – ko'rsatuvning vazifalaridan biri.

Ko'rsatuv mualliflari va uning boshlovchisi (Sh.Raufboyeva va M.Nishonova) ushbu vazifani muvaffaqiyat bilan uddalashmoqda. Ko'rsatuv muntazam berib borilishi tufayli bo'lib o'tgan va bo'lajak premyera to'g'risidagi yangiliklar tomoshabinga tezkorlik bilan yetkazib berilmoqda.

Zamonaviy televideniye muammolari bilan bog'liq ravishda «KinoTeatr» ko'rsatuv mualliflari axborot berish-ommalashtirish vazifalari bilan cheklanib qolmasligi ko'rsatuvning ajoyib jihatidir. Ko'rsatuvning eng yaxshi sonlari zamonaviy kino va teatring muammolari teran va har tomonlama tahlil qilinishini ta'minlaydi.

Ko'rsatuvda taniqli kinorejissor M.Abzalov zamonaviy o'zbek komediyasi to'g'risida o'z fikrlarini bildirdi. Yetakchi kinorejissorlar Yu.Roziqov va Z.Musayev, yozuvchi va ssenariychi E.A'zam O'zbekiston kinematografiyasidagi izlanishlar haqida so'z yuritdi. Vatan televizion ijodkorligining mumtoz namunalariga aylangan bir qancha teleseriallar yaratgan taniqli rejissor M.Muhamedov o'zbek teleseriali to'g'risidagi o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi. Deyarli har bir ko'rsatuvda taniqli professional bilan qisqa intervyular olib borildi. Har bir intervyu mavzusi barchaga – tomoshabinlarning keng doirasiga va san'at kishilariga qiziqarli. Bu «KinoTeatr» ko'rsatuviga ham tegishli ekanligi e'tiborli. Biroq, televideniya yanada rivojlantirilmagan, faqat dahl qilib o'tilmoqda. Ko'rsatuvlar tomoshabinlarda san'at to'g'risidagi qiziqarli suhbatga qandaydir kirish so'zi, taklifdek taassurot qoldirmoqda. Biroq bundan nanga o'tilmayapti.

Aytib o'tilganlarni «KinoTeatr» mualliflariga tanbeh deb qabul qilmaslik lozim. Ajratilgan o'n besh daqiqalik fursatda ko'rsatuv o'z oldiga qo'yilgan vazifani oqlaydi. Bu o'rinda gap aniq bir ko'rsatuv haqida emas, balki zamonaviy san'atga bag'ishlangan mavzuh segmentni to'ldirish prinsiplari haqida bormoqda.

Ideal jihatdan ushbu prinsiplar axborot va axborot tahliliy ko'rsatuvlar o'rtasidagi mutanosiblikka rioya qilinishiga asoslanishi kerak. Amaliyotda axborot ochiq-oydin ustunlik qiladi, buni tushunsa bo'ladi, chunki ushbu tendensiya televideniyaning o'ziga xosligiga javob beradi, biroq u san'atdagi hozirgi holatni jiddiyroq anglab olishga urinishlarni efdan chetga surib chiqarmoqda.

Umuman olganda televideniye o'tkir ijtimoiy muammolardan o'zini chetga oladi deb bo'lmaydi. Har xil kanallarda tashqi va ichki siyosatning yetarlicha o'tkir masalalari, jinoiy va ijtimoiy-maishiy



«Mehr ko'zda» ko'rsatuvidan lavha.

muammolar ko'tarib chiqiladi. Bu jihatdan san'at to'g'risidagi ko'rsatuvlarga ko'proq qaysidir ma'noda axborot berish, ko'ngil ochish roli ajratiladi.

Siyosiy, iqtisodiy va zamonaviy hayotning ijtimoiy jihatlariga bag'ishlangan boshqa dasturlardan farq qilgan holda san'at to'g'risidagi ko'rsatuvlarda ko'ngilocharlik to'liqroq ifodalanishi talab qilinadi. Biroq bu ularda san'at muammolariga teran kirib borish lozim emasligini anglatmaydi.

Ehtimolki, tonggi «Assalom, O'zbekiston» axborot-dam olish dasturida va san'at kishisiga — rejissor, rassom, aktyorga bag'ishlangan maxsus ko'rsatuvda ijodkor shaxs to'g'risidagi syujet o'rtasida sezilarli farq bo'lishi kerakdir, chunki erta tongdan san'at to'g'risidagi jiddiy suhbatga chog'langanlar kam topiladi. Praym-taymda efirga uzatiladigan maxsus ko'rsatuv esa boshqa gap.

Biz televideniye haqida ma'naviyat shakllanishining qudratli omili sifatida gapirishga o'rganib qolganmiz. Biroq ushbu formula teletomoshabinlarning san'atdagi voqealar, ijodkor shaxslar bilan tanishishnigina nazarda tutmaydi. U san'atdagi murakkab hodisalar va jarayonlarni tushunib olishga intiladigan teletomoshabinlar ommasining ehtiyoj va qiziqishlarini o'z ichiga oladi. Tomoshabinlar ko'rsatuvlarning qahramonlarida go'zallikni xunuklikdan, haqiqatni soxtalikdan farqlashga yordam beradigan samimiy insonlarni ko'radilar. Televideniye tomoshabin takliflariga o'z munosabatini bildirishga urinishi ko'rsatuvlar mualliflari va boshlovchilardan puxta tayyorgarlik ko'rish va o'z ishini yaxshi bilishni talab qiladi.

Bu jihatdan ijodiy portret janridagi ko'rsatuvlar eng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Bizning televideniye uchun an'anaviy bo'lgan — Ch.Ahmarov, G'.G'ulom, A.Qahhor, N.G'aniyev, A.Muxtor, O.Xo'jayev, M.Uyg'ur, kabi sahna, rang-tasvir, so'z ustalarining ijodiga bag'ishlangan ko'rsatuvlar 90-yillarda har xil telekanallarda qayta-qayta takroran berilganligini aytish lozim. Ushbu yaxshi an'ana bugungi kunda ham davom etmoqda.

Ijodiy televizion portretlarning farq qilib turadigan belgisi ularning asoslanganligida. Bu — ssenariyda, ikonografik va esdalik materiallarning keng jalb etilishida, parchalar va illyustratsiyalar tanlanishida, boshlovchi va odatda o'zbek madaniyatining mashhur siymolari bo'lgan taklif etilgan suhbatdosh-ekspertlarning o'z sohasini yaxshi bilishida his qilinadi.

Televizion portretga kirgan va kirmagan yirik rassom, yozuvchi, aktyorning ijodiy va hayot yo'li haqidagi axborot hajmi va tahlil qilish darajasi ba'zan shunchalik lo'nda bo'ladiki, ulardan ularning ijodi to'g'risida bo'lajak televizion filmlarda alohida parchalar sifatida foydalaniladi.



«Xonadon» ko'rsatuv mash jarayoni.

San'at to'g'risidagi ko'rsatuvlarning barcha boshqa turlari va janrlari orasida televideniye ijodiy portretga ko'p o'rin beriladi. Agar san'at to'g'risidagi boshqa istalgan ko'rsatuvga ajratilgan vaqt 15–20 daqiqa bilan chegaralansa, televizion portret 45 daqiqagacha davom etadi. Alohida hollarda (misol uchun yozuvchi Oybek, aktyor Sh.Burhonov bilan bo'lgan suhbatlar) ko'rsatuv bir necha qismdan iborat bo'lishi, qatorasiga ikki-uch kun efirga chiqishi mumkin.

Ko'rsatuvning bunday uzoq davom etishi yo'l qo'yib bo'lmaydigan isrofgarchilik bo'lib tuyulishi mumkin. Boz ustiga televideniye har bir efir vaqtini qadrlashi kerak degan gap allaqachonlar qator topgan. Biroq bizning televideniye vaqti-vaqti bilan o'ziga lozim topadigan bunday «dabdaba» ham televideniye gumanitar, ma'rifatparvarlik vazifalari nuqtayi nazaridan ham, uning o'ziga xosligi nuqtayi nazaridan ham o'zini mutlaqo oqlaydi.

Mamlakatning badiiy madaniyatiga katta hissa qo'shgan yirik ijodiy shaxs o'zida hozirgi avlod uchun professional va axloqiy namunani ifodalaydi. Mustaqil davlat qurishning o'tish davrida, mafkuraviy va estetik yo'nalishlar almashayotgan davrida, san'atning tijoratlashuvida bunday siymolarga bo'lgan qiziqish kuchayadi — san'atning o'zi va jamiyat yuksak badiiy mezonlar va axloq normalarini o'zida mujassam etgan siymolarga ehtiyoj sezadi. Bunga ijodiy portretlar yoshlar uchun bilim olish bilan bog'liq alohida ahamiyatga ega ekanligini qo'shimcha qilamiz. Yosh avlod uchun televideniye ko'pincha o'tgan asrdagi Vatan san'ati to'g'risidagi bilimlarning asosiy manbai hisoblanadi.

Shu sababli san'at to'g'risidagi ko'rsatuvlar orasida ijodiy portret janrining ustunlik maqomi mutlaqo qonuniydir. Televideniye bu bilan yaxshi an'analarga ehtirom bildirib, hozirgi jamiyatning talab va ehtiyojlariga javob beradi.

Yirik ijodiy shaxsning teleekranda hozir bo'lishi televideniyaning spetsifikasiga ham javob beradi. Bu o'rinda televideniye teatr bilan taqqoslash talab qilinadi. Ma'lumki, katta aktyor tomosha zalida o'tirgan tomoshabinlarning e'tiborini o'ziga jalb qilishi uchun sahnada shunchaki paydo bo'lishining o'zi yetarlidir. Televideniye-da ham shunday. San'atdagi o'zining yutuqlari bilan mashhur bo'lgan shaxsga qiziqish birdaniga paydo bo'ladi, fotosuratni, eski kinoxronika kadrlarini, spektakldan parchalarni, shoirning o'z she'rlarini o'qiyotgan parchalarni ko'rsatishning o'zi yetarlidir. Mashhur rassom yoki yozuvchining kuzgi daraxtlar barglari orasida bazo'r ko'ringan holda xiyobonda yolg'iz sayr qilib yurishi teletomoshabinlarni ekranga chorlaydi. Shaxs afsungarligi sahnada ham, teleekranda ham birdek.

Buyuk o'zbek aktyori Shukur Burhonovning ijodiy portreti barcha jihatlariga ko'ra ajoyib. Mualliflar oldida uncha murakkab bo'lmagan vazifa turgandek tuyuladi. O'zbekistonning badiiy madaniyatida ijodiy hayot to'g'risidagi bunchalik guvohliklar bu ijodkorda bisyor. Aktyorni o'zi o'ynagan rollarda, har xil hayotiy vaziyatlarda, mashhur san'at arboblari, sahnadagi hamkasblari bilan birgalikda muhrlangan juda ko'plab foto suratlar, o'n yetti yoshidan boshlab aktyorning hayot yo'lini kuzatish mumkin bo'lgan hujjatli kinoxronikaning nodir kadrlari saqlanib qolgan. Uning ishtirokidagi badiiy filmlar va spektakllarning yozuvlari saqlangan, aktyor to'g'risida ko'plab esdaliklar, uning teatr, kinodagi ishi to'g'risidagi yuzlab taqrizlar, u haqidagi kitoblar mavjud.

Tajribali telerejissor va muharrir uchun ushbu materialni montaj qilish umuman olganda katta murakkablik tug'dirmaydigandek tuyuladi. Bundan tashqari, Sh. Burhonov haqidagi ko'rsatuvlar oldin ham yaratilgan. Deyarli barcha mavjud kino va fotomateriallar bir yarim soatga yaqin davom etadigan uch qismdan iborat ko'rsatuvga jamlangan. Televideniyaning ustunlik berishini hisobga olganda ko'rsatuvning buncha uzoq davom etishi o'ziga xosdir.

Ko'rsatuv davomida uning mualliflari yetarlicha oddiy bo'lgan vazifani – keng va ma'lum material asosida aktyor ijodi to'g'risida

hikoya qilish vazifasini hal etmasliklari to'g'risidagi taassurot paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Ular o'z oldiga yana bir vazifani qo'yadilar, ya'ni Shukur Burhonov fenomenini ochib berishga intiladilar.

Aslida ham aktyor ijodi o'rganilganligiga qaramay, uning afsunkor iste'dodi siri ochilmaganligicha qolmoqda. Mana shu sir-sinoatga qiziqish, aktyorning yashirin sirini anglab olish istagi, uni tomoshabinlar, studiyada hozir bo'lganlar bilan birgalikda ochishga intilish – ushbu televizion portretning o'ziga xos jihatlarini tashkil etadi. Asosan boshlovchining mahorati tufayli ko'rsatuv shu holda namoyon bo'ladi.

Ko'rsatuvning boshlovchisi teatr sohasidagi taniqli mutaxassis X. Ikromov studiyada yolg'iz o'zi. Bu yerda auditoriya yo'q. Biroq u faqat teletomoshabinlarga emas, balki bu yerda, studiya pavilonida hozir bo'lganlarga murojaat qilayotganidek taassurot paydo bo'ladi. Ehtimolki, televideniyaning barcha amaliyotchilarida (ushbu maqolaning muallifi esa o'zining radiodagi ish tajribasiga suyanishi mumkin) ko'rsatuvni tayyorlash jarayonida, ko'rsatuvda tilga olingan biror-bir masala yoki muammo «o'z doirasida» ehtiroska berilib muhokama qilinayotgan lahzalar paydo bo'ladi. Rejissor, muharrir, boshlovchi, operatorning har biri barchani qiziqitgan masalada o'z fikrini, o'z nuqtayi nazarini, o'z javobini bildiradi. Lekin bularning barchasi efrigra uzatilmaydi.

Sh. Burhonov haqidagi ko'rsatuvda boshlovchining xizmati u ushbu hissiyotli va ijodiy muhitni buzmagandligida, teletomoshabinlar uchun uning badihago'ylik intonatsiyasini saqlab qolganligidadir. H. Ikromov dastlab buyuk aktyor to'g'risidagi yuksak maqomli so'zlarni keltirib ijodiy tarjimai hol haqida shunchaki aytib berishdan voz kechadi, o'z sharhlariga shaxs va kasb bilan bog'liq belgilarni kiritadi, Sh. Burhonov aktyorlik mahoratining o'ziga xos xususiyat-



«Yoshlar» studiyasi ijodkorlari.

larini maroq bilan ochib beradi. Masalan, aktyor intonatsiyasining kuyga hamohangligi, boshlovchining fikriga ko'ra uning iste'dodining milliy tabiatiga borib taqaladi va realistik san'atga zid emas.

Kirishib ketish, hissiyot, materialni professional bilish sof televizion «auditoriyaning hozir ekanligini his etish» bilan birga qo'shilib boshlovchining fazilatiga aylanadi. Shu tufayli aktyor obrazi teletomoshabinlar uchun yangi qirralari bilan ochiladi, mohiyatiga ko'ra yodnoma ko'rsatuv jonli zamonaviy mazmun-mohiyat kasb etadi.

Yuqorida eslatib o'tilgan boshqa ko'rsatuvlar misolida bo'lgani singari ushbu misolda boshlovchi shaxsiga e'tibor jalb etilayotganligi bejiz emas. Agar o'zbek televideniyesining dolzarb muammolari aytiladigan bo'lsa, ular orasida teleboshlovchi muammosi eng o'tkir muammo bo'lib chiqadi. San'at to'g'risidagi ko'rsatuvlar munosabati bilan esa ushbu muammoni dadillik bilan birinchi o'ringa qo'yish mumkin.

Teleko'rsatuvlar boshlovchisining ideal portretini tuzish uncha qiyin emas. U kelishgan, nazokatli, o'zini erkin tutadigan, tinglay biladigan va zarur savollarni beradigan, ya'ni suhbat qura oladigan bo'lishi kerak. U ushbu suhbatni yuz minglab tomoshabinlar ko'rib turganini yoddan chiqarmasligi, biroq ayni vaqtda ana shu ulkan auditoriya va odamlarning kichik guruhiga murojaat qilish uquviga ega bo'lishi lozim. Ular bilan aloqa ishonchning yuqori darajasida yuz berishi kerak. Mavzuni va ko'rsatuv muammolarini yetarlicha bilishi, biroq o'ziga diqqat-e'tiborni jalb etmasligi, lo'nda va aniq gapira olishi shart.

San'at to'g'risidagi ko'rsatuvlar boshlovchisining ideal yig'ma portretini tuzish osonroq bo'lsa kerak. Amaliyotda barcha ideal xususiyatlarni jamlash murakkab. Bir necha talabgorlardan bittasini tanlay olish yanada qiyin — bunda fazilatlardan biri ko'plab boshqa fazilatlardan ustunlik qilishi mumkin. Ba'zan buning aksi ham bo'ladi — ayon ko'rinib turgandek bo'lgan fazilatlar tekshirilgan paytda unchalik yorqin bo'lib chiqmaydi.

Ba'zan teleboshlovchining go'zal fazilatlarini bo'lgan erkinlik va o'zini bemalol tutish ehtiyotsizlik va tartibsizlikka aylanishi mumkin. Ba'zida telekranda jozibali bo'lib tuyulgan yosh boshlovchilarning nafosati to'satdan ularga ishonchsizlik keltirib chiqaradi — bu yosh yigit va qizlar nima deyayotganini o'zlari ham tushunmay qoladi.

Ko'rinadiki, hatto san'at to'g'risidagi ko'rsatuv boshlovchisining yoshi ham muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Biz yosh bilan hayotiy tajribani va professional bilimlarni, odamlarni bilishni va shaxsiy obro'-e'tiborni bog'laymiz. Ushbu fazilatlar teletomoshabinlarning ishonchini tug'diradi va ko'rsatuvga shaxsiy ma'no baxsh etadi.

Sh.Burhonov haqidagi ko'rsatuv «KinoTeatr» va «Kinotaqdim» dasturlarining yosh boshlovchilari tomonidan olib borilishi mumkin edimi degan savolga aniq-tiniq qilib yo'q deyish mumkin. Buning ustiga, ushbu dasturlarning o'zi professional san'atshunos boshlovchi bo'lgan taqdirda boshqacha, teranroq tahliliy sifatlar kasb etishi mumkin edi. Buni yosh boshlovchilarga ta'na deb tushunmaslik kerak. Shunchaki teatr san'ati va kinematografiya to'g'risida boshqa mualliflar va boshlovchilar olib boradigan o'zga muntazam beriladigan ko'rsatuvlar turkumi paydo bo'lishi zarur. Bunday ko'rsatuvlarning misollari hozirning o'zidayoq mavjud. Eng avvalo ijodiy tandem — muallif va boshlovchi Sh.Raufboyeva va rejissor D.Mirxodiyev tomonidan tayyorlangan ko'rsatuvni ajratib ko'rsatish zarur. Ularning hamkorligi «KinoTeatr» ko'rsatuvidayoq samarali bo'lib chiqdi. Keyingi bosqich teatr san'atiga, o'zbek sahnasi darg'alariga bag'ishlangan «Qiyofa» turkumidir.

Teatr aktyorlari to'g'risidagi ko'rsatuv — televideniyaning sevimli mavzusi. Badiiy madaniyatning barcha arboblari bilan tomoshabinlarning ko'pchiligi aynan teatr va kino aktyorlarini teatr va tele-spektallar, badiiy filmlar, televideniyaning boshqa ko'rsatuvlari, nihoyat har kuni efirga chiqadigan reklama roliklari bo'yicha tanish. U yoki bu mashhur aktyor haqidagi ko'rsatuv ayrim darajada ularning ommaviyligi tufayli tomoshabinlar o'rtasida muvaffaqiyat qozonishi muqarrar. Shu sababli aktyorlar to'g'risidagi ijodiy portretlar mualliflarining vazifalari unchalik qiyin emasdek tuyuladi, buning ustiga bunga o'xshash ko'rsatuvlar uchun shablonlar va andozalar mavjud. «Qiyofa» turkumi mualliflarining xizmati nostandart yondashuvga intilishdan, mashhur aktyorning shaxsi va ijodiga tomoshabin uchun kutilmagan, notanish qirralarni izlab nazar tashlashdan iborat.

Hamza Umarov va Dilbar Ikromovaga bag'ishlangan kichik ko'rsatuvlar nostandart yondashuvlar bilan ajralib turadi. Hamza Umarov — o'zbek teatri va kinosining yirik siymolaridan biri. U tomonidan sahnada va badiiy filmlarda o'nlab rollar o'ynalgan. U



«Zakovat» ishtirokchilari.

haqli ravishda dublyajning mohir ustasi hisoblanadi. Garchi aktyor bundan 15 yil muqqadam hayotdan ko'z yumgan bo'lsa ham, ko'rsatuv xuddi bugungi kunda olingandek taassurot hosil qilinadigan tarzda tuzilgan. Syujetdagi aktyorning zamonaviy san'atga ta'siri to'g'risidagi fikr asosiy fikrga aylangan.

U bilan sahnaga birga chiqqanlarga, kinoda u bilan ishlaganlarga, uni o'z ustozlari deb biladiganlarga asosiy o'rin berilgan.

Uning hamkasblari va partnyorlari, Muqimiy nomidagi teatr aktyorlari va rejissorlari o'z xotiralari bilan o'rtoqlashadi. Xotiralarda bunday ko'rsatuvlar uchun xos o'rinlar umuman yo'q. Hamza Umarovning boy ijodiy hayotidan olingan qisqa hikoyalar, uning u yoki bu munosabat bilan bildirgan hajv va yumordan xoli bo'lmagan ibratli gaplari, hayron qolarli iliq, samimiy va jonli esdaliklar aktyorga nisbatan mehr-muhabbat, e'tirof bilan yo'g'rilgan. Umumiy gaplarsiz, umumiy baland pafossiz qisqa esdaliklarda nozik, iltifotli, kinoyali va aqli inson H.Umarovning jonli obrazi gavdalanadi.

Ushbu obraz favqulodda muhim detal bilan, aniq topilgan usul bilan to'ldiriladi. Butun ko'rsatuv davomida H.Umarovning ovozi yangrab turadi. Usul juda aniq – intonatsiyalarni va barcha ovoz registrlarini har tomonlama egallab olish – ushbu aktyorning ifoda imkoniyatlari boyligidagi asosiy vosita. Ko'rsatuvda H.Umarov bosh rolga ajoyib tarzda ovoz bergan «Ivan Vasilyevich kasbini o'zgartiradi» komediyasidan kadrlar bir necha marta namoyish qilinishi e'tiborga loyiq. Ko'rsatuv ushbu muhim va ko'p ma'noli detal bilan bizning e'tiborimizni aktyorning ijodiy biografiyasida ko'p uchraydigan teatr, kino, dublyajdagi yirik ijtimoiy rollarga emas, balki H.Umarovning mahorati yorqin namoyon bo'lgan grotesk-komediya xususiyatiga ega bo'lgan asarlar dublyajiga qaratiladi. Bunday nuqtai nazar ko'rsatuv mualliflari tomonidan aktyor kasbining professional mohiyatini tushunishdan dalolat beradi, uning artistlik iste'dodi va insoniy fazilatlarini cho'qqisi munosib darajada belgilanadi. Biroq

vaqtning tantanavorligiga ham rioya qilingan. Boshlovchi Muqimiy nomidagi teatrning bosh zalida ikkita qisqa monologni aytadi va ko'rsatuvni aktyor qabridagi yodgorlik lavhasi yonida tamomlaydi.

Ko'rinib turibdiki, kontrast usuli ijodiy portretida muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda va «Qiyofa» turkumi mualliflari uchun sevimli usulga aylanmogda. Bu Milliy teatrning yetakchi aktrisasi D.Ikromova ijodiga bag'ishlangan ko'rsatuvda ham sezilib turadi.

Aktrisa teatr va kinoda komediyali, murakkab xarakterli rollar ijrochisi sifatida mashhurdir. Uning sahnada yoki kino ekranida paydo bo'lishining o'zi tomoshabinlarning kulgusini uyg'otadi. Teleekran ko'proq qattiqqo'l maktab o'qituvchisiga o'xshagan, o'z kasbi va hayoti to'g'risida aqli va nozik mulohaza yuritadigan boshqa bir aktrisini kashf etadi. Uning ishtirokidagi spektakllar va kinofilmlardan olingan parchalar bilan birga beriladigan uning monologi – kasbga bo'lgan jiddiy munosabatdir. Komediya aktyoridan kasbga jiddiy munosabatda bo'lish ijtimoiy dramatik rollar ijrochisidan talab qilinadigandan kam bo'lmagan darajada talab qilinadi.

Bitta detal, bitta o'z vaqtida berilgan jo'yali savol va unga javob ko'rsatuvning, umuman butun turkumning niyatini, mazmuni va mohiyatini ochib berishi mumkinligi hayron qolarlidir! Dilbar Ikromova to'g'risidagi ko'rsatuvda mana shunday lahza, mana shunday detal bor edi.

Suhbat davomida boshlovchi Sh.Raufboyeva juda ehtiyotkorlik bilan aktrisa jiddiy dramatik rollar to'g'risida orzu qilgan-qilmaganligini so'raydi. Komik aktyor bilan intervyudagi oddiy savol. Bu savolga odatda tasdiqlovchi javob beriladi – albatta Hamlet, Mariya Styuart to'g'risida orzu qilaman...! D.Ikromova to'g'risidagi syujetda ushbu savol oldindan nazarda tutilmagandek tuyuladi. Savol ko'rsatuv davomida, teletomoshibinlar singari boshlovchi ham komediya aktrisasida jiddiy professionalni ko'rgandan keyin yetiladi. Aktrisa bu savolga garchi sal kulimsirab bo'lsa-da jiddiy javob beradi: «Yo'q, orzu qilmayman. Men o'z aktyorlik imkoniyatlarimni yaxshi bilaman va aniq baholayman. Agar men tomoshabinlarga quvonch baxsh etsam, agar ular mening spektakllarimda kulsalar – men taqdir bilan bahslashib o'tirmayman».

«Qiyofa» turkumi televizion loyiha sifatida aynan o'z vaqtida namoyish qilinmogda. Unda qo'yilgan vazifa mutlaqo aniq: aktyorlik kasbining obro'-e'tibori va qadrini ko'tarish. Ushbu turkumning



syujetlari qiziqarli va mazmunli shaklda bizga katta hurmatga sazovor bo'lgan, oson bo'lmagan va quvonchli ijodiy mehnat sifatida aktyorlik kasbi haqida so'zlaydi.

Teatr va kinoning taniqli darg'alari qatnashadigan ko'ngilochar, o'yin ko'rsatuvlari, reklama roliklari ko'p bo'lgan bir sharoitda ushbu ko'rsatuvning dolzabligi shubhasizdir. Zamonaviy televideniye-da afsuski reklama roliklari bo'lmisligi mumkin emas. Biroq taniqli aktyorlarning har xil teleclotereyalar, reklamalar va boshqa tijorat dasturlarida har kuni ko'rinib turishi aktyorlik kasbining obro'sini mustahkamlaydi, deyish qiyin.

Aktyor hamma vaqt o'zbek teatrining asosiy siymosi bo'lib kelgan. Shu sababli, pirovard natijada, ushbu turkum aktyorlik kasbiga yuksak baho berib, muhim va olijanob vazifani hal etadi. Jamoatchilik ongida teatr san'atining nufuzini ko'taradi. Chunki bugungi kunda o'zbek teatri aktyorlik kasbining nufuzi ortishiga ehtiyoj sezmoqda.

Yuqorida san'at to'g'risidagi bir qator ko'rsatuvlar bugungi kunda yosh rejissorlar, mualliflar va boshlovchilar tomonidan amalga oshirilayotganligi aytib o'tildi. Haqiqatdan ham bizning televideniye-miz ko'z oldimizda yangilanmoqda. Televideniye-da kadrlarning yosharishi tendensiyasiga faqat ijobiy baho berish mumkin. Biroq, ushbu tendensiya yagona maqsadni ko'zlamasligi, professional ustuvorliklardan ustunlik qilmasligi kerak. U ijodda «barcha ishdagilar bo'yin egadigan» raqobatni rag'batlantirishi zarur. Bu telekanalning yo'nalishidan qat'i nazar birinchi davlat, «Yoshlar» yoki «Toshkent» telekanallariga tegishlidir.

Albatta, yoshlar madaniyati muammolariga, masalan, zamonaviy musiqiy estrada muammolariga bag'ishlangan ko'rsatuvlar, agar ularni yosh boshlovchilar olib borsa, jonli va tabiiy tomosha qilina-di. Bu ularning hududi, ular bu yerda yaxshiroq tushunadilar, ularning yosh teletomoshabinlar bilan umumiy til topishi yengilroq kechadi. Bunday dasturlar tobora ko'proq paydo bo'lmoqda, «O'n uchinchi» yoki mutlaqo yangi «TV-Markaz» kabi katta bo'lmagan telekanallarda namoyish etilmoqda.

Biroq, aytaylik, «Yoshlar» kanalida san'at to'g'risidagi jiddiy ko'rsatuvni bunday ko'rsatuvni tayyorlash va olib borishga tayyor bo'lgan professional mutaxassislar bor bo'lgan bir vaqtda jurnalistika fakultetining kechagi bitiruvchilariga ishonib topshirish shart

emas. Birinchidan, yosh tomoshabinlarning san'at to'g'risidagi jiddiy gaplarni idrok qilish qobiliyatiga ishonish uchun shunday qilish zarur. Ikkinchidan, «Yoshlar» telekanalining auditoriyasi faqat yoshlardan iborat emas — uni barcha avlod tomoshabinlari ko'radi. Ushbu kanalning yoshlarga yo'naltirilganligiga kelganda esa shuni aytish zarurki, maktabda va oliy o'quv yurtida hamma vaqt ham partaning orqasida o'tirgan o'quvchilar yoki talabalarning tengdoshlari ma'ruza o'qiyvermaydi. Asosiysi, ma'ruza to'laqonli, ko'rsatuv esa mazmunli va qiziqarli bo'lishidadir.

Ko'pincha san'at to'g'risidagi ko'rsatuvning boshlovchisi uning muallifi, aniqroq aytganda rejissor va muharrir bilan birgalikda ijodiy jamoaning to'laqonli hammuallifi hisoblanadi. Mavzu tanlash va nuqtai nazar, ko'rsatuvda ilgari suriladigan savollarning professional darajasi ko'p jihatdan unga bog'liqdir. Shu sababli zamonaviy san'at to'g'risida ko'rsatuv tayyorlashda televideniye-ning mutaxassis-san'atshunoslari bilan mustahkam aloqalar zarur. Ushbu aloqalar-ning shakli har xil bo'lishi mumkin, mutaxassislarni boshlovchi, ekspert, yoxud maslahatchi sifatida taklif qilish mumkin.

San'at sohasida yuz berayotgan voqealarning ko'pchiligi televideniye-ning nazaridan chetda qoladi. Bu ayniqsa O'zbekistonning zamonaviy san'atidagi yangi tajriba yo'sinidagi yo'nalishlarga tegishlidir. Jumladan, nima sababdandir televideniye O'zbekistonning qiziqarli teatr jamoalaridan biri — «Eski machit» studiyasini e'tibordan chetda qoldirmoqda. Keyingi o'n yilda faqat «Rakurs» ushbu teatrning badiiy rahbari bilan kichik bir lavhani namoyish qildi, xolos.

O'zbekistonning zamonaviy tasviriy san'atiga bag'ishlangan ko'rsatuvlar to'g'risidagi masala alohida o'rinda turadi. Ushbu sohada yuz berayotgan voqealar yangiliklar dasturlarida keng yoritiladi. Vaqti-vaqti bilan taniqli rassomlar bilan qisqa intervyularni «Assalom, O'zbekiston» axborot-dam olish dasturida ko'rish mum-



«Sport» kanali efirda.

kin. San'at to'g'risidagi yirikroq formatli ko'rsatuvlarni tayyorlashda televideniye adabiyot, teatr, kinematografiyaga ustunlik beradi. Tasviriy san'at sohasida esa u an'anaviy shakllarni afzal ko'radi va zamonaviy muammolarni deyarli payqamaydi. Bundan tashqari, o'zbek rassomlarining polotnolari jahonning turli muzeylarida namoyish qilinmoqda va umuman olganda tasviriy san'at O'zbekistonning zamonaviy badiiy madaniyatida yuqori o'rinlarni egallab turibdi, yirik san'atshunos mutaxassislar mavjud bo'lgan, tasviriy san'at hatto xalqaro biyenalda namoyish qilinayotgan bir paytda faqat axborot dasturlaridagi syujetlar bilan cheklanilmoqda.

Axborot berish televideniyeining asosiy funksiyasi ekanligiga shubha yo'q. Biroq, zamonaviy televideniyeining ustuvorliklari orasida tahliliy vazifalar ham oxirgi o'rinlarda turmasligi kerak. Biroq ushbu vazifalar, ma'lumki, telejurnalistning professional tayyorgarligi darajasiga yuqoriroq talablar qo'yadi.

Teleko'rsatuvlarning axborot berish va tahliliy vazifasi qanchalik mutanosib bo'lsa, san'at to'g'risidagi ko'rsatuvlarda madaniyat jarayonlarini aks ettirishning muqobilligi shuncha yuqori bo'ladi. Go'yoki sof axborot kanalidek bo'lib tuyulgan «Yevronyus» efir vaqtining deyarli uchdan bir qismini har kuni jahon va Yevropa san'atida yuz berayotgan voqealarga ajratishi, axborotni lo'nda va teran tahliliy ma'lumotlar bilan muvaffaqiyatli qo'shib olib borishi bejiz emas.

Yevropa yangiliklar kanali bejiz eslatib o'tilmadi. Bugungi kunda O'zbekiston televideniyesi ko'rsatuvlarini eng yaxshi xorijiy telekanallar namunalari bilan modellashtirish zarurligi to'g'risidagi fikr tobora ayon bo'lib bormoqda. Aslini aytganda, ushbu fikr televideniyeimizni modernizatsiya qilish jarayoniga asos qilib olingan. Kuzatuvchan teletomoshabinlar buning elementlarini hozirdanoq payqashlari mumkin. Bu o'rinda shu holatni hisobga olish zarurki, jahonda yuz berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar, globallashtirishning o'tkir muammolari, shu jumladan madaniy globallashtirish, madaniyatlar va sivilizatsiyalarning o'zaro munosabatlari, murakkab konfessiyalararo va dinlararo o'zaro hamkorlik yetakchi xorijiy televideniye kanallarini madaniyat va san'atga ko'proq e'tibor berishga undaydi. Angliyaning Bi-Bi-Si, Fransiyaning TV-1 kabi telekanallari va bir qancha boshqa telekanallar ko'rsatuvlari setkasida gumanitar tendensiyalar sezilarli darajada kuchaygan. Obrazli qilib aytganda, eng

yaxshi telekanallarda Dostoyevskiyning «dunyoni go'zallik qutqardi» degan so'zlari faollashtirilmoqda.

Shu sababli, biz televideniyeimizni ularning namunalari bo'yicha modernizatsiya qilishimiz kerak bo'lgan qandaydir televideniye model lar haqida gapirganimizda mashhur jahon televideniye kanallarida tobora o'sib borayotgan ushbu istiqbolli tendensiyani ham nazarda tutishimiz zarur. Bizning televideniyeimiz ancha yillik va mustahkam madaniy-ma'rifiy an'analarga ega ekan, bunday telekanallar uni isloh qilish va modernizatsiya qilish jarayonida yo'nalishlar bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu an'analarni hech bir holatda rad etib bo'lmaydi. Ularni faqat yangi tahliliy dasturlar bilan xilma-xillashtirish va teranlashtirish zarur. Masalan, ushbu o'rinda muhokama qilinayotgan mavzuli segmentda hozir davra suhbat yoki tok-show formatlaridagi muntazam ko'rsatuvlar mavjud emas. Bunday ko'rsatuvlarning zarurligini nafaqat televideniye «moda» talab qiladi (agar moda ijtimoiy kayfiyatlarga, ehtiyojlarga, didlarga muvofiq bo'lsa nima uchun modaga er-gashmaslik kerak). Bunday ko'rsatuvlar zamonaviy san'at olamida yuz berayotgan voqealar to'g'risidagi axborot bilan tajriba izlanishlari va O'zbekiston badiiy madaniyatidagi boshqa tashvish uyg'otayotgan muammolar to'g'risida jiddiyroq fikr almashish o'rtasidagi zarur uyg'unlikni mutanosiblashtirishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy san'at arboblari, amaliyotchilar va nazariyotchilar birgalikda jam bo'lib O'zbekiston madaniyatining holati va bo'lg'usi rivojlanishi to'g'risidagi o'z fikrlarini bildiradigan davra suhbat formatidagi muntazam turkumli televideniye loyiha yaratish vazifasi eng dolzarb va istiqbolli vazifalardan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A.Karimov*. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: «O'zbekiston», 1993.
2. *I.A.Karimov*. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T.: «O'zbekiston», 1997.
3. *I.A.Karimov*. Ma'naviy yuksalish yo'lida: tarix, ma'rifat, ma'naviyat. – T.: «O'zbekiston», 1998.
4. *Д.Девис*. Азбука телевидения. – М.: «Искусство», 1962.
5. *В.Саппак*. Телевидение и мы. – М.: «Искусство», 1963.
6. *Р.Ильин*. Выразительные средства телевидения. – М.: «Искусство», 1966.
7. *А.А.Юровский, Р.А.Борецкий*. Основы телевизионной журналистики. – М.: МГУ, 1966.
8. *В.Вильчек*. Контуры. Наблюдения о природе телеискусства. – М.: «Искусство», 1967.
9. *Э.Г.Багиров, Р.Борецкий, Д.Глуховский, Н.Григорьянц*. Жанры телевидения. – М.: «Искусство», 1967.
10. «Искусство голубого экрана». (Сборник статей.) – М.: 1968.
11. *Э.Г.Багиров*. Очерки теории телевидения. – М.: 1978.
12. *Ю.А.Богомолов*. Проблемы времени в художественном телевидении. – М.: «Искусство», 1977.
13. *Б.П.Грабовский*. Изобретатель телефота. – Т.: «Узбекистан», 1989.
14. *И.Коган*. Морфология искусства. – М.: «Искусство», 1972.
15. *Р.Д.Копылова*. Контакт. Заметки о феномене телевизионности. – М.: «Искусство», 1974.
16. *А.Юровский*. Телевидение – поиски и решения. – М.: 1975.
17. *Р.Д.Копылова*. Кинематограф плюс телевидение. Факты и суждения. – М.: «Искусство», 1977.
18. *Э.Г.Багиров*. Очерки теории телевидения. – М.: 1978.
19. *А.Рахмен, В.Пастин*. Телевидение как искусство. М.: «Искусство», 1962.
20. *Ж.Т.Тешабоев*. Узбекское кино: традиции и новаторство. Т.: «Г.Гулям», 1979.
21. *В.Карелина*. На экране и за экраном. – М.: 1982.
22. *А.Юровский*. Телевидение – поиски и решения. – М.: 1983.
23. *Г.Никулина*. Лица знакомые и незнакомые. – М.: 1980.
24. *А.Убайдуллаев*. Oynai jahon istiqbollari. – Т.: «Fan», 1993.
25. *Е.Умаров, I.Pal*. Janr estetikasi. – Т.: «G'.G'ulom», 1985.
26. *С.А.Муратов*. Встречная исповедь. – М.: 1988.
27. *В.В.Егоров*. Телевидение: теория и практика. – М.: 1993.
28. *В.Цвик*. Телевидение: системные характеристики. М 1999.
29. *Абул-Касимова*. Кино и художественная культура Узбекистана. – Т.: «Фан», 1991.
30. *Х.Акбаров*. Kino va televideniye olamida. – Т.: «G'.G'ulom», 1999.
31. *Б.Ахмедов*. Режиссура телевизионного фильма. Т. 2005.
32. *Sh. Tojiboyev*. Televideniye. – Т.: 2006.
33. *М.Мухамедов*. Ustozlar izidan. – Т.: 2006.
34. *М.Мухамедов*. Rejissura asoslari. – Т.: 2008.

## MUNDARIJA

Soʻzboshi ..... 3

### I boʻlim

1. XX asr moʻjizasi ..... 4
2. Televideniye ning reproduktiv funksiyalari va uning xususiyatlari ..... 18
3. Televideniye va uning rejissori ..... 25
4. Badiiy asar ustida ishlash ..... 31
5. Rejissura va xatti-harakat ..... 37
6. Rejissor va rassom ..... 44
7. Televideniye va uning janrlari ..... 46
8. Televideniye dasturlarida publisistik koʻrsatuvlarni tashkil qilish ..... 49
9. Rejissor ssenariysi ..... 54
10. Milliy teleserial va uning ilk tajribalari ..... 70

### II boʻlim

1. Oʻzbekistonda televideniye ning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari ..... 76
2. Oʻzbekistonda badiiy televideniyesining evolutsiyasi ..... 79
3. Oʻzbekiston badiiy televideniyesida uslub va izlanishlar ..... 92

### III boʻlim

1. Sanʼat mavzuini yoritadigan televizion koʻrsatuvlar: izlanishlar va mahorat muammolari ..... 99
  2. Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston televideniyesida madaniy-badiiy koʻrsatuvlar ..... 103
  3. Axborot dasturlarida madaniyat va sanʼat toʻgʻrisidagi mavzular ..... 108
  4. 90-yillar birinchi yarmi koʻrsatuvlarida shaxs va davr ..... 112
- Foydalanilgan adabiyotlar ..... 148

*MAHKAM MUHAMEDOV, FERUZA FAYZIYEVA,  
VENERA ABLIYAYEVA*

## TELEVIDENIYE ASOSLARI

*Sanʼat va sanʼatshunoslik oliy oʻquv yurtlari talabalari  
uchun darslik*

*Toshkent – «Voris-nashriyot» 2009*

Muharrir *Z.Gʻulomova*  
Badiiy muharrir *B.Ibrohimov*  
Sahifalovchi *Sh.Rahimquliyev*

Original-maketdan bosishga 09.07.2009 da ruxsat oʻldi  
Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset bosma usulida bosildi. Hoʻra mat. 9.5  
Shartli b.t. 8,83. Nashr t. 9,5. Adah 500. Buyurtma № 108

«Voris-nashriyot» MChJ, Toshkent, Alimov koʻchasi 100  
«Niso poligraf» ShK binomasomada chop etildi  
100182, Toshkent, 11. Boyqaro koʻchasi 44